IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI GAZETA 1992-YILNING 24-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN / 2026-YIL 13-NOYABR / 46-SON (3212)

VATANPARVAR



Öping, közingizga suring tuproğin,
Har sözin muqaddas duodek seving.
Qadang yuraklarga millat bayroğin,
Vatanni Najmiddin Kubrodek seving.

Muhammad YUSUF,
Özbekiston xalq şoiri

“ÖZ”GA YÖL: EL NETIB TOPQAY MENIKIM...

Bugun tilimizga, millatimizga va özligimizga bölgan ehtirom tobora yuksalmoqda. Odamlar yana kitob öqişga intilyapti. Ota-bobolarimizdan qolgan ma’naviy merosni qayta tiklayapmiz, – deydi davlatimiz rahbari Qamaşining Çim mahallasida aholi bilan bölgan uçraşuvda.



JAMIYAT YANGILANIŞINING MA’NAVIY POYDEVORI

Yangilanayotgan özbek jamiyati oldida turgan eng muhim vazifalar faqat iqtisodiy taraqqiyotga erişiş, zamonaviy texnologiyalarni özlaştiriş yoki davlat boşqaruvini takomillaştiriş bilangina çeklanmaydi. Eng asosiy masala ana şu özgarişlarni amalga oşirayotgan insonning ma’naviy qiyofasi, milliy özligini anglaşi, Vatan taqdiriga daxldorligi va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatini yuksaltirişdir. Buyuk mutafakkir Alişer Navoiy “Çor devon”ining ikkinçi jildidagi “El netib topqay menikim, men özumni topmamon” degan misrasi özining asl işqiy-irfoniy ma’nosi bilan birga, bugungi insonning özligini anglaşi uçun ham muşohadaga asos böla oladi.

Darhaqiqat, özligini anglamagan inson öz hayotiy maqsadlarini belgilaşda qiynalganidek, tarixiy xotirasi, ma’naviy ildizlari va milliy manfaatlarini yetarliça anglamagan jamiyat ham taraqqiyot yölida murakkab muammolarga duç keladi. Bugun har birimiz özimizga bir savolni berişimiz zarur: biz ajdodlarimizdan qanday ma’naviy meros qabul qilib oldik va farzandlarimizga qanday jamiyatni qoldirmoqdamiz? Bu savolga javob faqat tarixiy sanalarni yodlaş yoki buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanişdan iborat emas. Javob şuki, milliy qadriyatlarni kundalik hayotimizda namoyon etiş, halol mehnat qiliş, ilm oliş, adolatni himoya qiliş, jamiyat manfaatlariga befarq bölmaslik va mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qöşişdadir. Milliy özlikni anglaş ana şu fazilatlarni şaxsning içki e’tiqodiga aylantiruvçi ma’naviy kuçdir. Demak, yangi Özbekistonni barpo etiş jarayonida eng muhim maqsadlardan biri ham öz tarixini biladigan, öz qadrini anglaydigan, Vatani bilan faxrlanadigan va uning kelajagi uçun şaxsiy mas’uliyatni his etadigan avlodni tarbiyalaşdir.

ÖZLIKKA QAYTIŞ ORQAGA QAYTIŞ EMAS

Özlikka qaytiş deganda, ba’zan ötmişdagi urf-odatlarni özgarişsiz tiklaş, qadimgi turmuş tarzini ideallaştiriş yoki zamonaviy hayotdagi yangiliklardan uzoqlaşişni tuşunganlar ham bor. Aslida bunday yondaşuv milliy taraqqiyotning mazmuniga töliq mos kelmaydi. Zero özlikka qaytiş orqaga qaytiş emas, balki tarixiy ildizlarga tayanib, kelajak sari dadil qadam taşlaşdir. Özbek xalqining tarixiy tajribasida mehnatsevarlik, ilmga hurmat, kattalarni e’zozlaş, mehmondöstlik, bağrikenglik, oilaga sadoqat, mahalla hamjihatligi va insonparvarlik kabi fazilatlarni qayta jonlantirişdi. Biroq jamiyat rivojlanişi davomida ayrim urf-odatlar zamon talablariga muvofiq yangilanişi, inson huquqlari va ijtimoiy adolat mezonlari asosida qayta baholanişi ham tabiiy jarayondir. Özlikka qaytişning asosiy şarti tarixdan faqat faxrlaniş emas, undan saboq oliş, ilğor jihatlarini saqlaş va taraqqiyotga tösqinlik qiluvçi holatlarni tanqidiy baholaşdir. Şunday yondaşuvdagina milliy meros muzey eksponatiga aylanib qolmay, bugungi jamiyatni yangilaydigan tirik ma’naviy kuç vazifasini bajaradi.

ONA TILIDA FIKRLAŞ NIMA DEGANI?

Milliy özlikning eng mustahkam tayançlaridan biri ona tilidir. Çunki til insonning fikrlaş tarzi, tarixiy xotirasi, hissiy keçinmalari va madaniy dunyoqaraşini avloddan avlodga yetkazadigan bebaho ma’naviy boylikdir. Özbek tilida xalqimizning asrlar davomida şakllangan hayot falsafasi, maqol va matallari, donişmandlik an’analari, mehr-oqibat tuşunçalari va axloqiy me’yorlari mujassam. Ona tilini qadrlaş faqat uning davlat tili maqomini e’tirof etiş yoki bayram tadbirlarida madh etiş bilan kifoyalanmaydi. Bu avvalambor, ona tilimizda aniq va ravon fikrlaş, savodli yoziş, sifatli ilmiy asarlar yaratiş, zamonaviy texnologiyalar uçun milliy til resurslarini rivojlantiriş, badiiy adabiyotni mutolaa qiliş va farzandlarga boy sözlaşuv madaniyatini örgatişda körinadi. Afsuski, ayrim yoşlar orasida ona tilida mukammal fikr bayon eta olmaslik, kitobxonlikka qiziqişning pasayişi, ijtimoiy tarmoqlarda imloviy savodsizlik, muloqotda qöpol iboralardan foydalaniş yoki özbek tilini bilişni da’vo qilsalar-da, unda fikrlamaslik holatlari köp uçramoqda. Töğri, ayni paytda xorijiy tillarni örganişga milliy özlikka tahdid emas, balki milliy tafakkurni boyitiş imkoniyati sifatida qaramoqdamiz, köplab tillarni bilgan, lekin öz ona tilida çuqur fikrlaydigan öğil-qizgina milliy madaniyatning munosib vakiliga aylanadi.

AJDODLAR BILAN FAXRLANIŞ IMTIYOZ EMAS, BALKI MAS’ULIYAT

Olmon mutafakkiri Gyotening “Qaysi bir xalqning ajdodlari buyuk bölgan bölsa, avlodlari katta mas’uliyat ostida qolibdi”, degan gapi bor. Özlikni anglaşning muhim şarti tarixni biliş, uni ilmiy asosda örganiş va tarixiy tajribani bugungi hayot bilan boğlay olişdir. Özbek xalqining ma’naviy merosida ilm-fan, davlatçilik, şaharsozlik, adabiyot, falsafa, huquqiy tafakkur va madaniyat sohalarida jahon ahamiyatiga ega yutuqlar mavjud. Muhammad al-Xorazmiyning matematika taraqqiyotiga qöşgan hissasi, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy kuzatiş va qiyosiy bilişga asoslangan izlanişlari, Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot va falsafadagi merosi, Mirzo Uluğbekning astronomiya maktabi, Alişer Navoiyning adabiy-falsafiy tafakkuri yoş avlod uçun ulkan ma’naviy maktabdir. Bu allomalarning buyukligi faqat ularning tarixda maşhur bölganida emas, balki insoniyat bilimini yangi bosqiçga kötarişga intilganidadir. Bundan olinadigan eng muhim saboq esa millatning haqiqiy qudrati uning ilmiy salohiyati, aqliy imkoniyatlari va ijodkorlik qobiliyati bilan ham belgilanadi. Agar biz Xorazmiy bilan faxrlansak, zamonaviy matematiklar va dasturçilarni tarbiyalaşimiz, Uluğbek merosini qadrlasak, astronomiya, fizika va muhandislik sohalarida ilmiy izlanişlarni kuçaytirişimiz yoki Navoiyni buyuk mutafakkir deb bilsak, ona tilimizda çuqur falsafiy fikrlay oladigan, kitobxon va ma’naviy yetuk yoşlarni kamol toptirişimiz şart. Ajdodlar bilan faxrlaniş bizga imtiyoz emas, mas’uliyat yuklaydi. Çunki buyuk tarixga munosib bölişning eng işonçli yöli öşa buyuklikni yangi bilim, mehnat va bunyodkorlik orqali davom ettirişdir.

JASORAT URUŞNI ULUĞLAŞ EMAS, TINÇLIKNI QADRLAŞDIR

Milliy özlik harbiy vatanparvarlikni ham taqozo qiladi va uning tarixiy ildizlarini örganganda, XIII asrda möğul istilosiga qarşi kuraşgan Jaloliddin Manguberdining jasorati alohida ahamiyat kasb etadi. U Xorazmşohlar davlatining nihoyatda murakkab siyosiy va harbiy şaroitlarida yaşadi, oğir mağlubiyatlar va içki kelişmovçiliklarga qaramay, bosqinçilarga qarşi qarşilik harakatini davom ettirdi. Uning hayoti yoşlar uçun şunçaki qahramonlik haqidagi hikoya emas, balki sabr-matonat, jasorat, murakkab vaziyatda qaror qabul qiliş va mas’uliyatni zimmaga oliş maktabidir. Şu davrda Xöjand mudofaasi bilan boğliq Temur Malik jasorati ham xalq xotirasida mardlik va qarşilik timsoli bölib saqlanib kelmoqda. Bu tarixiy şaxslarni örganişda ularni bugungi milliy davlatçilik tuşunçalari bilan töliq birxillaştirib yuborişdan ehtiyot böliş kerak. Çunki ular öz davrining siyosiy, hududiy va madaniy şaroitlarida harakat qilganlar. Biroq ularning merosida Vatanga sadoqat, mustaqillik uçun kuraş va oğir sinovlarga doş beriş kabi umuminsoniy fazilatlar mujassam. Eng muhimi, jasoratni urušni uluğlaş emas, tinçlik va erkinlikning naqadar qimmatli ekanini anglaş vositasiga aylantiriş lozim.

VATAN TAQDIRI UÇUN MAS’ULLIK

Milliy özlik va Vatan taqdiri uçun mas’uliyat tarixini örganişda Najmiddin Kubro va Amir Temur kabi şaxslarning ma’naviy merosi ham muhim örin tutadi. Najmiddin Kubro xalq xotirasida nafaqat buyuk tasavvuf namoyandasi, balki Gurganj fojiasi davrida yurt bilan taqdirdoş bölgan ma’naviy jasorat timsoli sifatida saqlanib qolgan. U haqdagi tarixiy xabarlar va rivoyatlar jasoratning faqat qurol bilan emas, e’tiqod, qat’iyat va ma’naviy sadoqat orqali ham namoyon bölişini körsatadi. Amir Temur faoliyati esa davlat boşqaruvi, harbiy taşkilotçilik, strategik fikrlaş va siyosiy qarorlar qabul qiliş tarixini örganiş uçun muhim manbadir. Ayni paytda tarixni xolis örganiş Amir Temur yurişlarining oğir oqibatlari, öşa davrdagi uruşlar va siyosiy kuraşlarni ham nazardan çetda qoldirmaslikni talab qiladi. Çunki haqiqiy tarixiy ong faqat ğalabalarni emas, tarixning ziddiyatlari va fojialarini ham anglaş orqali şakllanadi. Bugungi yoşlar uşbu tarixiy tajribadan davlat manfaatlarini anglaş, tartib-intizom, mas’uliyat, taşkilotçilik va strategik tafakkur haqida saboq olişlari zarur.

ÖZ MILLATINI ANGLAŞ MUSTAQIL FIKRLAŞDAN BOŞLANADI

Milliy özlikni anglaş tarixida Mahmudxöja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abduraşidxonov, Abdurauf Fitrat va boşqa ma’rifatparvarlar bobolarimiz xalqning kelajagini ilm, maktab, matbuot, madaniyat va milliy uyğoniş

bilan boğladilar. Ular yaxşi anglagan haqiqat şu ediki, millat özining tarixiy qadrini bilişi uçun avvalo bilimli, savodli va mustaqil fikrlaydigan bölişi zarur. Jadidlar milliy özlikni faqat ötmişni eslaş orqali emas, balki zamonaviy ta'lim, ijtimoiy islohot va madaniy taraqqiyot vositasida rivojlantirişga harakat qildi. Ular öz davridagi qoloqlik, jaholat, savodsizlik va ijtimoiy muammolar haqida oçiq fikr yuritişdan qörqmadilar. Şu jihatdan jadidlik milliy an'analarga hurmat bilan yangilanişga intilişni birlaştirgan muhim ma'rifiy harakat edi. Ularning eng muhim merosi jamiyatni ilm va ma'rifat bilan özgartiriş, inson ongini uyğotiş va xalq taqdiri uçun mas'uliyatni his etiş ğoyasidir. Jadidlar tarixi yoşlarga öz millatini seviş bilan uning muammolarini köra oliş bir-biriga zid emasligini örgatadi.

IJTIMOIY XOTIRANING YANGILANIŞI

Mustaqillik yillarida özbek jamiyati öz davlatçiligi, tarixi, tili va madaniy merosini yangiça anglaş imkoniyatiga ega böldi. Bugun mazkur jarayon inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, ta'lim sifati va fuqarolarning davlat boşqaruvida iştirokini kengaytiriş vazifalari bilan uyğunlaşmoqda. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari, fuqarolar tengligi, tarixiy va madaniy merosni asraş kabi tamoyillar mustahkamlangan. "Özbekiston – 2030" strategiyasida ham bilimli, soğlom va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalaş taraqqiyotning muhim yönalişlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Biroq har qanday islohotning haqiqiy samarasi uning hujjatlarda qay darajada mukammal ifodalangani bilan emas, odamlar hayotida qanday ijobiy özgarişlarga olib kelgani bilan baholanişi kerak. Demak, milliy ğururning eng mustahkam manbai faqat buyuk tarix emas, balki inson öz yurtida qadr topayotganini kundalik hayotida his etişidir.

MILLIY ÖZLIK AMALIY FAOLIYAT BILAN BOĞLANSIN

Yoşlar tarbiyasida milliy özlikni çuqurlaştiriş faqat gumanitar fanlar yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ziyolilarning vazifasi emas, balki jamiyat, millat, davlatning ham vazifasidir. Bu jarayon zamonaviy bilim, kasbiy mahorat, innovatsion tafakkur va ijtimoiy taşabbuskorlik bilan birga rivojlanişni talab qiladi. Bugun dunyo miqyosida raqobat tobora ilm-fan, texnologiya, sun'iy intellekt, muhandislik va intellektual mahsulotlar sohasiga köçib borayotgan şaroitda özbek yoşlarining milliy ğurur ularning jahon ilm-fani va iqtisodiyotida munosib örin egallaşga bölgan intilişi bilan mustahkamlanişi kerak. Masalan, xorijda tahsil olayotgan yoş olim, xalqaro tanlovda ğolib bölgan dasturçi, yangi texnologiya yaratgan muhandis yoki jahon sahnasida özbek madaniyatini munosib namoyon etgan san'atkor milliy özlikning zamonaviy ifodasidir. Şu ma'noda vatanparvarlik faqat ötmiş qahramonlarini yod etiş emas, balki kelajak qahramonlarini tarbiyalaş hamdir. Bugun ta'lim muassasalari yoşlarga milliy tarix va qadriyatlarni örgatiş bilan birga, ularni ijtimoiy muammolarni tahlil qiliş, ilmiy asoslangan yeçimlar işlab çiqiş va jamoatçilik manfaatlari yölida taşabbus körsatişga tayyorlaşi zarur. Milliy özlik şunday amaliy faoliyat bilan boğlanganda u mavhum tuşunçadan hayotiy e'tiqodga aylanadi.

MILLIY ÖZLIKNI ANGLAŞNING MUHIM JIHATI

Harbiy vatanparvarlik milliy özlikni anglaşning muhim, biroq öziga xos yönalişidir. Yoşlarimizga Vatan mustaqilligi, hududiy yaxlitligi, konstitutsiyaviy tuzumi va xalq xavfsizligini himoya qilişga tayyorlik tuyğusini tuşuntirişga intilyapmiz, biroq Vatan faqat çegaralar bilan belgilangan geografik hudud emas, bu avvalo, öz oilamiz, tariximiz, tilimiz, madaniyatimiz, halol mehnatimiz, xotiralarimiz, erkinlik va kelajagimiz bilan uzviy boğliq muqaddas makon ekanini keçroq anglatmoqdamiz. Şuning uçun Vatanni himoya qiliş, avvalo, ana şu qadriyatlarni, tinç hayotni va insonlarning xavfsizligini asraş ma'nosini anglatadi. Bu tuşunça tinçlikning qadrini biliş, mojarolarning oldini oliş, intizom, jasorat, huquqiy bilim va oğir vaziyatlarda xalq manfaatlarini himoya qila oliş qobiliyatiga asoslanadi. Har bir yoş bilişi lozim bölgan qoida şuki, mardlikning eng oliy körinişi kuç işlatişda emas, balki tinçlikni saqlaş va inson hayotini asraşga qaratilgan mas'uliyatli qarorda namoyon böladi.

HUQUQLARINI BILGAN AVLOD BURÇLARINI HAM BILSIN

Milliy özlikni anglaş fuqarolik mas'uliyati bilan uyğunlaşmagan jamiyatda barqaror ma'naviy taraqqiyotga erişiş qiyin. Çunki inson öz millatining tarixi bilan faxrlanişi mumkin, ammo jamoat mulkiga befarq qarasa, qonunlarni hurmat qilmasa, atrof-muhitni ifloslantirsa yoki boşqalarning huquqlarini poymol etsa, uning vatanparvarlik da'vosi amaliy mazmun kasb etmaydi. Fuqarolik mas'uliyati insonning davlat va jamiyat oldidagi burçlarini anglaşi, öz huquqlarini bilişi, boşqalarning erkinliklarini hurmat qilişi va umumiy manfaatlar yölida qonuniy faoliyat körsatişidir. Konstitutsiyaning 60-moddasida qonunlarga rioya qiliş va boşqa insonlarning huquqlari, erkinliklari hamda qadr-qimmatini hurmat qiliş, 61-moddasida esa tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosni asraş majburiyati belgilab qöyilgan. Demak, milliy merosni muhofaza qiliş faqat ma'naviy ehtiyoj emas, konstitutsiyaviy burç hamdir. Biroq fuqarolik mas'uliyatini faqat fuqaroning davlat oldidagi majburiyatlari bilan çeklaş töğri bölmaydi. Huquqiy davlatda davlat ham fuqaroning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiliş, unga munosib şart-şaroitlar yaratiş va jamoatçilik oldida hisobdor böliş mas'uliyatiga ega. Şu bois haqiqiy fuqarolik madaniyati özaro mas'uliyat va işonç asosida şakllanadi. Masalan, mahalladagi muammoni tegişli taşkilotga qonuniy tartibda yetkaziş, jamoatçilik muhokamasida qatnaşiş, nogironligi bölgan insonlarga qulay muhit yaratiş yoki tabiatni muhofaza qiliş taşabbusida iştirok etiş ham zamonaviy vatanparvarlikning amaliy körinişlaridir. Demak, milliy özlikning yuksakligi şunday kundalik amallarda namoyon böladi.

BIZGA UMUMFUQAROLIK BIRDAMLIGI ZARUR

Köp millatli Özbekiston jamiyatida milliy özlik bilan umumfuqarolik birdamligini uyğunlaştiriş alohida ahamiyatga ega. Özbek xalqi öz tili, madaniyati, urf-odatlari va tarixi bilan faxrlanişga haqli bölganidek, mamlakatimizda yaşayotgan boşqa millat va elat vakillari ham öz madaniy merosi va an'analarini saqlaş huquqiga egadirlar. Konstitutsiyamizning 8-moddasida belgilangan tamoyil milliy özlik bilan fuqarolik birdamligi örtasidagi muvozanatning huquqiy asosidir. Milliy özlikni anglaş jarayonida öz millatining afzalliklarini boşqalarning kamsitilişi orqali isbotlaşga uriniş, tarixiy ğururni millatçilikka aylantiriş yoki madaniy tafovutlarni ijtimoiy ajraliş sababiga aylantiriş xavflidir. Aksinça, milliy özlikning yetukligi öz madaniyatini çuqur biliş va boşqalar madaniyatiga hurmat bilan qaraş orqali namoyon böladi. Özbekiston tarixi turli xalqlar, tillar, diniy an'analar va madaniy tajribalarning özaro ta'siri bilan boyib kelgan. Bugungi yoşlar ana şu tarixiy haqiqatni anglasa, ularda öz xalqining merosi bilan faxrlaniş bilan bir qatorda, jamiyatdagi xilma-xillikni qadrlaş madaniyati ham şakllanadi.

MA'NAVIY TARBIYADA RASMIYATÇILIKKA YÖL QÖYIB BÖLMAYDI

Milliy özlikni çuqurlaştiriş yölidagi eng oğriqli muammolardan biri ma'naviy tarbiyaning ayrim hollarda rasmiyatçilik va taşqi körinişga *(formal tadbir)* aylanib qolişidir. Ba'zan milliy qadriyatlar haqida köplab ma'ruzalar öqiladi, tadbirlar taşkil etiladi, ijtimoiy tarmoqlarda ularning suratlari tarqatiladi, ammo bu işlar yoşlarning hayotiy qaraşlari va xulq-atvoriga qay darajada ta'sir körsatgani yetarliça örganilmaydi. Natijada ma'naviy tarbiyaning mazmuni bilan uning hisobot körsatkiçlari örtasida tafovut paydo bölişi mumkin. Ikkinçi muammo esa milliy tarixni ba'zan faqat ğalabalar, buyuk şaxslar va faxrli sanalar majmuasi sifatida körsatişdir. Bu yondaşuv tarixning murakkab jarayonlarini, mağlubiyatlar sabablarini, ijtimoiy ziddiyatlarni va oğir saboqlarni anglaş imkoniyatini çeklaydi. Uçinçi muammo esa milliy qadriyatlarning ayrim hollarda ularga mos kelmaydigan ijtimoiy odatlar bilan aralaştirib yuborilişidir. Masalan, töy va marosimlardagi ortiqça dabdaba, isrofgarçilik, obrö uçun raqobatlaşiş, yoşlarning mustaqil fikriga nisbatan toqatsizlik kabi holatlarni milliy an'ana nomi bilan oqlaş mumkin emas. Törtinçi muammo sifatida ta'lim va tarbiyada yoşlarning savol beriş, bahslaşiş va mustaqil xulosa çiqariş imkoniyati yetarliça qöllab-quvvatlanmagan holatlarini keltiriş mumkin. Haqiqiy milliy ong tayyor xulosalarni sözsiz qabul qiliş orqali emas, tarixiy dalillarni örganiş, taqqoslaş va anglaş orqali rivojlanadi. Şuning uçun bunday işlar işlarda sondan sifatga, şiordan amaliy natijaga, bir tomonlama tarğibotdan oçiq muloqotga ötiş zarur.

MA'NAVIY TARBIYA NATIJAGA YÖNALTIRILSA

Milliy özlik bilan boğliq muammolarini hal etişda eng avvalo, ma'naviy tarbiyani amaliy, ilmiy va natijaga yönaltirilgan tizimga aylantiriş zarur. Buning uçun har bir ta'lim muassasasida uzluksiz ma'rifiy-amaliy dasturlarni taşkil etiş, ularni öquvçilarning yoşi, qiziqişlari va ijtimoiy muhitiga moslaştiriş, mahallalarda "Tirik tarix" bölgan nuroniylar, mehnat faxriylari, olimlar, harbiy xizmatçilar, hunarmandlar va ijtimoiy faol insonlarning hayotiy tajribasidan foydalaniş, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil fikrlaş asosida talabalarni mahalliy tarix, ijtimoiy işonç, yoşlar qadriyatlari va fuqarolik faolligi böyiça kiçik tadqiqotlarga jalb qiliş samarali natija berişi mumkin.

RAQAMLI TARĞIBOT ZARURATI

Bugun zamon özgardi. Raqamli muhitda özbek xalqining ilmiy, adabiy va tarixiy merosiga bağişlangan işonçli elektron manbalar, qisqa ma'rifiy filmlar, interaktiv xaritalar va yoşlar uçun qiziqarli multimediali mahsulotlar tayyorlaş ham muhim. Bunda har bir loyihaning samaradorligini faqat tadbirlar soni bilan emas, yoşlarning bilim darajasi, mustaqil fikrlaşi, jamoat işlarida iştiroki va amaliy könikmalaridagi özgarişlar orqali baholaş kerak. Milliy özlikni çuqurlaştirişga qaratilgan davlat, ta'lim, oila, mahalla va fuqarolik jamiyati taşabbuslari özaro muvofiqlaşsa, ma'naviy tarbiya hayotdan uzilgan jarayon bölib qolmaydi. Eng muhimi, yoşlarga milliy özlikni faqat asraş kerak bölgan meros emas, balki öz aqli, mehnati, ijodi va fuqarolik faoliyati bilan boyitişi lozim bölgan umummilliy mas'uliyat sifatida tuşuntiriş zarur. Zero, özligini anglagan inson öz qadrini biladi, öz qadrini bilgan inson boşqalarni hurmat qiladi, xalqining tarixi va kelajagiga daxldorligini his etadi. Ana şunday insonlar kamol topgan jamiyatda milliy ğurur manmanlikka, vatanparvarlik quruq şiorga, ma'naviyat rasmiyatçilikka aylanmaydi. Aksinça, ular ilm-ma'rifat, adolat, fidoyilik va bunyodkorlikning ta'sirçan kuçiga aylanadi.

Özligini anglagan millat ötmişi bilan faxrlanadi, buguni uçun mas'uliyatni öz zimmasiga oladi va kelajagini öz aqli, mehnati hamda birdamligi bilan yaratadi.

Malohat ZOIROVA,
Özbekiston Milliy universiteti katta öqituvçisi,
siyosiy fanlar böyiça falsafa doktori





Yaydoq dalalarda, qir-adirlarda şamoldek uçayotgan tulporlarning tuyoği zaminga urilişidan hosil böladigan dupur-dupurni eşitganmisiz? Agar şunday vaziyatga duç kelib qolsangiz, borliqqa bir quloq tuting-da... Kengliklar bağrini yorib kelayotgan bu dupurlarda uluğ tarixning aksi, bugunning matonati va ertangi zafarlarning işonçli qadamlarini tinglaganday bölasiz. Alpomiş, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temurdek alp çavandozlarning hayqiriği-yu, ularga qanot bölgan tulporlarning kişnaşi quloqlaringiz ostida jaranglaydi. Asl tulporlar çopganida zaminning titraşini, unga monand inson ruhining yuksalişini kuzatasiz.

TUYOQLAR ZARRIDAN TITRASIN ZAMIN



Nuroniylarimiz ta’kidlaganidek, otlar dupuri tugagan joyda şiddat sönadi, ular yugurgan yöllarda esa hamişa hayot va ğalaba nafasi ufurib turadi. Şuning uçun ham qadimda ota-bobolarimiz donği ketgan mahalliy otlar bilan harbiy jang san’ati borasida olamşumul ğalabalarga erişgan. Asrlar davomida ajdodlarimiz bizga qorabayir, duldul, laqay, axaltaka, qöstanay, farğona kabi uçqur otlarning zotdor turlarini meros qoldirgan. Bugungi kunda ana şunday otlar dupurining şiddatiga, ular yugurgan yöllardagi hayot va ğalaba naşidasiga nafaqat an’anaviy ulog-köpkari va sport



“Eng ilğor otliq guruhi” musobaqalarida guvoh bölib kelmoqdamiz.

Gazetamizning ötgan sonlarida öz yönalişlari böyiça 2026-yilning eng ilğor guruhi deb topilgan jamoalar yoritib borilganidan köpçilikning xabari bor. “Men ğolib!” şiori ostida taşkillaştirilgan musobaqalar davom ettirilib, otliq guruhlar ham jismoniy tayyorgarlik, otga miniş va yuriş, 1,5 sutka toğda yuriş, kartografiya hamda topografiya qoidalariga köra hududni aniqlaş, GPS asboblarida işlaş, otiş maşqlari, otni yugurtirgan holda granata uloqtiriş, suvli tösiqdan ötiş, yuk taşiş, ikki ming metr balandlikka 10 kg yuk bilan belgilangan vaqtda kötariliş şartlari böyiça öz imkoniyatlarini sinovdan ötkazdi. Ana şu bosqiçlar davomida har tomonlama özini körsatgan harbiy çavandozlar jamoalari hisobiga qimmatli oçkolarni töplaşga harakat qildi. III darajali serjant Rustam Eşnorov yetakçiligidagi Janubi-ğarbiy maxsus harbiy okrug çavandozlari “Çimyon” toğ tayyorgarligi öquv-maşqlar



şartlarni bajariş me’yorlari böyiça özaro bellaşdi. Toğli hududda 60 kilometrlik masofani bosib ötişning öziga yaraşa qiyinçiliklari bor. Şunday qiyinçiliklardan biri kutilmaganda otning jarohatlanişidir. Nizomga köra, maşq davomida otning jarohatlanişi jamoaning musobaqadan çetlatilişiga sabab böladi. Aynan mana şu tartib-qoidaga köra, Toşkent harbiy okrugi bahslarni



muddatidan oldin yakunladi, ya’ni ot jarohatlangani tufayli musobaqadan çetlatildi.

– Yaylovda ötlab yurgan yilqi uyuridagi asov otlarni jilovlaş va öta tezkor otlar bilan poygada qatnaşiş hammaning ham qölidan kelavermaydi, – deya ta’kidlaydi kiçik serjant Akbar Qurbonov. – Jamoamizdagi barça uçun “Çimyon” toğlari va “Çirçiq” poligoni beş qöldek taniş, desam, yanglişmayman. Afsuski, 60 kilometrlik masofani bosib ötiş jarayonida bitta tulporning jarohati tufayli ğoliblikka da’vogarlar safidan çiqib ketdik. Otlar bilan işlaşda, maşqlarni bajarişda fasllar özgarişini ham e’tiborga oliş muhim ahamiyat kasb etadi. Musobaqa şartlarini bajarişning öziga yaraşa qiyinçiliklari bor. Ammo çavandoz uçun eng muhimi – ot bilan ruhiy til topişiş. Çavandoz va tulpor özaro til topişmas ekan, muvaffaqiyatga erişib bölmaydi.

Bellaşuvlar davomida hakamlar va veterinarlar ot va çavandozni faqat alohida baholab qolmay, ularning özaro bir-birini tuşunişiga *(kontakt)* juda katta e’tibor qaratganini ham alohida e’tirof etiş örinli. Çunki eng yaxşi ot ham tajribasiz çavandoz



qölida tez çarçaydi yoki jarohat oladi. Aksinça, mahoratli çavandoz otning xatti-harakatidan uning çarçaganini yoki oğriq sezayotganini darrov payqab, unga dam beradi va şu orqali jarimalardan saqlanib qoladi.

Şuningdek, çavandozlar tomonidan masofaning holatiga qarab otni yörğalatiş, sakratiş yoki çopiş tezligini me’yorda uşlaş mahoratlarini işga soliş kabi toğli hududda amalga oşiriladigan vazifalar bajarildi. Tösiqlar yölagidan ötiş, şartli yaradorni ot yordamida evakuatsiya qiliş kabi taktik harakatlar, otiş maşqlari, granata uloqtiriş hamda tungi şaroitda xavfsiz va qulay qönalğaga joylaşiş singari jarayonlarda otliq guruhlarning mahorati imtihondan ötkazildi.

Asror RÖZIBOYEV,
“Vatanparvar”

Muallif suratga olgan





PARVOZ SOATI BIR XIL, TEXNIK HOLAT NEGA TURLIÇA?

Bir xil rusumdagi ikkita harbiy samolyotni tasavvur qilaylik. Ularning foydalanişga topşirilgan vaqti ham, umumiy parvoz soatlari ham deyarli bir xil. Biroq biri nisbatan mötadil şaroitda, ikkinçisi esa yozning jazirama kunlarida, çang va yuqori harorat ta'sirida köproq ekspluatatsiya qilingan. Xöş, ularning texnik holatini bir xil deb baholaş mumkinmi?

Aviatsiya muhandisi uçun bu oddiy savol emas. Çunki samolyotning qança vaqt parvoz qilgani muhim bölsa-da, ana şu vaqt davomida qanday şaroitda işlagani ham uning texnik holatiga ta'sir körsatadi. Dvigatel, gidravlik tizimlar, elektr jihozlari va boşqa agregatlarning işlaş xususiyatlari foydalaniş şaroitiga qarab farqlanişi mumkin.

Ayniqsa, mamlakatimizning janubiy hududlaridagi tabiiy iqlim şaroiti bu masalaning amaliy ahamiyatini yanada oşiradi. Qaşqadaryo viloyatida yoz oylarida kuzatiladigan yuqori harorat, quruq havo va çangli muhit aviatsiya texnikasini ekspluatatsiya qilişda e'tiborga olinişi zarur bölgan omillardandir.

Masalan, havodagi çang zarraçalarining dvigatelga kirişi kompressor qismlarining yeyilişiga sabab bölişi mumkin. Yuqori harorat esa ayrim agregatlarning issiqlik rejimiga va sovitiş şaroitlariga ta'sir körsatadi. Bunday omillar har bir samolyotda bir xil darajada namoyon bölmaydi. Ularning ta'siri texnikaning tuzilişi, foydalaniş tartibi, himoya vositalari va haqiqiy ekspluatatsiya şaroitiga boğliq.



Demak, muhandis uçun faqat texnik xizmat körsatiş muddati kelganini biliş yetarli emas. U belgilangan reglamentlarni bajariş bilan birga, nazorat natijalari nimani anglatayotganini ham tuşunişi kerak.

QARŞIDAGI TA'LIM VA AMALIYOT UYĞUNLIGI

Özbekistonda harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlaş tizimi keyingi yillarda sezilarli rivojlandi. Jumladan, 2019-yilda oliy harbiy aviatsiya bilim yurtining Qarşi şahriga köçirilişi bölajak uçuvçi va muhandislarning ta'limini amaliy aviatsiya faoliyati bilan yaqinlaştiriş imkonini berdi.

Bugungi kunda Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Harbiy aviatsiya institutida uçiş apparatlari va dvigatellari, aviatsiya jihozlari, radioelektron uskunalar hamda boşqa yönalişlar böyiça mutaxassislar tayyorlanmoqda.

2026-yil 8-iyun kuni davlatimiz rahbariga harbiy aviatsiya tizimini takomillaştiriş masalalari yuzasidan taqdim etilgan ma'lumotlarda ham Qarşidagi institut faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, zamonaviy trenajyorlar, modellaştiriş va simulyatsiya vositalaridan foydalanilayotgani, kursantlar "Xonobod" aerodromida tajribali mutaxassislar kömagida amaliy könikmalarini mustahkamlayotgani qayd etildi.

Bu yerda muhim bir jihat bor. Auditoriyada dvigatelning tuzilişini örganiş boşqa, uning haqiqiy ekspluatatsiya şaroitidagi işlaş xususiyatlarini tuşuniş esa boşqa masala. Darslikda agregatning vazifasi, tuzilişi va işlaş tamoyili bayon etiladi. Amaliyotda esa muhandis bir neçta texnik körsatkiçni özaro soliştirişi, ularning özgariş sababini aniqlaşi va belgilangan talablarga muvofiq xulosa çiqarişi kerak böladi.

Şu örinda savol tuğiladi: biz kursantni texnikaning tuzilişini tuşuntirib berişga tayyorlayapmizmi yoki uning haqiqiy holatini tahlil qila oladigan muhandis sifatida şakllantiryapmizmi?

Aslida bu ikki vazifa bir-birini töldirişi zarur.

NAZORATDAN TAHLILGA

Bugungi aviatsiya texnikasi böyiça muhim masalalardan biri töplangan texnik ma'lumotlardan qançalik samarali foydalanişdir.

Samolyotning ekspluatatsiya tarixi, bajarilgan texnik xizmatlar, aniqlangan kamçiliklar va nazorat natijalari mutaxassis uçun muhim axborot manbai hisoblanadi. Biroq alohida qayd etilgan ma'lumotning özi hali tayyor xulosa emas.

Masalan, biror agregatning nazorat körsatkiçi uzoq vaqt davomida belgilangan me'yor içida qolişi mumkin. Şunga qaramay, uning oldingi natijalarga nisbatan izçil özgarayotganini tahlil qiliş texnik holatdagi ayrim tendensiyalarni vaqtida payqaşga yordam beradi.

Bu yerda ikki xil yondaşuv örtasidagi farq yaqqol körinadi. Birinçisida mutaxassis faqat navbatdagi tekşiruv natijasini baholaydi. Ikkinçisida esa joriy natijani avvalgi ma'lumotlar, foydalaniş şaroiti va boşqa körsatkiçlar bilan boğliq holda körib çiqadi.

Albatta, bunday tahlil belgilangan texnik xizmat körsatiş reglamentlarini özgartiriş yoki tekşiruvlarni özboşimçalik bilan qisqartiriş degani emas. Aksinça, mavjud nazorat tizimini yanada mazmunli ma'lumotlar bilan ta'minlaşga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda dunyo aviatsiyasida texnik holatni monitoring qiliş, nosozlik alomatlarini erta aniqlaş va agregatlarning qolgan foydali xizmat muddatini prognozlaş usullari rivojlanmoqda. Uşbu yondaşuvlarning asosiy ğoyasi texnik qarorni faqat umumiy foydalaniş muddatiga emas, balki tasdiqlangan diagnostika ma'lumotlariga ham tayangan holda qabul qilişdan iborat.

Mamlakatimiz harbiy aviatsiyasi uçun ham bu yönaliş ilmiy-amaliy jihatdan muhim. Ayniqsa, yuqori harorat va çangli muhitning aviatsiya agregatlariga ta'sirini örganiş, özgaruvçan texnik körsatkiçlarni tahlil qiliş hamda foydalaniş şaroitlarini hisobga oladigan diagnostika usullarini rivojlantiriş kelgusidagi izlanişlar uçun dolzarb mavzulardandir.

MUHANDISNI AUDITORIYANING ÖZIDA SINAŞ MUMKINMI?

Bu savolga javob berişda institutning mavjud öquv imkoniyatlariga e'tibor qaratiş lozim.

Harbiy aviatsiya institutida dvigatellar, aviatsiya jihozlari, radioelektronika va axborot texnologiyalariga oid fanlar bilan birga, texnik modellaştirişga qaratilgan tögaraklar ham faoliyat yuritmoqda. Jumladan, "Dvigatel modelist", "Yoş elektromexanik" va "Radiohavaskor" kabi tögaraklar kursantlarning texnik ijodkorligi va mustaqil izlanişlari uçun qöşimça imkoniyat yaratadi.

Bunday imkoniyatlardan foydalanib, öquv maşğulotlarini haqiqiy muhandislik masalalariga yaqinlaştiriş mumkin.

Masalan, kursantlarga dvigatelning turli taşqi harorat şaroitidagi şartli işlaş ma'lumotlari taqdim etiladi. Bir guruh nazorat körsatkiçlarini soliştiradi, ikkinçisi özgarişning ehtimoliy sabablarini tahlil qiladi, uçinçisi esa natijalarni texnik hujjatlar talablari bilan boğlaydi.

Söng barça guruhlar birgalikda xulosalarni muhokama qiladi.

Bu maşğulotning afzalligi şundaki, unda faqat töğri javobni biliş emas, balki xatoni payqaş, dalillarni tekşiriş va öz fikrini asoslaş ham baholanadi.



Ayniqsa, bölajak ofitser uçun bu muhim. Çunki uning kelgusidagi faoliyatida texnik bilim bilan birga, mas'uliyatli qaror qabul qiliş, böysunuvçilar işini nazorat qiliş va aniqlangan kamçilikka töğri munosabat bildiriş könikmalari ham zarur böladi.

BUGUNGI TAYYORGARLIK – ERTANGI PARVOZ IŞONÇLILIGI

Harbiy aviatsiyamiz rivojlanmoqda. Yangi texnologiyalar, zamonaviy boşqaruv va nazorat vositalari mutaxassislar oldiga yangiça talablarni qöymoqda. Şu bilan birga, aviatsiya texnikasini ekspluatatsiya qilişda tabiiy-iqlim şaroiti, texnik holatni muntazam kuzatiş va foydalaniş jarayonida töplangan ma'lumotlarni tahlil qilişning ahamiyati ham ortib bormoqda.

Bunday şaroitda harbiy aviatsiya muhandisini tayyorlaşdagi asosiy vazifalardan biri aniq körinadi: kursant texnikani faqat tuzilişi böyiça emas, balki uning işlaş jarayonidagi özgarişlarni tuşunadigan darajada örganişi kerak.

Qarşidagi Harbiy aviatsiya instituti va "Xonobod" aerodromidagi amaliy tayyorgarlikning ahamiyati ham şunda. Bu imkoniyatlar nazariy bilimni texnik tahlil va amaliy könikmalar bilan boğlaş uçun mustahkam asos yaratadi.

Maqolaning boşidagi ikki samolyot haqidagi savolga qaytsak, javob aniq: bir xil parvoz soati har doim ham bir xil texnik holatni anglatmaydi. Buni tuşuniş uçun muhandisdan raqamlarni biliş emas, ular ortidagi jarayonni anglaş talab etiladi.

Zero harbiy aviatsiyada muhandisning haqiqiy mahorati faqat nosozlikni bartaraf etiş emas, balki uning dastlabki belgilarini töğri baholaş, asosli texnik xulosa çiqariş va parvoz xavfsizligiga mas'uliyat bilan yondaşişda namoyon böladi.

Podpolkovnik
Aleksandr ŞAKIRJANOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining
Harbiy aviatsiya instituti öqituvçisi

JABBORBEK QÖRBOŞINING QISMATI

Özbek xalqi tarixida Vatan ozodligi, yurt mustaqilligi va milliy qadriyatlarni himoya qiliş yölida kuraşgan jasur insonlar köp bölgan. Ular orasida bosqinçilik va mustamlakaçilik siyosatiga qarşi kuraşgan qörboşilarning ham öz örni bor.

Jabborbek qörboşi ham ana şu tarixiy davr va milliy ozodlik harakati bilan boğliq şaxslardan biri sifatida tilga olinadi. Uning nomi haqida söz yuritganda, avvalo, xalqimizning ozodlikka bölgan intilişi, erk va istiqlol yölidagi matonati haqida öylaymiz. Jabborbekning hayoti va faoliyati Qaşqadaryo vohasining Yakkaboğ, Şahrisabz va Qamaşi atrofida keçgan murakkab tarixiy voqealar bilan çambarças boğliq. Jabborbek asli hozirgi Yakkaboğ tumanining Çimqörğon qişloğida yaşovçi Oçil çappa degan kişining ikkinçi öğli bölgan. Köpni körgan va eşitgan keksalarning aytişiça, Oçil çappa mohir çavandoz bölgan ekan. Köp ötmay, Oçil çappaning xotini Tiniq vafot etgaç, uning bolalariga opasi Hakima qaray boşlagan.

"Bölar bola boşidan" deganlaridek, Jabborbek yoşligidan mard va zehnli yigit bölib voyaga yetdi va şu xislatlari tufayli Yakkaboğ begining xizmatiga qabul qilinadi. Kunlarning birida Buxoro amiri Said Olimxon Yakkaboğga keladi. Amirning kelişidan asosiy maqsad jasur va çapani yigitlardan sarbozlar töplaş bölgan. Amirning nazari Jabborbekka tuşib, uni özi bilan olib ketadi. Oradan yillar ötib, harbiy soha ilmini puxta egallagan Jabborbekni, hatto öşa yillarda Buxoroda yaşirin holatda iş boşlagan "Yoş buxoroliklar" va jadidlar ham öz saflariga qöşişga intilgan, degan talqinlar ham bor.

1920-yilning sentabr oyida Buxoro şörolar qöşini tomonidan istilo qilinadi va ular asta-sekin amirlikning boşqa hududlarini ham bosib oliş uçun harakat qiladi. Bu esa Yakkaboğ aholisining sarosimaga tuşişiga sabab bölgan.

Jabborbek tahlikali paytda uyidan xabar oliş uçun qişloğiga keladi. Otasi Oçil çappa oilasini asrab qolmoq uçun Mavlon, Hotam, Yöldoş ismli qarindoşlari bilan Surxondaryoning Telpakçinor degan qişloğiga köçib boradi. Biroq qişloqdagi ba'zi kimsalarga ularning köçib kelişi yoqmaydi va ularni "kelgindilar" deb kamsitadi. Bundan ğazablangan Jabborbek qişloqdoşlarini ergaştirib yana özlarining qişloğiga qaytib keladi. Öşa paytda u öz-öziga yurtini va elini ğanimlardan himoya qilişga ont içadi.

Köp ötmay, Jabborbek ona yurti bölmiş Langar otani ziyorat qilişga boradi. Çunki uning onasi Tiniq momo asli Langarning Oqdahana qişloğidan bölgan Ernazartilloning qizi bölgan. Jabborbek özini ruhan va jismonan poklaş uçun Oqmozor degan joyda qirq kun çillaga kiradi. Çillaning oxirgi tunida uning tuşiga şayx Muhammad Sodiq kirib, unga sovut va qurol beradi.

Jabborbek amir qöşinida sarbozlik qilgani bois yaxşi harbiy tajribaga ega edi. Şöro hokimiyati örnatilgan dastlabki yillarda uni militsiya xizmatiga jalb qilişga urinadi. Jabborbek ularning taklifini rad etadi. Şuning uçun bekni hibsga olib, Şahrisabzdagi qamoqxonaga qamaşadi. Lekin bek köp ötmay, döstlarining kömagi bilan qamoqxonadan qoçişga erişadi va oilasining tinçligini hisobga olib, qişloğiga yaqin bölgan töqayzorda yaşay boşlaydi. Amir laşkarboşisining tirikligi albatta, şörolar uçun xavfli edi. Kunlarning birida qurollangan önta otliq uni izlab qişloqqa keladi va töqayzor atrofidagi jarlik yonida yantoq çopayotgan kişidan Jabborbekning qayerdaligini söraşadi. Bu Jabborbek edi. Jabborbek otliqlarning boşliğiga: "Sizlar bu turişda uni tutolmaysizlar, oralaringdan uç kişi men bilan yuringlar" deb aldab, otliqlar boşliği, yana ikki kişini töqayzorning orasiga ergaştirib ketadi va ularni öldirgaç, qaytib kelib, qolganlarini ham narigi dunyoga jönatadi. Otlar va qurollarni aka va ukalari Eşmömin hamda Sattor, jöralari Abdi, Mixli, Bozor va öziga yaqin bölgan boşqa işonçli yigitlarga beradi. Şörolarning unga qilgan zulmi uning hayotida keskin buriliş yasaydi. Jabborbek va uning yigitlari şöro hokimiyatiga qarşi kuraş olib borişga qaror qilgan vatanparvarlar safiga qöşiladi.

1920-yil 15-dekabrda Yakkaboğda sovet hokimiyatiga qarşi qurolli qözğolon boşlanadi. Qözğolonda minglab mahalliy aholi iştirok etadi. Tarixda bu voqea "Qora kaltak"voqeasi nomi bilan tilga olingan. Garçi qözğolon bostirilganidan keyin ham xalqning ozodlikka intilişi sönmaydi. Aksinça, milliy istiqlol uçun kuraşning yangi bosqiçi boşlanadi.

Jabborbek atrofida turli qişloqlardan çiqqan jasur yigitlar birlaşadi. Uning safdoşlari orasida çimqörğonlik Bozorbek va Karimbek, kaltaqöllik Mavlonbek, yakkaboğlik Ğuzor amin, Rahmonbek, Şaman Qora, Bozor komandir, Öroq Tilov, Ma'rifiddin va Xolmamat yuzboşi kabi kişilar bölgan. Bu ma'lumotlar Jabborbek harakatining faqat bir qişloq yoki bir hudud doirasida çeklanib qolmaganini, balki Qaşqadaryo vohasidagi kengroq ozodlik harakati bilan boğliq bölganini körsatadi. Jabborbekning kuraşidagi muhim jihatlardan biri uning mahalliy aholi orasida tarafdorlar topa olganidir. Uning atrofida birlaşgan kişilar öz yurtining erkinligi, qadr-qimmati va mustaqilligini saqlaşni istagan.

Şuni ta'kidlaş kerakki, Jabborbek boşliq yigitlar Guldara, Işkent, Öğin, Tödamaydon kabi joylarda qizillar ustidan ğalaba qozonadi. Hatto janglarning birida qizillar komandiri polkovnik Karpov Şayman qora degan mergan yigit tomonidan otib öldirilgan. Alamiga çidolmagan polkovnik Karpovning xotini Jabborbekka xat jönatib uni duelga çaqiradi va özi ham yakkama-yakka otişuvda jon taslim qiladi. Jabborbek boşliq qurolli jangçilarning bu ğalabalari tufayli uning tarafdorlari ham köpayib boradi va Töramanqa, Dodxohbek kabi qörboşilar ham yigitlari bilan kelib qöşiladi.

Albatta, öşa davrdagi siyosiy va ijtimoiy vaziyat juda murakkab edi. Qörboşilar harakati yagona dastur va yagona markazga töliq birlaşa olmagan. Şunga qaramay, Jabborbek boşçiligidagi harakat Qaşqadaryodagi milliy istiqlolçilik kuraşining muhim qismlaridan biri bölib qoldi. Tarixiy ma'lumotlarga köra, Jabborbekning hayoti 1927-yilda fojiali yakun topgan. U xoinlar tomonidan öldirilgan. Uning vafotidan keyin safdoşlarining bir qismi Mavlonbek atrofida birlaşib, kuraşni davom ettirgan. Bu holat Jabborbekning harakatdagi nufuzi va safdoşlari orasidagi mavqeyini körsatadi.

Ha, tarix faqat ğoliblar yoki hukmron tuzumlar haqidagi ma'lumotlardan iborat emas. Unda öz davrining oğir sinovlarini boşdan keçirgan, e'tiqodi va qaraşlari uçun kuraşgan insonlar taqdiri ham aks etişi lozim.

Jabborbek qörboşining hayot yöli ana şunday tarixiy taqdirlardan biridir. Uning faoliyatini örganiş orqali biz XX asr boşlarida Qaşqadaryo vohasida keçgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mahalliy aholining kayfiyati va milliy ozodlik harakatining tarixiy ildizlari haqida tasavvurga ega bölamiz. Bugungi avlod uçun bunday tarixiy şaxslarning hayotini örganiş, ular haqidagi xotiralarni töplaş va xolisona yoritiş muhim vazifadir. Zero öz tarixini bilgan xalqgina özligini anglaydi. Jabborbek qörboşi haqidagi xotiralar ham Qaşqadaryo vohasining murakkab ötmişini, xalqimizning erk va ozodlikka bölgan intilişini anglaşda muhim ahamiyat kasb etadi.


Anorxol RAMAZONOVA,
mehnat faxriysi



TADQIQOT

Eskidan yurtlarning erkinligi belgisi bölgan "bayroq" sözi "botmoq" özagidan olingan. Bunda "t" tovuşi "y"ga özgarib, "bayroq" sözi yuzaga kelgan va yerga botirib, sançib qöyiladigan narsa ma'nosini bildirgan. Eski turkiy tilidagi "sanjoq" sözi ham şu anglamda qöllanilgan.

"TUĞ ÖRNATILIB, URUŞ NOĞORALARI ÇALINSA"



Qoraxoniylar bayroqlari töğrisida bizda töliq ma'lumotlar yöq. Bor ma'lumotlarga köra, Qoraxoniylarda bayroqlar qizil, ya'ni ol rangda bölgan. Buni Mahmud Koşğariyning "Devoni luğati-t-turk"dagi quyidagi şe'ri orqali bilişimiz mumkin:

Ağdi qizil bajraq,
Tuğdi qara topraq.
Jetşö kelib oğraq,
Toqşip anin keçtimiz.

Ya'ni: *musulmon askarlarining qizil bayroqlari kötarildi. Qora tuproq yuqori kötarildi. Bizlarga öğroq otliqlari ham kelib qöşildi. Hammamiz qöşilib jang qildik.* Şuning uçun qaytişda keçikdik.

Qoraxoniylar özlarining qizil rangdagi bayroqlari bilan uruşda qatnaşgan ekan. Şuningdek, ularda bayroqlarning uçiga ipak gajimlar taqib qöyiş tutumlari ham bölgan. Xonlar, sarkardalar, qabila boşliqlarining turk xalqi örtasidagi obrö-e'tibori va hurmati ularning bayroqlarining körinişi va ölçamiga qarab belgilangan.

Şuningdek, boşqa turkiy sulolalar singari Qoraxoniylarda tuğ ham hukmdorlik va erkinlik belgisi bölgan. Islom dini qabul qilinişidan oldingi çoğlarda u bayroq bilan birga işlatilgan va xuddi şu vazifani bajargan. U qöşinlar oldida bayroq bilan birga olib borilgan va yöl körsatgan. Turk xoqonligida xoqonning töqqiz tuği bölgani ma'lum. Dastlab töqqiz tuğ qöllanilgan bölsa, Ğarbiy turklarda yetti tuğ işlatila boşlangan.

Mahmud Koşğariy keltirgan **"Tuğ örnatilib, uruş noğoralari çalinsa"** singari iboralar Qoraxoniylar sulolasida tuğning ham davlatçilik va erkinlik belgisi ölaroq qöllangani töğrisida tuşunça beradi. "Töqqiz tuğli xoqon" yoki "töqqiz tuğli xon" atamasi esa töqqiz soni Qoraxoniylar uçun xayrli hisoblanganini, xon yer-mulki köpayib ketsa ham, heç qaçon töqqizdan ortiq tuğ işlatmaganini körsatadi. Tuğlar orqali fol ham oçilgan. Bu tuğlar töq sariq rangdagi şohi yoki ipak matodan qilingan. Bu ham yaxşi fol uçun bölgan.

Bu yerdagi tuğ ot, qötos va boşqa hayvonlarning dumidan qilinadigan tuğ emas. Dumdan qilinadigan tuğlar uruşda bayroq uçiga yoki egarga taqilgan va baçkam deb atalib, botirlik belgisi bölgan. Bular bilan davlatçilik belgisi bölgan tuğlarni adaştirmaslik kerak.

Qoraxoniylarda maxsus harbiy kuy, qöşiq ham davlatçilik belgilaridan biri bölgan. Buni hozirgi **madhiyaning** eski körinişi deyiş mumkin. Mahmud Koşğariyning yozişiça, bu ham tuğ atamasi bilan atalgan. Bu tuğ aslida hukmdor oldida çalinadigan noğora va dovulga öxşaş çolğu asbobi bölgan. Turkiy-islom davlatlarida bu, odatda, harbiy çolğuçilar guruhi tomonidan ijro etiladigan, hukmdor saroyi yoki çodiri oldida noğora bilan çalinadigan musiqani anglatgan. Turklar orasida esa xunlar va Turk xoqonligi çoğlaridan beri davlatçilik belgisi bölib ketgan.

Islom BÖRIYEV,
tadqiqotçi

QÖQON XONLIGIDA HARBIY LAVOZIM VA LAŞKAR



Buyuk Turkiston diyoridagi xonliklar boşqaruvi davrida Qöqon xonligi eng oxirgi (1709-yilda) tuzilgan va çor Rossiyasi tomonidan eng birinçi bölib bosib olingan xonlik (1876-yilda) bölsa-da, aslida xonlik hududi, siyosiy va harbiy salohiyati, qöşin tuzilişi boşqa xonliklardan ajralib turardi.

Qöqon xonligi asosçisi Şohruxbiy davridan boşlab xonlik çegaralarini kengaytirişda avvalo qöşinga tayanilgan. Qöşin soni 20 ming kişiga yetgan Abdurahimbiy davri *(1725-yil)* da Xöjand qal’asi qölga kiritiladi. Olimxon davrida *(1798–1810-yillar)* toğli tojiklar va boşqa millat vakillaridan iborat muntazam qöşin tuzilgan. Olimxon 1805-yilda öqotar qurollar bilan qurollangan 10 ming kişilik muntazam qöşinga ega bölgan. Bu qöşin keyinçalik xonlik qöşinining zarbdor kuçiga aylandi. “Mukammal tarixi Farğona” asaridagi *“...Olimxon har yerdan bahodir yigitlarni töplab, muborizlar bölsa topdirib kelib, ularga in’om-u ehsonlar qilib, öz xizmatiga oldi, gala bahodir nomi bilan laşkar jam ayladi. U qöşinini ikki toifaga bölgan edi. Biri tojikiya, ikkinçisi sartiya. Jamoati tojikiya va şuğnoniy va badaxşoniy va köhistoniylar qattiq jonbozlik körsatar edilar. Çunki xon bularga köp in’om-u ehson qilar edi...”*, deb yozilgan ma’lumot xonlikning muntazam armiyaga ega ekanidan dalolat beradi.

Madalixon hukmronligi davrida ham bir qator harbiy işlar amalga oşirilgan. Buxoro–Qöqon uruşi xonlik qöşiniga öz ta’sirini körsatgan bölsa-da, Şeralixon davrida harbiy qudratni qaytadan tiklaşga erişildi. Şeralixon yordamçi harbiy bölinmalar sonini köpaytirdi. Undan keyin xonlikni boşqargan Xudoyorxon davrida Istanbuldan miltiqlarni sotib oliş va töplar sonini köpaytiriş işlari amalga oşirildi. Natijada Xudoyorxon qöşindagi askarlar sonini köpaytirdi. Xudoyorxon qöşinga boşqa millat vakillarini ham jamlaşga harakat qilgan. Xudoyorxon hukmronligi yillarida töpçilar bölinmasi ilk marotaba rasman taşkil topgan. Bu qöşin asosan çegara punktlaridagi qal’alarda saqlangan.

Xonlik qöşini tarkibida piyoda askarlar bölinmasi mavjud bölsa-da, qöşinining asosiy qismini otliq askarlar taşkil etgan. Harbiy safarbarlik vaqtida harbiy xizmatga yaroqli barça erkaklar jalb qilingan. Xonlik boşqaruv hukumati tomonidan har bir hududdan qançadan askar safarbar qilinişi belgilab qöyilgan. Muntazam qöşin tarkibiga xizmatga oliş tartibi ham uşbu qoida asosida amalga oşirilsa-da, bu holat ayrim vaziyatlarda merosiy tarzda, otadan öğilga ötganini köriş mumkin. Ya’ni sarboz jang vaqtida halok bölsa, qurol-yaroği va örni uning öğliga, agar öğli bölmasa, yaqin qarindoşlariga berilgan. Qöqon xonligida eng yuqori harbiy mansab mingboşi lavozimi Olimxon davrida joriy qilingan bölib, xondan keyingi asosiy şaxs bölgan. Oliy boş qömondon vazifasini bajargan mingboşi harbiy yurişlarda “amiri laşkar” unvonini ham olgan. Viloyatlardagi harbiy kuçlarga esa quşbegi boş bölgan *(tarixiy manbalarda ularning soni 4 nafar bölgan deyiladi)*.

Qöqon xonligidagi harbiy mansablar 3 toifaga bölingan:

Oliy darajadagi mansablarga: mingboşi, amiri laşkar, quşbegi, botirboşi, vali *(noib)*, qal’abon, qörboşi, yovar, töpçiboşi, töqsoba, ponsodboşi;

Örta darajali harbiy mansablarga: yuzboşi, ellikboşi, dahboşi, qorovulbegi;

Quyi darajadagi harbiy mansablarga: askar, sarboz, navkar, mergan, mahram, botur, jazoyilçi, töpçi, qörçi va qorovullar kirgan.

Qöşin safida, noğoraçi, surnayçi, tuğçi *(bayroqdor)* kabilar ham xizmat qilgan. Ellikboşidan mingboşigaça bölgan harbiy lavozimdagi amaldorlar öz xizmatlariga mulozimlar olganlar. Ponsadboşidan yuqori mansabdagi harbiylarga yana mirzolar va munşiylar ham xizmat qilgan. Muhim harbiy mansablardan yana biri **“yovar”** bölib, u xon va uning oilasi xavfsizligini ta’minlovçi soqçilar va xon gvardiyasi boşliği hisoblangan. Çet ellik elçilar xavfsizligini ta’minlaş ham ularning vazifasiga kirgan. Şu sababli “yovar” mansabiga eng işonçli odamlar tayinlangan. Ularning aksariyati bolaligidan tarbiya qilingan. Xudoyorxon davrida mazkur gvardiya harbiylarining soni 400 nafarni taşkil etgani haqida ma’lumotlar bor.

Xonlikdagi harbiy lavozimlar va ularning vazifalari:

Amiri laşkar – amir ul-umarodan keyingi mansab. Qöqon xonligida mingboşi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amiri laşkarlikka teng bölgan.

Mingboşi – ma’mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi. Mingboşi harbiy yurişlar vaqtida qöşinni boşqarib, laşkarboşi unvonini olgan.

Botirboşi – botir bahodirlar boşliği. Beş yuz kişidan köp laşkarga boşçilik qilgan. Viloyatlarda botirboşi harbiy va qöşin işlariga mas’ul edi.

Quşbegi – harbiy qöşinning boşliği. Bu mansab yuriş va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboşi unvonini olişga da’vogarlik qilgan hamda alohida viloyatga ham hokim bölişi mumkin edi.

Voli (voliy) – tobe etilgan viloyat va tumanlarda xonning örinbosari. Viloyatlarda laşkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy ma’muriy işlariga boşçilik qilgan.

Qal’abon (kutvol) – Qöqon xonligining çegaralarida joylaşgan qal’a va istehkomlarining hokimi bölib, şu hududlarning harbiy-ma’muriy, xiroj va boj oliş işlariga javobgar bölgan. Qal’abon vazifasiga dodxohdan quşbegigaça bölgan şaxslar tayinlangan.

Qörboşi – qörxona, ya’ni aslahaxona boşliği, xon va mingboşiga itoat etgan. Qörboşi qörxona, miltiqxona, töpxonalarga boşçilik qilib, xomaşyo topib kelişdan tortib, to tayyor mahsulot işlab çiqariş va ularni xon qaroriga binoan tarqatib beriş jarayoniga javobgar bölgan.

Töpçiboşi – töpçilar, zambarakçilar guruhi boşliği.

Töqsabo – özlarining tuğiga ega bölgan harbiy guruhning boşliği.

Ponsadboşi – beş yuz nafar askardan iborat guruh rahbari.

Yuzboşi – yuz kişilik harbiy dasta boşliği.

Panjohboşi – ellikboşi, ellik nafarli harbiy guruh boşliği.

Dahboşi – ön kişilik harbiy guruh boşliği.

Qorovulbegi – soqçilar va qorovullar boşliği.

Qöşindagi muhim bölinmalardan yana biri merganlar bölinmasi bölib, ular tanlov asosida saralab olingan. Harbiylarni tayyorlaş uçun maxsus öquv yurtlari bölmagani sababli ayrim hollarda harbiy mansablar merosiy bölgan. Biroq öğli harbiy xizmatni albatta, quyi mansabdan boşlagan.

Xonlikdagi laşkarlar ta’minoti davlat tomonidan ta’minlangan. Tarixiy asarlarda yozilişiça xon xizmatiga kirayotgan har bir kişi ot, ot abzali bilan ta’minlangan. Safarga çiqiş oldidan yuzboşi 2 tilla, ellikboşi 1,5 tilla, askarlar 1 tilladan pul olganlar. Harbiy xizmatdagilarga yil davomida davlat pul yoki natura tarzida mahsulot berib turgan. Jumladan, yuzboşi 175 söm, ellikboşi 98 söm, önboşi 68 söm, oddiy askarlar 43 söm kumuş tanga olgan. 1851-yilda Qöqon yuzboşilari 80 pud buğdoy, 240 pud jöxori, kiyim-keçaklar, 2 ta qöy, çoy va 1 tilla-yu 4 tanga maoş olgani manbalarda keltirilgan.

Zavqibek MAHMUDOV,
Abdulla Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti dotsenti v.b.



NURLI XOTIRALAR QOLDI ORTIDA



2000-yilning avgust oyi. Mudofaa vazirligi maxsus operatsiyalarni amalga oşiruvçi batalyon harbiy xizmatçilari Surxondaryoning Sariosiyo va Uzun tumani toğlarida xalqaro terrorçilarga qarşi jangovar harakatlar olib bormoqda.

...Leytenant Sayyor Sadinov qöl ostidagilar bilan jangga kirdi, avtomatdan öq uzib, ikki jangarini yer tişlatdi. Qoya tomondagi va ğor oğzidagi duşmanning hamon uni öçgani yöq. Sayyor jangarilar tomonga qöl granatasini uloqtirib, jangçilarga yöl oçib berdi. Özi ham oldinga qarab intildi. Şu orada jangga yetakçilik qilib turgan batalyon komandirining örinbosari mayor Sadriddinov oğir yarador bölib, jang maydonini tark etdi. Uning ilkidagi mas'uliyat leytenant Sadinov zimmasiga yuklandi. U jon-jahdi bilan kuraş olib borar, qöl ostidagi şaxsiy tarkibni ğalaba sari ruhlantirardi.

Biroq jangning hal qiluvçi pallasida duşman snayperidan otilgan öq Sayyorning köksiga kelib tegdi. Yigit dastlab nima bölganini anglay olmadi. Vujudiga olov yugurgandek böldi-yu, yerga çökkalab qoldi. Oldinga qarab yuztuban yiqilayotgan yigitni ikki safdoşi tezlik ila jang maydonidan olib çiqib ketdi. Unga şoşilinç tibbiy yordam körsatildi. Sayyor oğir yarador bölişiga qaramay, yonida dalda bölib turgan kapitan Rustam Rahmonovga nimalarnidir gapirişni istardi:

– Örtoq kapitan, vazifamni ado eta olmadim. Men...

– Sayyor, hali hammasi yaxşi böladi, özingni qölga ol! Sen kuçli yigitsan!

– Rustam aka, yaşaşni istayman!

– Jarohating oğir emas, albatta yaşaysan, albatta safimizga qaytasan!

Leytenant Sadinovni gospitalga yetkaziş uçun vertolyotga çiqarişdi. Yigitning ahvoli tobora oğirlaşib borardi. Köz oldida beixtiyor onasi va sevgan qizi Şahnoza gavdalandi. Ana, u kelinlik libosida, boşida oq harir römol, Sayyorga egilib salom beryapti. Onasi Roziya opa mamnun qiyofada jilmayib turibdi. "Hali töyimiz bölgani yöq-ku!" xayolidan ötkazadi yigit. Şahnoza esa yuzida nim tabassum ila egilib-egilib salom beradi. Yigit yuragi hapriqqan köyi unga termilgança jim qoldi... Vatanning çaqmoq yangliğ yana bir sadoqatli öğloni, yana bir aziz parçasi Surxon toğlarida botayotgan quyoş bilan şafaqli ufqqa manguga boş qöydi..."

Yuqoridagi lavhalar 2000-yili Vatanimiz janubiy hududlarida bölib ötgan jangovar harakatlar yoritilgan "Yovqurlar" qissasidan parça. Taniqli rejissyor Hilol Nasimov tomonidan uşbu qissa asosida suratga olingan "Hayot" badiiy filmi boş qahramoni Hayot jasur öğlon – Sayyor Sadinov hayotini aks ettirgan.

Leytenant Sadinov haqida köplab maqolalar tayyorlangan, yaqinlari va onajonisi Roziya opa bilan uçraşuvlar, suhbatlar amalga oşirilgan va bu jarayon davom etib kelmoqda. Biz ham bir neça bor qahramon yigit ulğaygan xonadonda bölib dildan suhbat qurganmiz. Jasur öğlonni voyaga yetkazgan volidayi muhtaramasi bilan dardlaşganmiz, sirlaşganmiz. Uşbu maqolada şu haqda töxtalişni lozim topdik.

OILADAGI "BOŞQAÇA" BOLA

Oltin kuzning sönggi oyida Sadinovlar oilasida uçinçi farzand dunyoga keldi – öğil! Xalq orasida öğil tuğilsa, yetti qavat yer ostidagi toşlarga qadar quvonadi, degan gap yuradi. Bölajak qahramon tuğilganida esa Nurobodning Jom qişloği sehrli nurga çulğangan bölsa ajabmas. Zero millat qahramonlari mangulikka daxldordir.

"Jasorat" medali, II darajali "Şon-şaraf" ordeni sohibi leytenant Sayyor Sadinov mana şunday jasur öğlonlardan biri edi.

Ota-ona farzandlarini ğamxörlik ila ulğaytiradi, ular bilan faxrlanişni istaydi. Sayyor bolalikdan bosiq, yaqinlariga mehribonligi bilan ajralib turardi. Uning qaddini ğoz tutib yurişi, vazminligidan otasi Sayid aka "Şu öğlimiz boşqaça-da, onasi, kelajakda harbiy böladiganga öxşaydi", derdi mamnunlik bilan. Umrini şifokorlik kasbiga boğlagan otaning orzusi beiz ketmadi. U yovqur yigitlar safida ofitser böldi. Biroq avtohalokat sabab erta olamdan ötgan Sayid akaga buni köriş nasib etmadi. Çunki bölajak qahramon otadan ayrilganida endigina yetti yoşda edi.

Beş farzand bilan yolğiz qolgan Roziya opa öğil-qizlarini onalarga xos jonkuyarlik ila "tişida tişlab" katta qildi. Birin-ketin turli kasblarga öqitdi. Sayyorjon dadasi ğurur ila ta'kidlaganidek, "boşqaça" bola ekanini isbotladi. Muddatli harbiy xizmatdan söng yigitlik burçini kontrakt asosida davom ettirdi.

– Turmuş örtoğim olamdan ötgandan keyin bolalarimga suyanib yaşadim. Beşta farzandni yolğiz ulğaytirişning özi bölmaydi, köp qiyinçiliklar boşimdan ötdi. Bolalarim öz örnida menga tayanç böldi. Ayniqsa, Sayyorjon juda mehribon edi, – köz yoşlarini artadi Roziya opa xotiralarga qaytib. – Uning fuqarolik pasportini olgan kuni heç yodimdan çiqmaydi. Xursand bölganimdan quvonçdan közlari yonib turgan bolamga peşonasidan öpib, arzimagan "suyunçi" uzatdim. U bergan pulimni qaytib qölimga tutqazar ekan, "menga voyaga yetganim uçun şu hujjatni berişdi. Endi sizga pul beriş navbati meniki", dedi yelkamdan quçib. Umrining oxirigaça şu sözida turdi.

Öğlimning hayotga öta çanqoqligi, harakatçanligidan gohida çöçirdim. Harbiy xizmatda ham kundan kunga örin topib borganidan xabarim bor. U köp xizmat qilmadi. Lekin guruh komandiri sifatida şogirdlar yetiştirib, öz sohasining yetuk mutaxassisi bölganini döstlari köp ta'kidlagan. Öğlimning 2000-yilning fevral oyida "Jasorat" medali olganini eşitib, qutlaş uçun yölga otlandim. Yurtimiz mustaqilligi, elimiz tinçligini asraşda körsatgan jasurligidan yuragim hapriqardi. Biroq bu bolamning oldiga sönggi borişim edi...

GÖZALLIKKA OŞNO YURAK

Qahramon öğlon voyaga yetgan Samarqand şahridagi xonadondamiz. Mehmonlar uçun ajratilgan katta xona törida leytenant Sadinovning harbiy libosdagi surati osilgan turibdi. Bu yerga taşrif buyuruvçilar uni mehr ila eslaydilar, navqiron öğlondan esdalik qolgan suratlar, buyumlar, taşakkurnoma va faxriy yorliqlar, orden va medalni bir-bir qölga olib xotirlaydilar.

Xonadondagi uşbu möjazgina muzey bilan tanişuv jarayonida ukasi Jamşidbek u haqda yorqin xotiralar sözlab bergandi:

– Akam juda kelişgan, körkam yigit edi. Köçada birga yursak nafaqat qizlar, kattalar ham havas bilan qarardi. Hamma narsaga qiziqar, uyda qanday jihoz işdan çiqsa darhol tuzatardi. Rasm çizişda esa juda mahoratli bölib, harbiy qurollarni şu qadar öxşatardiki, körib hayron qolasiz, – deya yon daftarçaga çizilgan rasmlar bilan bizni taniştirdi. – Xizmat joyida ham özi yaşab turgan köp qavatli uyning çiqiş zinapoyalari devoriga juda çiroyli rasmlar çizgan. Ayniqsa, gullar östirişni sevardi. Uyida xilma-xil gullar parvariş qilgan. Öquv maşğulotlariga ketayotganida uyining kalitini qöşnilariga berib, gullariga qarab turişini tayinlarkan. Samarqandga kelganda esa desantçi yigit byustiga, albatta gul qöyib kelardi. Akamning yana bir esda qolarli jihati u tartibni yoqtirardi. Narsalariga, ayniqsa harbiy libosiga juda e'tiborli edi. Biz har gal uni soğinganda buyumlarini közdan keçirib, yana özinikidek qilib taxlab qöyamiz.

Akamning döstlari köp edi, uyga kelganida birzumda hovlimiz örtoqlari bilan gavjum bölardi. U olamdan ötganida nafaqat biz, balki barça döstlari karaxt holga tuşdi. Önga yaqin örtoği öğillarining ismini Sayyor qöydi. Akam biz uçun hamişa xonadonimiz faxri bölib qoladi.

Darhaqiqat, gözallikni sevgan inson barçaning qalbida gözal xotiralar ila asraladi. Ukasi Jamşidbek xotirlaganidek, u hatto olamdan ötganida ham harbiy libosda jilmaygan holda bu dunyoni tark etgan.

SEVDI, SEVILDI, AMMO...

Konsert zalida ötirgan qizlar zal eşigidan kirib kelayotgan harbiy libosdagi körkam yigitlarga havas ila boqar, "şivir-şivir" qilib, ularga qayta-qayta nigoh taşlardi. Farğona gözali Şahnoza Sayyorjonga közi tuşdi-yu, "Qani endi şu yigit mening yonimga kelib ötirsa", deya xayolan orzu qildi. Qarangki, qizning yurakdan qilgan iltijosi ijobat böldi... Ularning ilk tanişuvi, bir-biriga bölgan ötli muhabbati şunday boşlandi va asta-sekin uçraşuvlar, suhbatlar davomida mustahkamlanib bordi.

Roziya opa öğli har gal kelganida köngliga qöl solib körar, yoqtirgan qizi haqida suriştirardi. Axir har qanday ona bolalarini tezroq uyli-joyli qiliş, nabiralar körişni istaydi. Ammo xizmatga berilgan öğlidan bu borada biror sado çiqmasdi. Bir gal u onasiga könglini oçdi. Şahnoza haqida gapirib berdi. Unga uylaniş istagi borligini yaşirmadi. Roziya opaning çiroyi oçildi. Farğonaga tezroq sovçi bölib boriş istagi birzumda xayolini band etdi. U oxirgi marta Sayyorjonni körgani borganida katta öğli – harbiy şifokor Baxtiyorjon bilan vodiyga borib, qiz tomon bilan tanişib, qudalarning roziligini olib qaytmoqçi edi. Afsuski, öşanda bu rejalari turli sabablarga köra amalga oşmadi.

Oradan köp ötmay, Sayyorjon haqidagi sovuq xabar keldi. Bu ayriliq dardi Şahnozaga ham yetib bordi. U bir yil davomida Sayyorning oila a'zolariga telefon orqali bölsa-da, ruhan tayanç bölib turdi. Sevgan qizining u haqda goh yiğlab, goh kulib aytgan xotiralari yigitning yaqinlari uçun juda qadrli edi.

Qahramon yigitning olamdan ötganiga 26 yildan oşdi. Biroq u haqda hamon maqola, oçerk, şe'rlar bitilmoqda. U tuğilgan Jom qişloğining şohköçasiga qahramon yigit nomi berilgan. U öqigan Samarqand şahridagi 9-umumta'lim maktabida byusti qad rostlab turibdi. Maktabda uning hayot yöli aks etgan burçak taşkil qilingan.

Roziya opa ön beşinçi nabirasining ismini Sayyorbek qöygan. Ayni damda qahramon yigit şarafiga nomlari qöyilgan önlab Sayyorbeklar yigit bölib qad rostlagan. Ular öz ismlari bilan faxrlanişiga, Vatanga munosib tayanç, yovqur öğlonlar bölişiga şubha yöq. Zero qahramon öğlonlar nomi mangulikka muşarrafdir.

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"



MEHMON KETGAÇ, BAYROQ QAYERGA KETADI?

Ayrim savollarning javobi insonni uzoq vaqt öyga toldiradi. Kutilmagan bir voqelik qa'rida yaşiringan böladi. Ularga javob topiş uçun olis safarlarga otlaniş, tarix sahifalarini titkilaş yoki murakkab tadqiqotlarga qöl uriş şart emas. Ba'zi haqiqatlar atrofimizdagi oddiy manzaralar, tasodifiy suhbatlar va özgalarning hayotiy kuzatuvlari orqali öz sirini oçadi. Menda ham davlat bayroğimizga bölgan munosabat haqida jiddiyroq muşohada yuritiş istagi ana şunday bir voqeadan keyin yuzaga kelgan.

2024-yilning dekabr oyi. Abituriyentlik davrimning ilk pallalari. Ingliz tili fanidan xalqaro va milliy sertifikat imtihonlariga tayyorlaniş davomida Mirzouluğbek Yusupov ismli ingliz tili mutaxassisidan saboq olardim. Kunlarning birida ustozimiz odatiy dars mavzusidan çekinib, Turkiya davlatiga qilgan oilaviy sayohati çoğida guvohi bölgan bir ajib manzara taassurotlarini biz bilan örtoqlaşdi. Uning hikoya qilişiça, haşamatli imoratlar peştoqidan tortib, oddiy köp qavatli uy xonadonlari javonigaça Turkiya mamlakati bayroği közga taşlanar, qizil rangli buyuk davlat ramzi göyoki köçalarga sönmas ruh bağişlab turardi. Ustozimiz uçun noodatiy bölgan bu qadriyat unda kuçli havas uyğotgan, beixtiyor yurtimizdagi holat bilan taqqoslaşga undagan. Suhbat söngida esa örtaga taşlangan bir savol xotiramda muhrlanib qoldi. Nega turk jamiyatida davlat bayroğini kundalik hayotning bir bölagi sifatida köriş mumkin-u, bizda u köpinça bayramlar yoki ma'lum bir rasmiy tadbirlar arafasidagina paydo böladi? Öşa onda bu oğriqli savol ustida uzoq vaqt fikrlab körmagan bölsam-da, u xayolot olamimning bir çetida javob kutib qolgandi. Mana, oradan qariyb ikki yil fursat ötibdi. Bugun, Özbekiston Respublikasi davlat bayroği qabul qilinganining 35 yilligi arafasida öşa suhbat xotiramda yana bir bor jonlandi.

Bayroq – bu tuşunça mamlakat suvereniteti, mustaqilligi va xalqaro maydondagi öziga xos qiyofasini ifoda etuvçi muqaddas timsol. Uning har bir hilpiraşida millatning tarixi, buguni, orzu-intilişlari va qadriyati mujassam. Demak, unga bölgan qaraşlarimiz ham şunçaki taşqi ehtirom bilan çeklanmay, qalb tubimizdagi Vatanga daxldorlik tuyğusida aks etişi tabiiy. Ammo özim tuğilib ösgan qişloqda kuzatgan quyidagi holat bu borada çuqur mulohaza qilişga çorladi. Ya'ni tumanimizga viloyat hokimi yoki boşqa yuqori martabali mehmonlar taşrifi kutilganida yoki davlat miqyosidagi bayramlar oldidan asosiy köçalar böylab bayroğimiz ilib çiqiladi. Binolar atrofi obodonlaştirilib, atrofga tantanavor tus beriladi. Rasmiy taşrif va bayramlar nihoyasiga yetişi bilan keçagina közni quvontirib turgan bayroqlar ham birin-ketin olib taşlanadi. Göyo ularning vazifasi yakunlangandek.

Albatta, davlat ramzlarining tantanali marosimlarda namoyon bölişi öz ahamiyatiga ega. Lekin tösatdan bir savol tuğiladi: bayroqning asl qadri uni "kimdir" körganida yuzaga çiqadimi yoki u har kuni xalqning nigohi, yuragi hamda Vatanga tegişlilik hissida yaşaşi bilan qadr topadimi? Bu kabi jarayonlar davlat ramzlariga munosabatimizda gohida samimiy e'tirofdan köra rasmiyatçilik ustun kelayotgani borasida fikrlaşga undaydi.

Yuqoridagi masalaga rivojlangan mamlakatlar tajribasi nuqtayi nazaridan qaralsa, bayroqlarning millat hayot tarzidagi örni turli tarixiy an'analar vositasida şakllanganiga guvoh bölamiz. Misol uçun, Daniyaning qizil fondagi oq xoç tasvirlangan Danneborg bayroği hozirda tuğilgan kun tortlari, Rojdestvo arçalari, oilaviy tantanalar, hatto yaqinlarini kutib oliş marosimlarigaça kirib borgan. Uşbu madaniyatning ildizi asrlar davomida qirollik va harbiy hokimiyat timsoli bölib kelgan bayroqdan oddiy fuqarolarning foydalanişiga faqat 1854-yildan ruxsat berilgani bilan ham e'tiborga molik. Ya'ni XIX asr örtalaridagi Daniya–Prussiya mojarolari davrida Danneborg bayroği xalq birligi va milliy özlik ifodasiga aylanib, xonadonlarga kirib boradi.

Norvegiyada ham bayroqdan foydalaniş faqatgina xalq bayramlari bilan çeklanmaydi. Mamlakat Taşqi işlar vazirligi ma'lumotlariga köra, norvegiyaliklar yurt bayroğini Konstitutsiya kuni – 17-maydan taşqari, oilaviy tantanalarda ham uni kötarişni odat tusiga kiritgan. Qiziği şundaki, uşbu mamlakatda davlat muassasalari uçun yil davomida belgilangan 16 ta rasmiy bayroq kuni mavjud ekan. Bayroqni kötariş va tuşiriş vaqtlari ham fasllarga qarab tartibga solingan. Bu tartib davlat ramziga hurmatni kundalik odatlar bilan uyğunlaştirişning öziga xos namunasidir.

Albatta, har bir millatning tarixiy keçinmalari va yurt ramzlari bilan aloqador urf-odatlari turliça. Biroq bu davlatlarni birlaştirib turadigan bir muştarak jihat borki, u ham bölsa, milliy iftixor timsolining haqiqiy qadri uning qançalik baland kötarilişidangina emas, xalq hayotida qançalik çuqur ildiz otganidan ham anglaşiladi.

Endi diqqatni özimizga qaratsak. Milliy ğururimiz qaysi holatlarda uyğonadi-yu, u qança vaqt qalbimizda saqlanadi? Xalqaro maydonlarda sportçilarimiz şarafiga davlatimiz madhiyasi yangraganda bayroğimiz yuksalib, könglimizni iftixor tuyğusi çulğaydi. Sababi öşa lahzalarda yurtimizning şa'ni, xalqimizning quvonçi va mustaqilligimizning qadr-qimmati bir timsol atrofida mujassamlaşadi. Ammo musobaqalar yakunlanib, tantanalar şukuhi bosilgaç, bu hayajon kundalik turmuşimizda qay darajada davom etadi?!

E'tiborli jihati şundaki, "Özbekiston Respublikasining davlat bayroği töğrisida"gi qonunga kiritilgan özgartiriş va qöşimçalar bilan milliy ramzimizdan foydalaniş doirasi sezilarli darajada kengaytirildi. Unga binoan, fuqarolarimiz mamlakatimizning boş ramzini turarjoy va iş örinlarida, ularga tutaş hududlarda, jamoat joylarida, transport vositalari salonida, şuningdek oilaviy tantanalar va boşqa tadbirlarda belgilangan talablarga rioya etgan holda qöllaşlari mumkin. Bu esa uni faqat davlat idoralari peştoqi yoki tantanali marosimlar sahnasiga xosligini anglatmaydi.

Muxtasar aytganda, ustozimning Turkiya haqidagi hikoyasi hozirda qişloğimdagi öşa manzaralar bilan tafakkurimda tutaşadi. Birida bayroq aholi hayotining tabiiy bir bölagi, ikkinçisida esa rasmiy taşriflar va bayramlar oldidan paydo böladigan bezakka öxşaydi. Bu ikki turfa olam orasidagi farq faqatgina odatlarda emas, milliy ramzga munosabatimizda ham aks etadi. Meni öylantirgan savol: tantanalarda osilgan davlatimizning betakror ramzi – bayroğimiz tadbirlardan söng nega olib qöyiladi? Balki, javobni uning olib qöyilişidan emas, nima uçun faqat tantanalarda kötarilişidan izlaş kerakdir...

Muxlisaxon HASANJONOVA,
ÖzJOKU talabasi

BAYROĞIM

Hayotim mazmuni har bitta ranging,
Muqaddas men uçun hattoki çanging,
Vatandan özga yöq asli qiyosing,
Kökdasan, qalbdasan, özing ardoğim,
Hilpira yuksakda mangu, bayroğim!

Vatanim timsoli, şonisan özing,
Sadoqat, jasorat konisan özing,
Çin Vatan farzandin jonisan özing,
Asrayman, mö'tabar mudom qaroğim,
Hilpira yuksakda mangu bayroğim!

Xalqimning siymosi, keksa, yoşisan,
Har bir vatandoşim köz-u qoşisan,
Mardlarning ta'zimda turgan boşisan,
Dillar aro rişta, birlik çaroğim,
Hilpira yuksakda mangu, bayroğim!

Jahonni lol qilgan sen – özbegimsan,
Şu onda qalqigan quvonç yoşimsan,
Orim, ğururimdan baland boşimsan,
Iftixordan tuygan ajib titroğim,
Hilpira yuksakda mangu, bayroğim!

Qayda bölsam sen bor – erkin yurişim,
Sen bilan – borligim, mağrur turişim,
Töxtama, axir sen yurak urişim,
Özimning bayroğim, mening bayroğim,
Hilpira yuksakda mangu, bayroğim!

Botir SOBIROV,
Harbiy prokuratura xodimi

MA'NAVIYAT QALQONI

"BYD"GA BIR QADAM QOLDI!

Joriy yil avvalida Qurolli Kuçlar tizimida boşlangan "Ma'naviyat qalqoni" nomli respublika kitobxonlik tanlovining Mudofaa vazirligi bosqiçi ötkazildi. Unda dastlabki saralaş bosqiçlaridan muvaffaqiyatli ötgan 12 nafar kontrakt böyiça harbiy xizmatçi, 9 nafar muddatli harbiy xizmatçi, 5 nafar oliy ta'lim muassasasi kursanti hamda 4 nafar harbiy akademik litsey öquvçisi iştirok etdi.

Mudofaa vazirligi bosqiçi iştirokçilarining kitobxonlik darajasi, milliy va jahon adabiyoti durdonalarini qay darajada özlaştirgani uçta – "Tezkor savol-javob", "Badiiy asarlar bilimdoni", "Inşo yoziş" şartlari asosida sinovdan ötkazildi.

I örin sohiblari ***(1-darajali diplom va 11 000 000 söm pul mukofoti)***:

Asilbek Jöraqobilov, Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey öquvçisi;

Odilbek Muhammadov, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti kursanti;

Muddatli harbiy xizmatçi Javohir Ziyoyev, Janubi-ğarbiy maxsus harbiy okrug;

Kiçik serjant Anvar Raşidov, Toşkent harbiy okrugi.

II örin sohiblari ***(2-darajali diplom va 8 800 000 söm pul mukofoti)***:

Asror Rahimboyev, Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey;

Saidkamol Ziyodullayev, Quruqlikdagi qöşinlar instituti kursanti;

Muddatli harbiy xizmatçi Abduqahhor Ortiqboyev, Markaziy harbiy okrug;

Katta leytenant Doniyor Ergaşev, Janubi-ğarbiy maxsus harbiy okrug.

III örin sohiblari ***(3-darajali diplom va 6 000 000 söm pul mukofoti)***:

Asadbek Xolmanov, Farğona Temurbeklar maktabi öquvçisi;

Xurşid Yöldoşev, Harbiy aviatsiya instituti kursanti;

Muddatli harbiy xizmatçi Loçinbek Berdiyev, Şarqiy harbiy okrug;

Kiçik serjant Javohirbek Turopov, Maxsus operatsiya kuçlari qömondonligi.

Bu kitobxon harbiylarni mamlakat miqyosida kuç tuzilmalari örtasida ötkaziladigan sönggi katta marra kutib turibdi. Respublika bosqiçida mutlaq ğolib bölgan eng bilimdon harbiy xizmatçiga boş sovrin – "BYD" avtomobili tantanali ravişda topşiriladi!

Murodjon RÖZIBOYEV



GROSSMEYSTERLAR JAVOHIRI



Özbekiston şaxmatining oqsoqoli, yuridik fanlar doktori, professor Komiljon Sindarov bilan suhbat.

– Komiljon aka, suhbatni şu kunlarda butun xalqimiz orziqib kutayotgan voqea – jahon toji uçun kuraşlar haqida boşlasak.

– Avvalo, barçangizga Javohir va öz nomimdan samimiy salomlar yöllayman. Javohir ayni paytda jiddiy tayyorgarlik jarayonida, şuning uçun bugun suhbatga özim kelişga majbur böldim.

Endi katta jangga ham juda oz vaqt qoldi. Joriy yilning 24-noyabridan boşlab Jeneva şahrida uzoq kutilayotgan jahon toji uçun bahslar boşlanadi. Javohirjon öşa Gukeş bilan jangga kiradi. Taqdirlaş marosimidan keyin keçasi uçib ketişga majbur böldi, çunki vaqt juda ziç...

– Jamoadan kimlar örin olgan, agar sir bölmasa?

– Asosiy murabbiyimiz – germaniyalik maşhur mutaxassis Roman Ovseduk. Sekundantlarimiz ham talaygina. Muhiddin Madaminov ham jamoada. Şuningdek, rejamizga köra, Özbekiston terma jamoasi a'zolari, xususan, Rustam Qosimjonov Samarqanddagi kabi Jenevaga ham yetib boradi va Javohirga yaqindan kömak beradi. Ularning bir davrada ötirişini körsangiz, suhbatlarini eşitsangiz, bir-biridan juda katta motivatsiya oladi.

– Komiljon aka, umuman, şaxmat nafaqat sport, balki asl aql gimnastikasi. Hatto "Şaxmat sportmi yoki ilm?" degan bahsli qaraşlar ham mavjud. Ayni paytda bu sport turiga muhim geosiyosiy raqobat quroli sifatida ham qaraladi. Ötgan asrda sobiq Ittifoq va Amerika qarama-qarşiligida şaxmatga alohida siyosiy maqsad va vazifa sifatida yondaşilganini bilamiz.

– Yaqinda Karpov va Korçnoyning Filippinda bölib ötgan maşhur öyinlari haqida film körib qoldim. Avval ham bu haqda eşitgandim, lekin tafsilotlarini bilmasdim. Öşanda bu qarşilik oddiy sport musobaqasi emas, ikki lager örtasidagi aslida katta jangga aylangan ekan. Bu jarayonga hatto maxsus xizmatlar aralaşib, jiddiy şuğullangan. Bugun ham şaxmat şunday jiddiy vazifani bajarişda davom etmoqda.

Qolgan sport turlari jismimizni poklasa, şaxmat doimo aqlimizni tozalab, uni tinimsiz işlatib turadigan mexanizmdir. Prezidentimiz maktablarda şaxmatni rivojlantiriş yuzasidan yangi ğoyalarni ilgari surayotgani ham bejiz emas. Butun mamlakat böylab şaxmatni ommalaştiriş zamirida buyuk maqsadlar yotibdi. Hamma ham jahon çempioni bölişi şart emas, lekin yoşlarimizning şaxmat örganişi aslo bekor ketmaydi. Bu inson intellektini rivojlantirib, mantiqiy fikrlaş, strategiya tuziş, vaziyatni töğri baholaş va oldindan rejalaştiriş qobiliyatini şakllantiradi.

Hatto Abu Rayhon Beruniy asarlarida şaxmatning davolovçi xususiyatlari ham qayd etilgan bölib, keyinçalik olimlar bundan foydalangan ekan. Bobomiz betob yoki psixologik tuşkunlikka tuşgan odamlarga şaxmat öynaşni tavsiya qilgan.

– Komiljon aka, ulkan ğalaba uçun Prezidentimiz çempionlarimizni haqli ravişda yuksak taqdirladi. Har bir ğolibimizga uy-joy, eng qimmatbaho avtomobillar va 200 ming dollardan pul mukofoti topşirildi.

– Töğri aytasiz. Prezidentimiz ilk kundanoq "Bu hali hammasi emas", deb aytib kelayotgandilar. Hammamiz "Xöş, keyin nima bölarkin?" deb kutib turgan edik. Öşa 200 ming dollarlik qaror 21-sentabr kuni e'lon qilinganida, jamoamiz bilan birga ötirgan edik, yigitlarning kayfiyati birdan kötarilib ketdi. Albatta, moddiy rağbat ham yoşlarimiz uçun juda muhim. Keyin Prezidentimiz uy va maşinalar masalasini bitta-bitta aytib ötganida, har bir yangilik ularga katta quvonç bağişladi. Öşa paytda yoşlarimizning yuzlari çaqnab ketganini körsangiz edi!

Ayniqsa, paraşaxmatçilarimizning yutuği tarixiy voqea böldi. Ularning uçinçi örinni egallaşini oçiği, öylamagan ham edik, çunki bu borada tayyorgarligimiz u qadar yuqori emasdi. Paralimpiyada bizda biroz e'tibordan çetda qolgan, unutilgan soha edi. Biroq oxirgi uç-tört oy içida ularni turli joylardan töplab, akademiyada jamladik, murabbiylar biriktirib, jiddiy şuğullantirişni boşladik. Ana şunday qisqa fursatdagi birgina urinişdayoq uçinçi örinni qölga kiritdi!

Öşanda ularning va ota-onalarning quvonç yoşlarini körib, benihoya ta'sirlandim. Çunki ular şu vaqtga qadar şaxmatga umrini baxşida qilgan bölsa-da, biror marta mukofot oliş darajasida emasdi. Maşinasi ham, uy-joyi ham yöq edi. Masalan, Qoraqalpoğistondan kelgan Selbi degan qizimiz mehmonxonalarda yaşab, şuğullanib yurardi, şaroiti juda oğir edi. Keça ularga uy berilgaç, ota-onasi bilan kirib, juda xursand böldi. "Endi bizning ham öz uyimiz, maşinamiz bor, endi faqat şu yerda yaşab, bemalol şuğullanamiz", deb közlariga yoş oldi.

– Prezidentimiz çempionlarga katta mukofotlarni topşirganda, ijtimoiy tarmoqlarda ba'zi e'tirozlar ham bildirildi. Lekin biz hatto oxirgi puliga bilet sotib olib, farzandini musobaqalarga jönatgan ota-onalarning maşaqqatiga guvohmiz-ku!



– Birinçidan, biz sarflagan xarajatlarimizning hali kiçik bir qismini oldik, lekin biz buni aslo minnat qilmaymiz. Farzandimizga qilingan investitsiya baribir bir kun öz samarasini beradi, çunki bu – aql-zakovatga qilingan sarmoya. Bugun berilayotgan bunday ulkan imkoniyatlar 40 millionlik aholimiz va yoşlarimizda şaxmatga bölgan qiziqişni uyğotmoqda. Bu mehnat qilgan inson qadr topişi haqidagi haqiqatni yana bir bor isbotlaydi.

Bunga havas bilan qaraş kerak. Biz har doim Rustam Qosimjonovga havas qilganmiz. Faqat havas qilganlargina şunday çöqqilarga yeta oladi. Prezidentimiz bejiz: "Biz boy davlat emasmiz, lekin yoşlarimizdan, çempionlarimizdan heç narsani ayamayman", demadilar. Bu – juda töğri fikr. Davlatimiz rahbari birgina çempionni taqdirlaş orqali ertaga minglab, millionlab çempionlarni tarbiyalaşni, butun jamiyatni uyğotişni maqsad qilganlar.

Samarqanddagi olimpiadaga çet eldan 10 mingdan ortiq odam keldi, umumiy hisobda 60 mingdan ziyod kişi qatnaşdi. Butun dunyo investorlari qiziqiş bildirdi. Olimpiada tufayli jahon ahli özbeklarning aql-zakovatli, intellekti yuqori xalq ekanini angladi. Demak, bu yerga investitsiya kiritsa, birga işlasa bölar ekan. Nima uçun Hindistonda IT sohasi rivojlanib ketdi? Çunki u yerda mutaxassislar yetişib çiqqaç, keyin barça investitsiyalar öşa yoqqa oqib bordi.

Bizga ham öşa kunlarda qançadan qança yirik kompaniyalar qiziqiş bildira boşladi. Butun dunyoda Özbekistonni tanimaydigan mamlakat qolmadi. Butun jahon nigohi 20 kun davomida Samarqandga tikildi. Hamma joyda "Özbekiston – şaxmat, Özbekiston – şaxmat" degan sözlar yangradi. Ikkinçi marta oltin medalni qölga kiritganimiz bilan faxrlaniş kerak emasmi?

Şuning uçun negativ kayfiyatdagilarga aytardimki: agar biz birovning yutuğiga havas qilsak, farzandimiz ham öşa çöqqilarga erişadi. Agar hasad qilib, orqadan gapirsak... "Hikmat izlaganga – hikmat, ğurbat izlaganga esa ğurbatdir dunyo". Har kim özi izlaganini topadi. Ularga javobim şu.

– Şu örinda yana bir muhim masalaga töxtalib ötsam. Ijtimoiy tarmoqlarda Javohir haqida köplab tahlilçilar öz fikrlarini bildirmoqda. Ayniqsa, köpçilik yurtdoşlarimizning e'tiborini tortayotgan yana bir yangilik bor – u ham bölsa, qozoğistonlik jahon çempioni Bibisora qizimiz bilan özaro munosabatlari. Siz intervyularingizdan birida: "Agar yoşlar şunday qarorga kelsa, men qarşi emasman, oq fotiha beraman", degan edingiz. Kuzatuvçilarimiz bu fotiha qaçon berilişini qiziqib kutmoqda.

– Töğri, men hamon şu fikrimda qolaman. Oilamiz bilan ham buni qöllab-quvvatlaymiz, çunki bundan ortiq töğri javob bölmasa kerak. Ular yoşligidan musobaqalarda birga yuradi, dunyoqaraşi va öy-fikrlari bir xil. Bibisora ham Qozoğistonning faxri, qolaversa, bir neça karra jahon çempioni va grossmeyster. Bizda hali ayollar orasida bunday yuksak nomga sazovor bölgan şaxmatçimiz yöq.

Bunday nikoh ertaga, birinçi navbatda, ikki qardoş xalqni yanada yaqinlaştiradi. Bu masalada Javohir bilan köp gaplaşganmiz. Avvaliga turli fikrlarda bölganmiz, "yaxşilab öylab kör, balkim yoşlik hissidir", deganmiz. Yöq, ular mana neça yillardan buyon ana şu iliq munosabatlarni davom ettirib kelişyapti. Döstona aloqalar vaqt ötişi bilan çinakam sevgi-muhabbatga aylandi.

Albatta, hozir Javohirning bu haqda öylaydigan vaqti emas. U şaxmat jahon tojini Özbekistonga olib kelganidan keyingina biz bu masalani Javohir bilan birga ötirib, muhokama qilamiz. Töy böladi va bu töydan kutadigan umidlarimiz ham katta. Çunki Javohirni şaxmatni tuşunmaydigan boşqa bir qizga uylantirsak, bu keyinçalik katta muammoga aylanişi mumkin. U şaxmat olamini tuşunişi kerak. Javohir hozir yilning 11 oyini xorijda, musobaqalarda

ötkazadi. Yonida doim birga yuradigan inson kerak. Şaxmatga qiziqmagan odam uçun bunday hayot juda oğirlik qiladi. Şuning uçun ham bu nikoh bizga har tomonlama qulay va ma'qul keladi. Qolaversa, uning qöşni Qozoğistondan bölgani ikki birodar xalqni yanada jipslaştiradi. Amir Temur bobomiz ham nevaralariga kelin izlaganda qaysidir davlatdan olib, öşa yurtni öziga döst tutganini eslaylik.

– Javohirni tarbiyalaş jarayoni va undagi yutuqlarning siri nimada? Uni qanday qilib şu darajaga yetkazgansiz?

– Bunda, birinçi navbatda, çuqur tahlil muhim rol öynadi. Ota-ona uçun tahlil – eng asosiy vosita. Masalan, Javohir yetti yoşligidayoq Kasparov, Karpov va Karlsenlarning öyinlarini qanday öylaganini çuqur tahlil qilib borganman. Internetdagi ma'lumotlarni yiğib, taqqoslab çiqqanmiz. Javohir ulardan qolyaptimi yoki ötib ketyaptimi – hammasini doimiy ravişda soliştirib borardik.

– Ya'ni doimiy ravişda tahlil orqali soliştirib borgansiz.

– Ha, şunday. 2018-yilga kelib Javohir dunyoning eng yoş grossmeysteri böliş arafasida edi, biroq moliyaviy imkoniyatlarimiz çeklangani bois uni xorijdagi musobaqalarga yetarliça yubora olmadik. Reyting oliş va me'yorni bajariş uçun xalqaro musobaqalarda muntazam qatnaşiş şart. U paytlari bir yilda kamida 10 ta turnirga boriş kerak bölsa, biz bor-yöği 3 tasigagina bora olardik. Şu sababli ma'lum ma'noda biroz orqada qoliş ham kuzatildi. Imkoniyatlari katta edi, ammo mablağ va şaroit yetişmagani uçun pasayib borgandek körindi, bundan juda qattiq açinardim.

Nihoyat, 2013-yilda qiynalib Vengriyaga bordik. Öşa safarni hali ham yaxşi eslayman. Vengriyada kerakli uçinçi normani bajarib, dunyoning eng yoş grossmeysterlaridan biriga aylanganmiz. Ana şunday puxta tahlillar asosida harakat qilganimiz uçun maqsadimizga erişganmiz.

Hozir ham şaxmat federatsiyasi rahbarlaridan biri sifatida faoliyat yuritar ekanman, barça muammolarni ana şu tahlillar asosida hal qilişga harakat qilaman. Qayerda kamçiligimiz bor, nima qilişimiz kerak – hammasini puxta öylaymiz. Töstöpolon bilan heç narsaga erişib bölmaydi.

Masalan, işga kirişganimdayoq ayollar şaxmati va paraşaxmat orqada qolib ketganini oçiq aytgan edim. Prezidentimizga ming rahmat, u kişi mendan ham oldin bu masalani örtaga taşlab, haqiqiy amaliy qadamlarni qöydilar. Bizning özimiz buni bajarişimiz qiyin edi, lekin davlatimiz rahbarining maxsus qarori bilan bu sohalar mustahkamlandi va rivojlana boşladi.

– Avvalgi suhbatlaringizdan birida Javohirdagi bu noyob qobiliyat va kuçli xotira uning katta bobosi – xalqimizning buyuk baxşisi Ergaş Jumanbulbul öğlidan ötganini aytgan edingiz. Baxşilar bir neçta dostonlarni yoddan bilişi ma'lum, demak, bu ötkir xotira avloddan avlodga ötgan. Muxlislarimiz yaxşi biladi: Javohir doskaga qaramasdan, közi boğliq holda 45 tagaça şaxmatçi bilan bir vaqtning özida öynay oladi. U har bir yurişni aniq eslaydi. Masalan, kimdir öyinda ataylab yutib olgan otni joyiga qaytarib qöyib yuriş qilsa, u darhol: "Buni siz yettinçi yurişdayoq boy berib qöygandingiz-ku!" deb aytib berar ekan. Bu fenomenal xotira va qobiliyatlar örtasida qanday boğliqlikni körasiz?

– Töğri aytdingiz, buyuk bobomiz Ergaş Jumanbulbul öğli 45 ta dostonni yoddan bilgan. Öşa davr olimlari u kişini eng fenomenal xotira sohibi deb baholaşgan. Albatta, bu bejiz emas. Oilamizda avval professional şaxmatçilar bölmagan, özingiz bilasiz, biz ham hamma qatori havaskor sifatida öynab yurganmiz. Lekin ana şu kuçli xotira va tafakkur Javohirda şaxmatga mehr uyğonişida muhim rol öynadi. Bu genlar orqali ötadigan jarayon ekan. Ajdodlarning qoni, geni va noyob xotirasi yillar ötib öz sözini aytar ekan. Özim ham boşqa nevaralarimning kuçli xotirasini körib hayron qolaman – demak, bu bobolar genining uyğonişidir.



– Biz oldinroq biroz töxtalib ötgan edik, biroq kuzatuvçilarimiz yana bir jihatni batafsil bilişni xohlaydi. Nabiralaringiz Islombek ham, Humoyun ham Özbekiston, Osiyo va jahon çempionlari bölgan. Biroq sohadagi ayrim tösiqlar va bosimlar sababli ular şaxmatni vaqtinça yoki butunlay tark etdi. Hozir ular nima bilan band?

– Islombek hozir Vestminster universitetida tahsil olmoqda. Şu bilan birga, "Çess Sindarov" akademiyasiga rahbarlik qilib, öşa yerdagi 300 ga yaqin öquvçiga murabbiylik qilyapti. U şaxmatdan butunlay uzilib keta olmadi, yaqinida FIDE hakamligi guvohnomasini ham olib qöydi. Albatta, ular öşa paytda olimpiadalarda öynamagani, hatto Javohir bilan bir tarkibda birga maydonga çiqiş imkoniyati böla turib, bu imkoniyatdan ayrilib qolganini gohida armon qilişadi.

– Töğri, u paytda tahlilçilar Islombekka köproq umid boğlardi. U juda noyob iste'dod egasi, öta qobiliyatli şaxmatçi edi.

– Çindan ham şunday, dastlab Islombek ilgarilab ketgandi. Eslaysizmi, olti yoşida Eronda ötkazilgan musobaqada uçta oltin medalni qölga kiritib, birinçilardan bölib porlab çiqqandi. Öşanda Javohir biroz ortda qolib, bitta kumuş medal bilan çeklangandi. Demoqçimanki, unda ham juda katta qobiliyat bor edi.

Humoyun ham öz vaqtida Osiyo çempioni bölgan. Lekin uning futbolga ham kuçli iste'dodi bor edi. Bugungi kunda u ösmirlar örtasidagi futbol böyiça Özbekiston terma jamoasi a'zosi sifatida faoliyat yuritmoqda.

- Komiljon aka, yana bir muhim masalaga töxtalmoqçi edim. Siz Jizzax viloyat xöjalik sudining raisi lavozimida yuqori natijalar bilan faoliyat yuritgansiz. Biroq siz Javohirning kelajagi deb viloyat sudi raisligidan voz keçdingiz...

– Javohirni tört yarim yoşida şaxmatga olib borganimizdan keyin, uning iste'dodi juda tez ösdi – hatto olti oy ötib meni ham yutadigan darajaga yetdi. Hozir ham aytaman: agar orqasida biror fidoyi inson, mas'uliyatni böyniga oladigan rahnamosi bölmasa, heç kim öz-özidan çempion bölib keta olmaydi. Öğlimiz va kelinimiz işda, boşqa nevaralarimiz ham bor, oilaviy yumuşlar köp edi. Öşa paytda men viloyat sudining raisi lavozimida işlayotgan edim. Vakolat muddati tugab, yangi muddatga qayta saylaniş masalasi körilganida, rahbariyat: "Siz juda yaxşi işlayapsiz, mana keyingi muddatga ham sizni tavsiya qilamiz", degan taklifni bildirişdi. Biroq men: "Yöq, endi ilmiy faoliyatimga qaytaman", degan vaj bilan bu lavozimni davom ettirmadim.

Çunki 2012-yilda Javohirni birinçi marta xorijdagi musobaqaga olib çiqiş masalasi köndalang bölganida, buni amalga oşiriş juda qiyin edi. Ustozi Sabohatga iltimos qilib: "Iltimos, borib keling", degan edik. Ikki nafar yoş bolani – biri beş, ikkinçisi olti yoşdagi mitti bolalarni xorijga olib borib yuriş oson emasdi. Öşanda bolalar borib, biri bitta, ikkinçisi ikkita medal olib, Osiyo çempioni bölib qaytdi.

Öşanda çuqur öylab kördim: demak, bu bolaga kimdir özini butunlay baxşida qilişi, ortidan yurişi kerak ekan. Töğri, u paytda yoşim nafaqa yoşiga yaqin ham emas edi – bor-yöği 52 yoşda edim. Lekin şunga qaramay, sevimli kasbimdan voz keçişga majbur böldim. 2013-yildan boşlab Javohirni Eron va boşqa davlatlardagi musobaqalarga özim yetaklab boradigan böldim. To u grossmeyster maqomini olmagunça, naq yetti yil davomida uning yonidan bir qadam ham jilmasdan, doimiy safarlarda birga yurdim. Keyinçalik yana öz sohamga qaytib, munosib tarzda nafaqaga çiqiş imkoniyati ham böldi.

– Bugun jahon tojiga da'vogar bölib turgan Javohir Sindorov ham mağlubiyatga uçragan paytlari bölganini körganmiz. Ana şunday sinovli damlarda unga qanday taskin bergansiz?

– Men bu masalaga öz nuqtayi nazarimdan kelib çiqib qaraganman. Bolalarga yoşligidan şaxmat örgatayotganda ham yoki uyda birga futbol öynaganimizda ham doim bitta gapni aytardim: "Sen mağlubiyatga heç qaçon oddiy köz bilan qarama, unga könikib ham qolma. Mağlubiyatdan töğri xulosa çiqar, kerak bölsa, aççiq közyoş tökib, yiğlab ol!" Faqat şunday qalbi kuyib-yongan boladan asl çempion çiqadi. "Heçqisi yöq, öyinda böladi-da", deb beparvo qaraydigan odamdan heç qaçon mard sportçi çiqmaydi.

Ba'zilar mağlub bölsa ham: "E, rahmat, böldi, bolam, sen zör öynading, ertaga yaxşi öynab ketasan", deb bolani yupatadi. Yöq, bu notöğri! Bola mağlubiyatidan qattiq kuyinib, xulosa çiqarişi, ertaga bunday xato takrorlanmasligi uçun tinimsiz işlaşi kerak. Katta ğalabalarga olib çiqadigan yagona yöl – mağlubiyatga befarq qaramaslik.

– Uning asosiy raqibi va amaldagi jahon çempioni Gukeş haqidagi fikrlaringizni ham bilmoqçiman.

– Gukeş ham köz oldimizda ösgan bola. Toşkentga bir neça marta kelgan, uni bolaligidan bilaman. Ota-onasi bilan ham köp gaplaşganmiz, ayniqsa, Moskvadagi "Moscow Open" turnirida birga bölganimizda yaqinroq tanişganmiz. Öşa paytda ular ham oddiy, kambağalgina oila edi. Lekin men bir narsaga qoyil qolaman: şu qadar maşaqqatlarga qaramasdan, ota-onasi uni barça turnirlarga muntazam olib borardi. Hind ota-onalarining mana şu fidoyiligiga tan bermaslikning iloji yöq.

E'tiborli jihati şuki, Javohir dunyoning eng yoş grossmeysteri maqomini olganidan söng köpçilik bu rekordni endi heç kim yangilay olmasa kerak, deb öylagandi. Ammo Gukeş Javohirdan bor-yöği bir-ikki kun oldin bu rekordni yangiladi. Keyin buni çuqur tahlil qilib kördim. Boya tahlil haqida bejiz aytmadim-da! Ma'lum bölişiça, Gukeş öşa yili naq 32 ta xalqaro turnirda qatnaşgan ekan. Biz esa öşa paytlarda bor-yöği 3–4 ta turnirgagina bora olardik, xolos. Çunki çet elga çiqişga imkoniyatimiz çeklangan edi. Özbekistonda faqat Georgiy Agzamov xotirasiga bağişlangan bitta musobaqa bölardi, qolgani çet elda ötardi. Mana sizga asosiy sabab! Çempion böliş uçun tinimsiz raqobat va turnirlar zarur.

– Ijtimoiy tarmoqlarda köp öqiyman: Javohirning bugungi yutuqlari ortida ulkan mehnat bilan birga ma'lum ma'noda iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlar ham turgani aytiladi. Lekin şunday iqtidorli bolalar borki, ularning şunday turnirlarga borişga, hatto safar xarajatlarini qoplaşga imkoniyati yetmaydi. Bunday qiyinçiliklar sizning boşingizdan ham ötganmi?

– Albatta! Öğlim va oila a'zolarimiz bilan öşa kunlarni eslab turamiz. Öğlim ham öşa paytda işlardi, kelinimiz maktab direktori edi, hatto yoş bolasi bölişiga qaramay uni ham işga qöygandik. Topgan-tutganimizni yiğib, musobaqalarga sarflardik. Şunday paytlar bölganki, safar çiptalarini qarzga olişga majbur bölganmiz. Çipta oliş mas'uliyati öğlimning zimmasida edi, xorijdagi safar xarajatlarini esa men özim amallardim. Öşa çiptalarni hali ham eslaymiz – köpçilikdan, taniş-bilişlar va qadrdon döstlarimizdan qarz kötarganmiz. Hatto yaqin döstlarimiz – Xoliqul aka, Murtazo aka kabi insonlar çipta olişda va boşqa xarajatlarda bizga katta yordam bergan. Çunki öz mablağimiz bir oydan ikkinçi oyga ötib yaşaşga zörğa yetardi. Birgina Yevropaga borib, 30 kun davomida musobaqada qatnaşişning özi qançalik maşaqqatli ekanini tasavvur qilib köring-a!

– Demak, boşida biz tilga olgan davlat mukofotlari va rağbatlar aynan öşa paytdagi maşaqqatlarning mevasi ekan-da?

– Aynan şunday! Bu – yoşlarimizga, kelajagimizga qilingan eng töğri va ulkan investitsiyadir.

– Juda ta'sirli va gözal suhbat böldi, rahmat!

– Soğ-salomat böling, rahmat sizga ham!

Olimjon ÖSAROV suhbatlaşdi.

Bu yil xalqimiz tarixida yana bir muborak sana nişonlanmoqda. Davlatimiz rahbarining 2026-yil 24-iyuldagi "Buyuk vatandoşimiz, hadis va tasavvuf ilmining yetuk namoyandasi Hakim Termiziy tavalludining 1200 yilligini keng nişonlaş töğrisida"gi PQ-275-son qarori bilan Termiz zaminida tuğilib, butun islom olamiga tanilgan mutafakkir alloma Hakim Termiziyning yubileyi davlat miqyosida ötkazilmoqda. Uşbu e'tibor alloma merosiga bölgan yuksak ehtiromning nişonasidir.

HAKIM TERMIZIY UMMONIDAN TOMÇI

TERMIZNING BUYUK FARZANDI

Hijriy III, milodiy IX asr Termiz uçun haqiqiy ilm asri böldi. Bir şahar, bir davr ikki buyuk siymoni yetiştirdi. Biri – Imom Abu Iso Termiziy, oltita işonçli hadis töplamidan birining muallifi. Ikkinçisi – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan Hakim Termiziy. Abu Iso Termiziy hadis ilmining ustuni bölsa, Hakim Termiziy hadis, fiqh, aqida va tasavvufni bir butunlikda körgan mutafakkir sifatida tarixda qoldi.

Hakim Termiziyning hayot sanalari manbalarda turliça keltiriladi. Ilmiy adabiyotda köproq qabul qilingan sanalarga köra, u hijriy 205, milodiy 820-yilda tuğilib, hijriy 320, milodiy 932-yilda vafot etgan. Ayrim tadqiqotçilar, jumladan, nemis şarqşunosi Bernd Radtke vafotini biroz oldinroq – X asrning dastlabki yillariga töğri kelişini ta'kidlaydi. Aynan şu bahs allomaning hayotini örganiş hali tugallanmaganini, yubiley yili bu boradagi tadqiqotlarga turtki berişini körsatadi.

Allomaning hayoti haqidagi eng işonçli manba uning özi qoldirgan "Bad'u şa'n" *("Işning boşlanişi")* nomli avtobiografik risoladir. Unda alloma sakkiz yoşidayoq hadis va ra'y, ya'ni fiqh ilmini örganişga kirişgani, yigirma yetti yoşida haj safariga çiqib, Makka va Madinada bölganini hikoya qiladi. Manbalarga köra, u Balx, Nişopur, Iroq, Basra kabi ilm markazlariga safar qilgan, bir yuz oltmişdan ortiq muhaddisdan hadis örgangan. Misrlik tadqiqotçi Muhammad Ibrohim Juyuşiy uning ustozlari röyxatini 168 nom bilan yakunlaydi. Bu raqamning özi IX asrda ilm oliş qançalik maşaqqatli va şarafli yöl bölganini hamda alloma ilm oliş uçun şahardan şaharga ötib, minglab çaqirim yöl bosganiga dalolat qiladi.

Hakim Termiziy zamondoşlari bilan ilmiy yozişmalar olib borgan. Balx şayxi Muhammad ibn Fazl Balxiyga va Nişopur malomatiylarining maşhur şayxi Abu Usmon Hiriy Nişopuriyga yozgan maktublari bizgaça yetib kelgan. Bu maktublar Termiz, Balx va Nişopur ilm ahli örtasidagi muloqotning bevosita guvohi bölib, allomaning öz zamonasida qançalik e'tirof etilganini körsatadi.

"Hakim" taxallusi "hikmat sohibi" degan ma'noni anglatadi. Allomaga berilgan mazkur nom uning ilmiy yönalişini aks ettiradi. Hakim Termiziy har bir şar'iy hukm va ibodat ortidagi hikmatni, sababni izlagan. "Isbot al-ilal" – "Illatlarni isbotlaş" asari bunga yorqin misol bölib, unda namoz, röza, zakot kabi ibodatlarning botiniy ma'nolari oçib beriladi. Alloma birinçi navbatda, ilmlardagi mohiyat va mazmunni, hukmlarning hikmatini muhim sanagan.


ASRLARNI BOĞLAGAN BOY ILMIY MEROS

Hakim Termiziyning ilmiy merosi hajman ham, mazmunan ham ulkan. Fransuz tilida çop etilgan bibliografik tadqiqotida Usmon Yahyo allomaga nisbat beriladigan saksonga yaqin asar nomini sanagan bölsa, amerikalik olim Nikolas Heer oltmişga yaqin asar nomini qayd etadi. Farq bir asarning turli nomlar bilan atalişi va ayrim asarlar nisbatining aniqlaştirilmaganidan kelib çiqadi. Qanday bölmasin, ön bir asr davomida saqlanib kelgan bu merosning salmoği juda uluğ va ma'nan boydir.

Allomaning eng yirik asari – hadislar şarhiga bağişlangan "Navodir al-usul" *("Nodir asllar")*dir. Bu asar 292 asl, ya'ni bobdan iborat bölib, har bir bobda bir hadis keltirilib, uning hikmatlari oçib beriladi. Asarning eng qadimiy qölyozmasi London universitetida saqlanadi va 584-hijriy, milodiy 1189-yilda köçirilgan. Uning nusxalari Özbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Şarqşunoslik instituti va Özbekiston musulmonlari idorasi qölyozma fondlarida ham bor. 2020-yilda Toşkentda asarning ilmiy-tanqidiy matni çop etila boşlandi. Bu asar keyingi asrlarda ham e'tirof etilgan: XIII asr mufassiri Imom Qurtubiy özining maşhur tafsirida undan qirq sakkiz örinda iqtibos keltirgan.

"Xatm al-avliyo" *("Avliyolar muhri")* asari allomaga islom olamida eng katta şuhrat keltirgan. Unda u valiylik haqidagi ta'limotni tizimli bayon etgan. Asarda qöyilgan savollarga keyinçalik buyuk mutafakkir Ibn Arabiy javob yozgan. Tadqiqotçilar Hakim Termiziy ğoyalarining izini Imom Ğazzoliy, Ibn Arabiy kabi allomalar asarlarida kuzatadi.

Hakim Termiziyning ilmiy faoliyati faqat şar'iy ilmlar bilan çeklanmaydi. Balki alloma tilşunoslikka ham alohida e'tibor qaratgan. Uning bu sohada ta'lif etgan bir qança asarlari hanuzgaça yetib kelgan bölib, ulardan biri "Al-Furuq va man' at-taroduf" *("Farqlar va ma'nodoşlikning inkori")* asari hisoblanadi. Uşbu asarda Termiziy arab tilida mutlaq ma'nodoş sözlar yöqligini, har bir sözning öziga xos ma'no qirrasi borligini isbotlaşga harakat qilgan. Bu qaraş bugungi tilşunoslik uçun ham qiziqarli va çuqur tadqiq etişni taqozo qiladigan mavzulardandir.



Allomaning merosida alohida örin tutuvçi yana bir turkum – "masoil", ya'ni savol-javob şaklidagi risolalar. Turkumga "Yaşirin masalalar", Saraxs ahli savollariga javoblar, "Raydan yuborilgan xatlarga javob" va yana şu kabi bir qança risolalar kiradi. Ularning öziga xosligi şundaki, alloma savollarga javob berar ekan, tafsir, hadis, aqida, fiqh va tasavvufni bir butunlikka boğlaydi. Tadqiqot davomida bu turkumda jami 215 masala borligi aniqlandi. Bu IX asr odamini qanday savollar qiynagani, alloma ularga qanday javob bergani va uşbu davr, mintaqada ilmiy muhit darajasini baholaş imkonini beruvçi noyob hujjat, risolalardir.

Alloma asarlarining qölyozmalari bugun dunyoning yirik fondlarida – Parij, London, Leypsig, Istanbul, Anqara, Damaşq, Iskandariya, Qohira va Toşkentda saqlanadi. Ular XII asrdan boşlab turli xattotlar tomonidan köçirilgan. Bu geografiya allomaning merosi qaysi hududlarda öqilgani, örganilganini körsatadi. Şu bilan birga, bu tarqoqlik matnşunoslar oldiga katta vazifa qöyadi. Şu jumladan, işonçli matnni tiklaş uçun barça nusxalarni qiyoslab örganiş zarur. Qarorda qölyozmalarni örganiş, tiklaş va saqlaşga alohida band ajratilgani, şu nuqtayi nazardan, muhim zarurat hisoblanadi.

Özbekistonda alloma merosini örganiş mustaqillik yillarida yangi bosqiçga kötarildi. Ubaydulla Uvatov, Ibrohim Usmanov kabi termiziyşunos olimlarning tadqiqotlari, asarlarning özbek tiliga tarjimalari, Termizdagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining faoliyati bunga yorqin misoldir. 2016–2017-yillarda allomaning "Asarlar" töplami va "Yaşirin masalalar" risolasi özbek tilida naşr etildi. Amalga oşirilgan mazkur tarjimalardan söng özbek kitobxoni Hakim Termiziyni öz tilida öqiy oladigan böldi.

ALLOMA HIKMATLARIDAN UÇ SABOQ

Hakim Termiziy merosining qadri şundaki, uning savollari va javoblari ön bir asr ötib ham özining ma'naviy qiymatini yöqotmagan. Risolalaridan uçta misol keltiramiz.

Birinçisi ilm va taqvo haqida. Saraxs ahli allomadan söraydi: "Ilmi oz, lekin taqvodor kişi afzalmi yoki ilmi köp, ammo taqvosi yöq olimmi?" Alloma: "Taqvosi oz kişi olim emas", deya javob beradi. U olimlarni uç toifaga ajratadi: eng komili – ham Allohni taniydigan, ham uning hukmlarini biladigan olim. Hukmni bilib, Allohni tanimagan kişining ilmi esa uni kibr va mansabparastlik orqali kuydiradi. Bu saboq har qanday kasb egasi hamda jamiyatning turli böğinlarida xizmat qilayotgan soha mutaxassis kişilari uçun dolzarbdir. Bilim axloq bilan birlaşmasa, egasiga yukka aylanadi.

Ikkinçisi mol-dunyo haqida. Alloma har bir ne'mat yuzasidan inson uç savolga javob berişini aytadi: Qayerdan? Qayerga? Nima uçun? Maşhur hadisda moldan ikki narsa – qayerdan topgani va nimaga sarflagani söralişi aytilgan. Hakim Termiziy bunga uçinçisini – niyat savolini qöşib, halollik faqat topiş va sarflaş yölida emas, niyatda ham bölişi kerakligiga işora qiladi.

Uçinçisi adab haqida. Alloma adabni şunday ta'riflaydi: "Alloh insonga bergan har bir quvvatni – ğazabni ham, mehrni ham – Özi belgilagan örinda va me'yorda işlatişdir", deydi. Bu ta'rif intizom, özini tuta biliş va mas'uliyat haqidagi eng aniq ta'riflardan biri bölib, insonni kuçi emas, kuçini öz örnida işlata olişi uni gözal axloq sohibiga aylantirişini bildiradi.

Fathiddin MUHAMMADJONOV,
Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Şarqşunoslik instituti tayanç doktoranti

ENG GÖZAL TUHFA — kitob

Suhbatimiz ötgan kunlar, ya'ni mustaqillikning ilk yillarida milliy armiyamizning barpo etilişi töğrisida boradi, deb aniq işongan edim. Çunki "Vatanparvar"ning galdagi mehmoni Faxriylar işlari böyiça Toşkent şahri kengaşi raisi iste'fodagi polkovnik Gulmurod Xuşvaqov aynan öşa murakkab davrlarda xizmat qilgan. Milliy armiyamiz barpo etilişida uçragan qiyinçiliklar, yutuqlar, izçil islohotlar, bugungi Qurolli Kuçlarimiz haqida gapirişga ma'naviy haqqi bölgan insonlardan biri. Bunday insonlar bilan suhbat ham öz-özidan ötgan kunlar haqida borişi tabiiy, aslida. Biroq...

– Eng gözal ayollar işlaydigan joyni qidirib keldim. Şu xonani körsatişdi (uç kun avval tahririyatga kelişlarini iltimos qilib, körişişga kelişganimizni aytmay qöya qolay), – deb tabassum bilan kirib keldi köksini qator nişonlar bezab turgan faxriy Gulmurod Xuşvaqov. – Quruq kelganim yöq, sovğa bilan keldim.

Şunday deb har birimizga bittadan kitob tuhfa qildi. Qiziq tomoni, ançadan beri şoira Hafiza Egamberdiyevaning ijodi bilan tanişmoqçi bölib yurgandim. Katta avlodga mansubligim tufayli bölsa kerak, menga an'anaviy kitobxonlik ma'qul. Sovğa esa aynan uning "Tomçilar tavallosi" deb nomlangan saylanmasi ekan. Sovğadan sevindim.

– Qayerga taklif qilsalar, quruq qöl bilan bormayman. Öquvçilar, talabalar huziriga borganimda sovğa uçun kitoblar olaman özim bilan. Özimning beş mingdan ziyod kitob fondiga ega şaxsiy kutubxonam bor. Mingdan ziyodini kitobsevar insonlarga tarqatdim, hadya qildim. Eng yaxşi sovğa – kitob! Bir kuni qiziq voqea böldi. Harbiy qasamyod qabul qiliş tantanasida mehmon edik. Navbati bilan Vatan himoyaçilarini qutladik. Qutlaş navbati menga kelganida qölimdagi kitob haqida gapirdim. Vatan, sevgi madh etilgan, yurakni tölqinlantiradigan şe'rlar borligini aytib, bu kitob qayta-qayta öqişga arziydi, deb mendan avval söz olgan mehmon ayolga sovğa qildim. Kulganiga sovğamdan xursand böldi deb öylabman. Bir neça marta rahmat aytdi-da. Keyin eşitsam, kitob muallifi uning özi ekan. Şoiraning kitobini öziga sovğa qilibman.











BOLALAR HUZURIDA

– Bolalar bilan uçraşuvlarga heç qaçon rad javobi bergan emasman. Ularning savollari ham samimiy. Inson ma'lum bir yoşga borganida nasihatgöyroq bölib qolar ekan. Poytaxtdagi maktablarning birida, menimça 192-umumta'lim maktabi edi, öquvçilarga hamma narsaning kaliti bilim ekani, yaxşi öqigan inson, albatta, közlagan marrasiga yetişi haqida gapirdim. Ikki yuzdan ziyod öquvçi orasida jimitdaygina bir bola savol berdi: "Doda, özingiz maktabda qanday baholar olgansiz?" "Men maktabni oltin medalga, harbiy bilim yurtini, Sankt-Peterburg harbiy akademiyasini imtiyozli diplomga bitirganman!"

Negadir bu gapimga uning yonidagi örtoği işonmadi. Ikkisi nimanidir piçirlaşdi, söng yana söradi: "Doda, oltin medalingizni körsata olasizmi?" "Hozir yöq, keyingi safar albatta olib kelib körsataman", dedim. Bolalarning xotirasi yaxşi böladi, ularga va'da bersangiz, unutmaydilar. Yana şu maktab tadbiriga taklif qilindim. Özim bilan attestatimni oldim. Va öşa bolaga hammaning köz öngida körsatdim. Bola kiçkina bölsa ham, dadil ekan, örtaga çiqdi-da, "Doda, hammaning oldida söz beraman, men ham xuddi sizdek maktabni oltin medal bilan bitiraman!" Gulduros olqişlar yangradi. Bu olqişlar menga emas, yurtning ertasi bölgan şu kiçkintoyga atalgan edi!

KITOB – MÖ'JIZA

– Kitoblar haqida yaxşi gaplar juda köp. Men esa kitobni ota-onangdan keyingi döst deb bilaman. Boşqalarni ham mutolaaga tarğib qilaman, şaxsiy kutubxona yaratişga da'vat qilaman. Mudofaa işlari boşqarmasida xizmat qilgan ofitser Sergey Yermolayevni köpdan taniyman. Yaxşi yigit, kasbini sevadi, sidqidildan xizmat qiladi. Şu inson insult bölib qoldi. Yarim falaj holat. Kuç-ğayratga töla erkak bu dardni qabul qilişi qiyin. "Endi nima qilaman?" degan oğir savol qarşisida qoladi. Unga kitob öqişni maslahat berdim. Kutubxonamdan uç-törtta kitobni berib yubordim. Keyin yana, yana... Tuzalib ketdi, körmagandek darddan foriğ böldi. Kitobdan minnatdor. Hozir kutubxonamdan kitoblarni özi sörab oladi. Şunday ekan, kitob möjiza bölmay nima?!

SALBI ONANING ÖGITI

– Har bir inson hayotida onaning örni beqiyos. Onam Salbi momoning bolaligi, yoşligi uruş yillariga töğri kelgan. Maktab körmagani armoni edi. Katta oilaning tönğiçi edim. U meni ilk marta maktabga kuzatar ekan, şunday dedi: "Gulmurod, bolam, men öqişni juda istasam-da, maktab körmadim, nasib etmadi. Sen ikki kişi uçun öqi! Men va özing uçun!" Bu ögitni heç qaçon unutmadim va amal qildim. Eng muhimi, kam bölmadim. Samarqand viloyatining Pastdarğom tumanidagi 27-maktabda öqiganman.

HAYOT TAMOYILIM

– Yoşlarga deyarim: birinçi bölişga intiling. Va jasoratli böling! Qörqoqlar yutqazadi. Qörqmasdan, dadil iş boşlang, natijasi köp kuttirmaydi.

Umrim davomida ana şu tamoyilga amal qildim. Va mana, men qarşingizdaman.

BOLAJONLIK

– Biz, özbeklar bolajon xalqmiz. Bolamiz uçun özimizni ötga-çöğga uramiz. Ança yillar muqaddam, Mongoliyada bölganimizda kuçli toşqinlar yuz bergan. Tiyiqsiz kuç bilan oqayotgan suv ayol bilan ikki bolasini oqizib keta boşladi. Oila erkagi özini ayoliga qarab otdi va uni qutqardi. Ikki bola... oqyapti. Otaning xatti-harakati meni sarosimaga solganiga qaramay, özimni pişqirib oqayotgan suvga otib, ikki bolani ham qutqardim. Safdoşlarim orasida suzişda menga teng keladigani yöq edi, sport ustasi edim. Şuning uçun qörqmasdan suvga sakradim. Meni esankiratgani boşqa narsa. Ota nega avval farzandlarini emas, xotinini qutqardi? Xotiniga qarab yugurdi? Men bölganimda nima qilgan bölar edim?

Hamma biroz hovuridan tuşgaç, undan söradim: "Nega? Nega birinçi bolalaring emas, xotiningni tanlading?

Javobdan battar lol qoldim: "Xotinim tirik qolsa, yana farzand körişimiz mumkin..."

Ehtimol, u haqdir. Biroq bu haqiqatni qabul qiliş qiyin, ayniqsa, özbek bölsangiz.

KEÇA VA BUGUN

– Öttiz sakkiz yil harbiy xizmatda böldim. Köp narsalarni kördim. Şöro armiyasida kamsitişlar, bepisandlik... Aslida heç kimdan kam emasdik, ilm bobida hatto ustunroq ham edik. 1992-yilning bahorida milliy armiyamizda xizmatni boşladim. Oson bölmadi. Bu bizning öz armiyamiz edi, endigina mustaqillikni qölga kiritgan yurtimiz armiyasi. Uning barça taşvişlariga yelka tutişimiz, maşaqqatlarni yengib ötişimiz şart edi.

2010-yili iste'foga çiqdim. Tadbirkorlik bilan şuğullanaman. Bir joyda turib qolgim kelmaydi. Harakat qiliş kerak. Ba'zan Vatan himoyaçilari bilan harbiy qismlarda ötadigan uçraşuvlarda iştirok etaman. Ular yaşaş, xizmat qiliş şaroitlari bilan taniştiradilar. Şunda içimdagi keksa jangçining istagi tilimga köçadi: "Qani edi, hozir men ham navqiron saflaringizda bölsam..."

***

Keksa jangçi... Aslida Siz hamon safdasiz. Ibratli hayotingiz, sidqidildan qilgan xizmatlaringiz, yoşlarni vatanparvarlik ruhida tarbiya qilişda qöşayotgan hissangiz – bular sizning hamon milliy armiyamiz saflarida ekaningizni anglatadi.

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"







BIR QIZIQIŞ, BIR IZLANIŞ

Bugungi şiddatli zamon faqatgina sinfxonada olingan nazariy bilimlar bilan çeklanib qolmasdan, darsdan taşqari jarayonlarda ham tinimsiz izlanişni, amaliy könikmalarni puxta egallaşni talab etmoqda. Mana şunday "ta'limdan taşqari ta'lim" maskanlari qatorida tögaraklar yoşlarning iqtidorini yuzaga çiqariş, ularda mustaqil fikrlaş va liderlik könikmalarini şakllantirişda muhim köprik vazifasini bajaradi.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida bugungi kunda ana şunday zavq-şavqqa töla **43 ta tögarak** faoliyat yuritadi. Vatanparvarlikdan tortib sun'iy intellekt, xorijiy tillar, robototexnika, sport, kibersport va ixtiroçilikkaça bölgan turfa yönalişlar yoşlarning qanotiga aylanmoqda. Bir xonada kursantlar tarix bilan yuzlaşsa, boşqasida yoşlar dronlarni osmonga kötariş sirlarini egallamoqda. Kimdir öz qöli bilan yasagan ilk noyob qurilmasini sinovdan ötkazsa, Madaniyat markazida harbiy orkestrning orombaxş kuylari yangrab turibdi.

Har bir maşğulot özgaça va qiziqarli bölib, ularning barçasini bitta muştarak tuyğu – vaqtni şunçaki ötkaziş emas, tinimsiz izlaniş va öz ustida işlaş istagi birlaştiradi. Keling, ana şu tögarak taassurotlarini siz bilan örtoqlaşsak.

TARIXGA QIZIQQAN KURSANTLAR

Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasidagi tögaraklarga kirsangiz, qiziqarli suhbatlarga guvoh bölasiz. "Jadid izdoşlari" tögaragida jadid bobolarimiz hayoti va faoliyati örganiladi. "Tarix va milliy harbiy meros"da ajdodlarimizning harbiy san'ati, janglardagi jasorati haqida gaplaşiladi. "Zakovat"da esa kursantlar bir-biri bilan savol-javob qilib, mantiqiy savollarga javob izlaydi. Kursant Odilbek Muhammadov "Tarix va milliy harbiy meros" tögaragiga qatnaşadi.

– Bu yerda faqat tarixni örganmaymiz, balki ajdodlarimiz taktikasini bugungi zamonaviy vaziyatlar bilan soliştiramiz. Masalan, "Temur tuzuklari"dagi harbiy intizom va boşqaruv tartibini örganiş bizga bölajak komandir sifatida qaror qabul qiliş mas'uliyatini tuşunişga yordam beradi, – deydi u. Bu kafedrada yana "Yoş harbiy huquqşunoslar", "Falsafa va tafakkur", "Yoş tahlilçilar", "Vatanparvar" kabi tögaraklar ham bor. Ularda kursantlar huquqiy savollarga javob izlaydi, turli mavzularda fikr almaşadi. Bunday maşğulotlar yoşlarning öz fikrini erkin aytişiga ham yordam beradi.

DRON BOŞQARIŞNI HAM ÖRGANIŞ KERAK

Endi Istiqbolli harbiy texnologiyalar kafedrasiga ötamiz. Bu yerda muhit boşqaça. Kompyuterlar, elektron qurilmalar, dronlar... Kursantlar dasturlaş, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektni örganiş bilan band. "Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt" tögaragi rahbari, pedagogika fanlari doktori, dotsent Salohiddin Bobojonovning aytişiça, maşğulotlarda kursantlar faqat nazariya bilan çeklanmaydi. Örganganlarini darhol amalda sinab köradi.

– *Zamonaviy ofitser texnologiya bilan işlay olişi va uni xizmatda qöllaşni bilişi kerak. Şuning uçun kursantlarga IT va sun'iy intellekt böyiça amaliy bilim berişga harakat qilyapmiz. Maşğulotlar Pythonacademy.uz platformasi orqali gibrid şaklda olib boriladi, – deydi tögarak rahbari.*

Kursant Abubakr Abdurahmonov ham bu tögarakka avvaldan qiziqib keladi.

– Birinçi kelganimda dasturlaş va algoritmlar juda qiyin tuyulgan. Hozir esa köp narsani örgandim. Mantiqiy masalalarni yeçiş, IT vositalari bilan işlaş, dronlarni boşqarişni özlaştirdim. Jamoat xavfsizligi universitetida oliy harbiy ta'lim muassasalari örtasida ötkazilgan musobaqada dron yönalişida iştirok etdim. Bu men uçun katta tajriba böldi, – deydi u.

Avvaliga qiyin tuyulgan maşğulot bugun uning qiziqişiga aylangan. Nazarimda, tögaraklarning yaxşi tomoni ham şunda. Inson avval bilmagan narsasini örganadi, keyin esa uni yanada çuqurroq özlaştirişga harakat qiladi.

KITOBDA ÖQIGANINI ÖZ QÖLI BILAN YASAYAPTI

Umumtexnik va tabiiy fanlar kafedrasidagi **"Yoş tadqiqotçi"** tögaragida ham kursantlar bekor ötirişgani yöq. Bu yerda fizika va elektrotexnika böyiça olgan bilimlarini amalda sinab köradi. Kafedra öqituvçisi, texnika fanlari nomzodi, dotsent Şerozi Msirov rahbarligida tokning magnit maydoni induksiyasini örganiş uçun laboratoriya qurilmasi yaratilmoqda.

– *Bu qurilma kursantlarga nazariyada örganganlarini amalda köriş imkonini beradi. Ular faqat tayyor narsani örganib qolmay, özlari ham tajriba ötkazadi,* – deydi Şerozi Msirov.

Kursant Manguberdi Çoriyev ham bu işga qiziqiş bilan qatnaşmoqda.

– *Kitobdan öqigan narsangizni öz qölingiz bilan yasagan qurilmada köriş boşqaça ekan. Laboratoriyada har bir milliamper va voltning ahamiyatini amalda tuşunamiz,* – deydi u.

Ba'zan biror narsani kitobdan öqib tuşuniş qiyin böladi. Uni öz qöling bilan yasab, işlatib körsang esa boşqaça. Kursantlar bu yerda ana şu tajribani orttirişyapti.

SAKSOFON ÇALAYOTGAN KURSANT

Universitetdagi har bir tögarak texnika yoki tarix bilan boğliq emas. Harbiy orkestr tögaragi ham bor. Bu yerda kursantlar musiqa asboblarini çalişni örganmoqda. Harbiy orkestr tögaragi ilk bor taşkil etilgan. Orkestr boşliği mayor Maqsud Rayimovning niyati esa har bir kursant kamida bitta çolğu asbobini çalişni bilişga erişiş.

– *Maqsadimiz faqat musiqa örgatiş emas. Kursantlar qalbida gözallik va ezgulik tuyğularini ham tarbiyalaşni istaymiz. Musiqa insonni sabrli qiladi, ruhiyatini boyitadi,* – deydi u. Kursant Şerzod Norboyev bir neça oy avval birinçi marta saksofon uşlagan. Hozir esa musiqa çalişni örganyapti.

– *Böş vaqtimda musiqa tögaragiga kelaman. Özim yoqtirgan kuylarni çalişga harakat qilaman. Bu maşğulotlar menga juda yoqadi. Musiqa boşqalar bilan birgalikda harakat qilişni, bir-birini tinglaşni ham örgatadi,* – deydi u.

Harbiy ta'limda musiqaning ham örni borligi qiziq. Çunki ofitser ham avvalo inson. Uning dunyoqaraşi, didi va ma'naviy olami ham boy bölişi kerak.

BOŞQA DAVLATLAR TAJRIBASI HAM ÖRGANILMOQDA

Universitetda tögaraklarni taşkil etişda xorijiy tajribalarga ham e'tibor qaratilgan. Öquv va uslubiy işlarni muvofiqlaştiriş bölimi boşliği podpolkovnik Ibrohim Hamdamovning aytişiça, Turkiya Respublikasi Milliy mudofaa universiteti tajribasi ham örganilgan.

– *Turkiya harbiy ta'lim tizimida kursantlarni har tomonlama tayyorlaşga katta e'tibor beriladi. Ularda kursantlar kamida 25 ta fan, badiiy va sport klublariga jalb etiladi. Bitiruvçilar harbiy bilim bilan birga fuqarolik ta'limi, çet tili, sport, paraşyutçilik, dron operatorligi kabi yönalişlarda ham malaka oladi. Biz ham bu tajribani örganib, öz şaroitimizga moslaştirdik,* – deydi u.

Hozirda universitet respublikamizning 12 ta oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik memorandumlarini imzolagan. Bu orqali talabalar va kursantlar bir-biri bilan tajriba almaşişi, birgalikda maşğulotlar ötkazişi, laboratoriyalardan foydalanişi mumkin. Hamkorlik va maşğulotlar natijasi musobaqalarda ham körinmoqda. 28–31-oktabr kunlari Samarqand şahrida "Usmonov Kombat Systems" sport turi böyiça Osiyo çempionati bölib ötdi. Unda beşta davlatdan 600 dan ortiq sportçi qatnaşdi. Universitet terma jamoasi 19 ta oltin, 6 ta kumuş va 3 ta bronza medalini qölga kiritib, umumjamoa hisobida birinçi örinni egalladi.

30–31-oktabr kunlari Jamoat xavfsizligi universitetida oliy harbiy va harbiylaştirilgan ta'lim muassasalari kursantlari örtasida texnologik va harbiy sport öyinlari böyiça spartakiada ötkazildi. Kursantlar "Dron Racing", "Dron Soccer", "Kiberxavfsizlik" va "Kibersport" yönalişlarida bellaşdi.

ENG MUHIMI, YOŞLAR IZLANYAPTI

Universitetdagi tögaraklar haqida ma'lumot töplar ekanman, bir narsaga e'tibor berdim: kursantlarning qiziqişlari bir xil emas. Kimdir tarixni yaxşi köradi, kimdir texnikaga qiziqadi. Biri musiqa bilan şuğullansa, boşqasi sportda özini sinab köradi. Muhimi, ularning har biriga öz qiziqişi bilan şuğullaniş imkoniyati berilgan.

Bugun dron boşqarişni örganayotgan kursant ertaga bu bilimidan xizmatda foydalanişi mumkin. Laboratoriyada qurilma yasayotgan yoş esa kelajakda yangi ixtirolarga qöl urişi ehtimol. Tarixni örganayotgan kursant ajdodlarimiz merosini çuqurroq anglaydi. Menimça, tögaraklarning eng katta yutuği ham şu. Yoşlar özini sinab köradi, nimagadir qiziqib qoladi, örganadi va izlanadi. Axir yaxşi ofitser böliş uçun faqat harbiy bilimning özi yetarli emas. Keng dunyoqaraş, mustaqil fikr va doimiy izlaniş ham kerak. Bugun tögaraklarda örganilayotgan narsalar ertaga ularning hayoti va xizmatida asqatişi şubhasiz.

Şohista ABDURAHMONOVA
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti



SARHADLAR MUHOFAZASIDA MUSTAHKAM HAMKORLIK

Hamkorlikdagi taktik-öquv maşğulotlari davlat xavfsizligini va çegaramiz daxlsizligini ta'minlaşning muhim omilidir

Bugungi global geosiyosiy özgarişlar, dunyodagi murakkab jarayonlar va mintaqaviy tahdidlar şaroitida davlat çegaralarining daxlsizligini ta'minlaş hamda milliy xavfsizlikni mustahkamlaş har qaçongidan ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuçlar Oliy Boş Qömondoni Şavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: *"Biz uçun eng muqaddas vazifa – bu yurtimiz tinçligini köz qoraçiğidek asraş, Qurolli Kuçlarimizning jangovar şayligi va salohiyatini zamon talablari darajasiga kötarişdir".* Davlatimiz rahbari tomonidan milliy armiyamizni modernizatsiya qiliş, kuç tuzilmalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlaş va harbiy xizmatçilarning professional mahoratini oşirişga qaratilayotgan yuksak e'tibor bugun öz mevalarini bermoqda. Jonajon Vatanimiz tinçligining boş kafolati bölgan Qurolli Kuçlarimiz hamda kuç tuzilmalari har qanday tahdidga qarşi munosib zarba berişga hamişa şay. Yaqinda Respublikamizning janubiy sarhadlarida Davlat xavfsizlik xizmati Çegara qöşinlari va hamkorlikdagi kuç tuzilmalari iştirokida ötkazilgan navbatdagi qömondonlik-ştab öquv maşğulotlari buning yaqqol isboti böldi.

Öquv maşğulotlari davomida jangovar xizmat faoliyatiga rahbarlik qiliş vazifalarni muvaffaqiyatli bajariş maqsadida, birinçi navbatda, hamkorlikdagi kuç tuzilmalarining boşqaruvştabi tuzildi. Ştab tomonidan davlat çegarasida yuzaga kelişi mumkin bölgan ehtimoliy vaziyatlar çuqur tahlil qilinib, şartli duşmanning maqsadi va harakatlar ğoyasi aniqlandi. Jangovar şaylikni yuqori bosqiçga kötariş, şartli duşman guruhlarini tezkorlik bilan yöq qiliş va zararsizlantiriş maqsadida puxta işlangan jangovar harakatlar rejalari işlab çiqildi.

Maşğulotlarning eng kulminatsion nuqtasi – Davlat çegarasini buzib kirişga uringan öquv duşman guruhini qurşovga oliş va qölga oliş böyiça çegara operatsiyasi ötkazildi. Bunda belgilangan hududga Oliy Boş Qömondonimiz rahnamoligida qöşinlarimiz arsenaliga izçil kiritilayotgan barça turdagi zamonaviy harbiy texnikalar, uçuvçisiz havo apparatlari *(dronlar)*, oğir zirhli maşinalar va maxsus kuç-vositalar zudlik bilan jalb etildi. Kuç tuzilmalarining özaro uyğunlikdagi harakati va birdek zarba beriş quvvati natijasida şartli duşman manevr qiliş imkoniyatidan butunlay mahrum etildi va qisqa fursatda zararsizlantirilib, qölga olindi. Bu holat bölinmalarning real jangovar vaziyatlarda heç qanday talafot-u xatolarsiz harakat qila olişini namoyiş etdi.

Maşğulotlar davomida zamonaviy harbiy texnologiyalar va innovatsion yondaşuvlardan keng foydalanildi. Xususan, yuzaga kelgan tahdidlarni bartaraf etiş böyiça qabul qilingan qarorlarga asosan, bölinmalar örtasida uzluksiz va tezkor aloqani ta'minlaş maqsadida mobil aloqa markazining imkoniyatlari muvaffaqiyatli sinovdan ötkazildi. Mazkur öquvning ahamiyati va harbiy-siyosiy maqsadlari haqida tadbir iştirokçisi, DXX Çegara qöşinlari mas'ul ofitseri podpolkovnik Aziz Saidov şunday deydi:

– *"Qömondonlik-ştab öquvlari doirasida davlat çegarasini qöriqlaş va himoya qilişning yagona tizim subyektlari bilan yaqin hamkorlikda çegara operatsiyasi ötkazildi. Bunda asosiy e'tibor, jalb etilgan birlaşma va qöşilmalar boşqaruv organlarining birgalikdagi iş samaradorligini oşiriş, kuç va vositalarni har qanday şaroitda uzluksiz hamda markazlaşgan holda boşqarişni takomillaştirişga qaratildi. Fursatdan foydalanib, biz – harbiy xizmatçilar, Vatanimiz sarhadlarini sergaklik bilan qöriqlaş uçun yaratib berilgan zamonaviy şaroitlar, yuksak e'tibor va ğamxörlik uçun Muhtaram Prezidentimiz, Qurolli Kuçlarimiz Oliy Boş Qömondoniga çeksiz minnatdorligimizni bildiramiz. Bizga bildirilgan uşbu yuksak işonçni oqlaş, yurtimiz tinçligi va çegaralarimiz daxlsizligini ta'minlaş yölida bor kuç-ğayratimiz va şijoatimizni safarbar etişga hamişa tayyormiz!"*

Ta'kidlaş joizki, sönggi yillarda Oliy Boş Qömondonimiz taşabbusi bilan harbiy sohadagi islohotlar mutlaqo yangi bosqiçga kötarildi. Ayniqsa, turli kuç tuzilmalarining tarqoq holda emas, balki yagona maqsad yölida, özaro mustahkam hamkorlikda harakat qilişi davr talabi sifatida kun tartibiga qöyildi. Sönggi yillarda ötkazilayotgan bu kabi qömondonlik-ştab va taktik maşğulotlarning boş xususiyati ham aynan amaliy yönalişga ega ekanligidadir. Endilikda harbiy nazariya faqat qoğozda emas, balki real vaziyatga maksimal darajada yaqinlaştirilgan dala-öquv maydonlarida, zamonaviy texnologiyalarni qöllagan holda sinovdan ötkazilmoqda. Kuç tuzilmalarining hamkorlikdagi jangovar algoritmlari tubdan takomillaştirilib, favqulodda vaziyatlarda boşqaruv organlarining tezkor va uyğunlikda qaror qabul qiliş könikmalari tizimli ravişda oşirib borilmoqda. Oliy Boş Qömondonimiz tomonidan harbiy kuçlarning jangovar salohiyatini oşiriş va amaliy maşqlar sonini köpaytiriş böyiça belgilab berilgan vazifalari bugun Çegara qöşinlarida ötkazilayotgan xalqaro va içki amaliy tadbirlarda öz isbotini topmoqda.

Harbiy strategiyaning eng muhim yönalişlaridan biri – bu favqulodda vaziyatlarda tinç aholi xavfsizligini ta'minlaş. Uşbu öquv rejasiga köra ham çegaraoldi hududlarida istiqomat qiluvçi aholi vakillarining xavfsizligini tubdan ta'minlaş, ularni muhofaza qiliş çora-tadbirlari alohida nazoratga olindi.

Bu Oliy Boş Qömondonimiz tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uçun" tamoyilining harbiy sohadagi yana bir amaliy ifodasidir. Öquv maşğulotlari yakunida erişilgan yutuqlar va yöl qöyilgan kamçiliklar harbiy mutaxassislar tomonidan atrofliça sarhisob qilindi. Bildirilgan taklif va tavsiyalar kelgusidagi jangovar öquv rejalarini yanada mukammal va real vaziyatga yaqinlaştirilgan holda işlab çiqiş uçun asos bölib xizmat qiladigan böldi.

Xulosa örnida aytiş mumkin, yurt farovonligi va sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlaş yöli barça kuç tuzilmalarini yagona va muqaddas bir maqsad sari birlaştiradi. Prezidentimiz rahnamoligida şakllangan qudratli milliy armiyamiz saflarida xizmat qilayotgan har bir Vatan himoyaçisi uçun sarhadlarimiz xavfsizligi – eng oliy mas'uliyat va şarafdir!

Kapitan Erkin YODGOROV
DXX Çegara qöşinlari





JAMIYAT KIMNIKI?

yoxud barçamiz mas’ul bölgan katta uy haqida

Ba’zan köçada ketayotib, yölakka taşlab ketilgan axlatga közimiz tuşadi. Afsus, köp hollarda kimdir bunga e’tibor bermaydi, yana kimdir indamay çetlab ötadi. Ayrimlar esa: Bu “Obodonlaştiriş”ning vazifasi, deb iyagini qaşlagan böladi. Balki bu fikrda jon bordir. Ammo bir savol: özimiz yaşayotgan muhitga befarq bölsak, undan qanday qilib ozodalik va tartib kutişimiz mumkin? Menimça, jamiyatdagi köplab muammolar aynan şu befarqlikdan boşlanadi. Biz köpinça yaxşi jamiyatni xohlaymiz, adolatli munosabat, toza köçalar, sifatli ta’lim, halol mehnat va insoniylik haqida gapiramiz. Lekin şu qadriyatlarning qaror topişida özimizning ham hissamiz borligini har doim ham öylab körmaymiz. Xöş, jamiyat kimniki? Faqat davlatnikimi, rahbarlarnikimi yoki unda yaşayotgan har bir insonnikimi? Inson jamiyatdan taşqarida yaşay olmaydi. Bu savolga javob izlaş uçun uzoq tarixga murojaat qiliş şart emas.

Şarq mutafakkirlari asrlar avval inson va jamiyat örtasidagi munosabat haqida çuqur fikr yuritgan. Abu Nasr Forobiy özining “Fozil odamlar şahri” asarida insonning kamolotga yetişişi boşqalar bilan hamkorlikda yaşaşi bilan boğliqligini ta’kidlaydi. Uning fikriça, inson yolğiz holda barça ehtiyojlarini qondira olmaydi. Şu sababli odamlar birlaşadi, bir-biriga yordam beradi va umumiy maqsadlar sari intiladi. Bu qaraş bugun ham öz ahamiyatini yöqotmagan. Masalan, bir mahallada yaşayotgan insonlar özaro hurmat va hamjihatlikni saqlamasa, u yerda tinç va farovon muhitni şakllantiriş qiyin. Demak, jamiyatning taraqqiyoti faqat katta islohotlarga emas, odamlarning kundalik munosabatlariga ham boğliq.

Sa’diy Şeroziy esa bu masalaga falsafiy mulohazadan köra köproq insoniy tuyğular orqali yondaşadi. Uning maşhur “Bani Odam” şe’rida insoniyat bir butun tana sifatida tasvirlanadi. Bir a’zodagi oğriq butun tanaga ta’sir qilgani kabi, bir insonning dardi ham boşqalarga begona bölmasligi kerak. Uşbu ikki mutafakkirning qaraşlarini bir-biriga qiyoslasak, muhim bir jihatni köramiz: Forobiy hamkorlikni, Sa’diy esa insoniy hamdardlikni alohida qadrlaydi. Ularning fikrlari turliça ifodalangan bölsa-da, insonning jamiyat oldidagi örnini anglaşga yordam beradi.

Ma’rifatli bölişning özi yetarlimi?

Bir narsani tan oliş kerak: bilimli inson har doim ham mas’uliyatli bölavermaydi. Inson köp narsani bilişi, turli sohalarda yutuqlarga erişişi mumkin. Ammo bu bilim uning muomalasida, qarorlarida va boşqalarga munosabatida aks etmasa, uning ijtimoiy ahamiyati haqida savol tuğiladi. Masalan, ekologiya haqida köp gapiradigan, ammo çiqindisini duç kelgan joyga taşlaydigan insonni olaylik. U muammoni biladi, uning oqibatlarini ham tuşunadi. Lekin bilim xulq-atvorga aylanmagan. Demak, ma’rifat faqat ma’lumotga ega böliş emas, balki bilgan narsasiga muvofiq yaşaşni ham anglatadi. Menimça, haqiqiy ma’rifat insonni, avvalo, özига savol berişga örgatadi: qilayotgan işim kimlargadir zarar yetkazmayaptimi? Mening bugungi qarorim ertangi kun uçun qanday naf keltiradi? Boşqalarning huquqi va manfaatini hisobga olyapmanmi? Ana şu savollar insonda mas’uliyat hissini şakllantiradi. Çunki mas’uliyat faqat kimdir nazorat qilayotganida tartibga rioya qiliş emas. U heç kim körmayotgan paytda ham töğri işni tanlay olişdir.

Bugungi mas’uliyat: yangi muammolar, eski qadriyatlar

Zamon şiddat bilan özgarib bormoqda, şuningdek inson hayotining mazmuni va imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Endilikda ijtimoiy mas’uliyat faqat oilada, mahallada yoki iş joyida özini namoyon qilmaydi. Masalan, ekologik mas’uliyat – tabiatga zarar yetkazmaslik, suv va energiyani tejaş, atrof-muhitni asraşdan boşlanadi. Raqamli mas’uliyat esa internetda tarqatayotgan ma’lumotimizga e’tiborli böliş, tekşirilmagan xabarlarni ulaşmaslik, boşqalarning şa’ni va huquqlarini hurmat qilişni talab etadi. Kasbiy mas’uliyat ham jamiyat taraqqiyotida muhim örin tutadi. Öz işiga vijdonan yondaşgan öqituvçi, şifokor, muhandis yoki boşqa kasb egasi faqat öz vazifasini bajarmaydi, balki jamiyat hayotiga ham ta’sir körsatadi. Bu örinda bir jihatga e’tibor qaratiş lozim: ijtimoiy mas’uliyatni faqat ayrim kasb egalari yoki rahbarlarning zimmasiga yuklab bölmaydi. Çunki har bir inson öz örnida muayyan ta’sir kuçiga ega. Kimdir farzand tarbiyasi bilan, kimdir halol mehnati bilan, yana kimdir atrofdagilarga körsatgan yordami bilan jamiyatga hissa qöşadi.

Odami ersang, demagil odami,
Onikim yöq xalq ğamidin ğami

Alişer Navoiy

Jamiyatni özgartiriş özimizdan boşlanadimi?

Köpinça jamiyatdagi muammolar haqida gap ketganda, avvalo, boşqalardan özgarişni kutamiz. Kimdir tartib örnatişini, kimdir muammoni hal qilişini, kimdir taşabbus körsatişini istaymiz. Ammo özimizning kiçik imkoniyatlarimizni işga soliş haqida kamroq öylaymiz. Holbuki, jamiyat hayotidagi özgarişlar hamişa katta voqealardan boşlanmaydi. Ba’zan bir insonning halol qarori, bir öquvçining taşabbusi, bir qöşnining yordami yoki bir oiladagi yaxşi tarbiya ham muayyan ijobiy özgarişga sabab bölişi mumkin. Albatta, bitta inson butun jamiyatdagi muammolarni hal qila olmaydi. Buni kutiş ham töğri emas. Lekin har kim öz mas’uliyatini his qilsa, umumiy muammolarni hal etiş uçun mustahkam zamin yaratiladi. Şu örinda yana bir savol tuğiladi: biz farzandlarimizga faqat yaxşi yaşaşni örgatyapmizmi yoki yaxşi jamiyat qurişda iştirok etişni ham örgatyapmizmi? Zero mas’uliyat hissi faqat nasihat bilan şakllanmaydi. U oilada, ta’lim muassasasida va kundalik hayotdagi şaxsiy namuna orqali qaror topadi.

Maqola davomida bir savolga qayta-qayta murojaat qildik: jamiyat kimniki? Endi bu savolga javob beriş qiyin emasdek tuyuladi. Jamiyat – unda yaşayotgan, uning buguni va ertangi kuniga öz xatti-harakati bilan ta’sir körsatayotgan barça insonlarniki. Meniki, sizniki, ularniki! Şuning uçun ham ijtimoiy mas’uliyatni faqat qonun yoki majburiyat doirasida tuşunmaslik kerak. U insonning vijdoni, ma’rifati va boşqalarga bölgan munosabatida namoyon böladi. Navoiy bobomizning xalq ğamini öylaş haqidagi hikmati bugun ham bizni befarq bölmaslikka çaqiradi. Zero yaxşi jamiyatni faqat orzu qilişning özi kifoya emas. Uni şakllantirişda har birimizning hissamiz bor. Balki, bugun özimizdan şunçaki bir savol söraşimiz kerakdir: men yaşayotgan jamiyatning yaxşilanişi uçun bugun nima qildim? Bu savolga berilgan samimiy javob, ehtimol, katta özgarişlarning ilk qadami bölar.

Polkovnik
Akromjon ŞOHAKIMOV,
HXMU kafedra boşliği,
f.f.f.d., dotsent





Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan çekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan,
Ön töqqiz yoşida beva qoldi u...

“NAHOT IŞQ QISMATI BUNÇA BERAHM...”

Yuraklarni larzaga keltiruvçi, manfur uruşning oğir asoratlarini oçib bergan bu şe’rni yaxşi eslaysiz. Qahramon şoirimiz Abdulla Oripov qalamiga mansub bu aş’orni heç kim befarq öqiy olmaydi. Çunki yurtimizda mudhiş uruş oqibatlari kirib bormagan birorta xonadon topilişi amrimahol.

Yurakka yaqin şe’r öz-özidan yozilmaydi. Yurtimizda bunday qahramon jangçilarning bevasi juda köp bölgan. Bu şe’r Qarşi tumanidagi Qovçin qişloğida istiqomat qilgan Bodomgul ayaning taqdiridan sözlayotgandek, göyo.

...Bodomgul va Hasanjonning töyi 1941-yilning iyun oyida bölib ötdi. Ularga köpçilik havas qildi: “bir-biriga juda munosib”, deyişdi. Bundan kelin-kuyov dunyolarga siğmay quvondi.

Kunlarning birida qişloqqa maş’um xabar örladi: uruş boşlanibdi. Baxt oğuşidagi kelinçak Bodomgul bu gapga boşida parvo qilmadi, Hasanjon bilan bir yostiqqa boş qöyganiga ön beş kun bölganida esa çaqiruv qoğozi keldi. Öşanda u bor-yöği 19 yoşda edi.

– Tez qaytaman, uruş uzoqqa çözilmaydi, – dedi Hasanjon. – Meni kut!

– Umrimning oxirigaça kutaman, sizni, – dedi Bodomgul xayrlaşar çoğida.

Uruş nomi bilan uruş. Zabardast yigitlar frontga ketdi. Hamma iş keksalar va ayollarga qoldi. Daladagi oğir mehnat vujud-vujudini ezib taşlasa-da, Bodomgul aslo çarçadim demadi. U bu qiyinçiliklar tezda ortda qolişiga, sevikli yori Hasanjon tez kunlarda ğoliblar qatorida qaytişiga işonardi...

Qişning zahri ketib, tarnovlardagi sumalaklar eriy boşladi. Qir-u adirlarda boyçeçaklar böy körsatdi. Qaldirğoçlar uy ayvoniga in quriş taşvişiga tuşib qoldi. Dalalarda iş qaynay boşladi. Qahratondan horib çiqqan qişloq ahli Navrözi olamga tayyorgarlik körayotgan paytda uzoqdagi söqmoq yölda bir askar körindi.

– Hasan akam şu, aniq Hasan akam, – deya Bodomgul oyoqyalang yugurdi. Askar ham xuddi Hasanjonga öxşar, ammo qöltiqtayoqda edi. Yaqin qolganda esa kiyimi öziga yaraşgan bu askar begona ekanini bildi va yerga çökkalab qoldi.

– Singlim, xafa bölmang, siz kutgan inson, albatta, keladi, – deya taskin berdi askar yigit...

Bodomgul yana ön marta adaşdi, kelayotgan askar tomon öninçi bor yugurib çiqdi. Hasanjondon esa na xat bor, na xabar. Uruşga ketganiga bir oy bölganida “Bodomgul, meni kut, men kelaman” degan mazmunda xat olgan edi. Şu birgina xat unga ilinj, umid va işonç berib turardi.

...Uruş tugab, eng oxirgi jangçi keldi. Ammo Hasanjondan darak bölmadi. “Mayli, nogiron bölsa ham, tirik kelsa mayli edi”, deb faryod çekardi Bodomgul.

Uruş tugaganiga ança yillar bölganida ham Bodomgul yorini kutişdan çarçamadi. U ayollar brigadasiga rahbarlik qilib, bor alamini mehnatdan oldi.

– Ötgan asrning 80-yillari edi, – deya eslaydi Bodomgul momoning jiyani Dilmurod Xoliyorov. – Bir kuni ammamning xonasiga kirsam, yiğlab ötirgan ekan. Na çiqib ketişimni, na kirişimni bilmay, eşik yonida turib qoldim. Çunki ammamni bunday holatda aslo körmagan edim. Yiğlasa ham, heç kimga sezdirmas edi. Qarasam, qölida Abdulla Oripovning kitobi.

– Dilmurodjon, kel, mana bu satrlarni kör, xuddi men haqimda yozilgandek, – dedi ammam va öqidi:

Nahot işq qismati bunça berahm,
Bunçalar buyuksan, vafo şevasi.
Sengadir hurmatim, senga şarafim,
Qahramon jangçining sodiq bevasi...

Va menga suyanib ökirib yubordi. Men ham yiğladim. Qaniydi, ammamga taskin böla olsam, dardlariga malham bölsam. Afsuski, buning iloji yöq edi. Ammajonim umrining söngigaça öz suyukli yorini kutib yaşadi...

Hikoyamiz qahramoni Bodomgul Olimova 1941-yildan 1980-yilgaça Qarşi tumanidagi Qovçin qişloğida paxtaçilik, ğallaçilik va sabzavotçilik brigadalariga rahbarlik qilib, elda katta obrö-e’tibor topdi. Nafaqaga çiqdi, dorilamon kunlarni kördi.

Aya 2013-yilda 90 yoşida bu dunyoni tark etdi. Undan bittagina sandiq qoldi. Sandiqni oçişganda içidan yoriga öz qöllari bilan tikkan tön, belqars, döppi, Hasanjon uruşdan yozgan yagona “meni kut, men kelaman” degan xat va... Abdulla Oripovning “Ayol” nomli şe’ri çiqdi:

Şu sodiq bevaga sajdalar qiling,
Şu sodiq bevaga aylang ehtirom.
Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,
Haykal ham qöyingiz bamisli xayol.
Şundaylar bölmasa agar dunyoda,
Bu qadar muhtaram bölmasdi ayol.

Faxriddin BOZOROV,
Özbekiston Jurnalistlar uyuşmasi a’zosi

SANA

ÖZBEKISTON HARBIY PROKURATURASIGA 35 YIL

Ma’naviyat kuni doirasida Özbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari taşkil etilganining 35 yilligi munosabati bilan “Harbiy prokuratura: keça va bugun” mavzusida oçiq muloqot ötkazildi.

Videokonferens-aloqa şaklida ötgan tadbirni Boş prokuror örinbosari – Özbekiston Respublikasi Harbiy prokurori Q. Isroilov olib bordi. Unda mahkama va barça hududiy harbiy prokuratura organlari xodimlari hamda işçi-xizmatçilari iştirok etdi.

Jarayonda Yangi Özbekiston şaroitida Prezidentimizning alohida e’tibor va ğamxörliklari bilan barça sohada bölgani kabi prokuratura organlarida amalga oşirilgan va izçil davom etayotgan ulkan islohotlarning hayotiy ifodasi e’tirof etildi.

Şuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabrdagi tegişli farmoni bilan boşlangan yangi islohotlar davrida harbiy prokuratura organlarida olib borilgan keng qamrovli çora-tadbirlar, xizmat ötaş uçun yaratilgan şaroitlar, xodimlar va ularning oila a’zolari uçun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlarga töxtalib ötildi.

Muloqotda şukronalik hissi bilan el-yurt manfaati yölida fidokorona xizmat qiliş, muntazam ravişda öz ustida işlaş, bilim va könikmalarini doimiy oşirib boriş va yurtiga munosib böliş – inson kamolotining muhim asosi ekani alohida ta’kidlandi.

Yakunda Huquqni muhofaza qiliş akademiyasini tamomlab, harbiy prokuratura organlariga xizmatga yangi qabul qilingan yoş xodimlarga Boş prokuror buyruği bilan berilgan “adliya leytenanti” harbiy unvonlari topşirildi.

Adliya mayori
Loçin QURBONBOYEV,
Özbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bölim boşliğining örinbosari



HARBIY HIYLA: TARIX VA HOZIRGI ZAMON

Qadimgi xitoy mutafakkiri Sun-szi uruş san'atini aldovga asoslangan faoliyat deb ta'riflagan. Bu fikr oradan ming yillar ötsa-da, öz ahamiyatini yöqotmadi. Harbiy hiyla – qurolli kuraş tarixining doimiy yöldoşi: u qöşinlar sonidan köra töğri öylab topilgan reja va duşman tasavvurini boşqara oliş mahorati köproq hal qiluvçi bölgan holatlarda ayniqsa yaqqol körinadi.

HARBIY HIYLA NIMA?

Harbiy hiyla deganda duşmanni çalğitiş, unga öz kuçlari, niyat va harakatlari haqida notöğri tasavvur berişga qaratilgan çoralar tuşuniladi. Uning maqsadi oddiy: duşman xato qaror qabul qilsin, kuçini notöğri joyga yönaltirsin yoki tayyorlanmagan paytda hujumga uçrasin. Hiyla kuçni tejaydi, yöqotişlarni kamaytiradi va taşabbusni qölga olişga yordam beradi. Amalda harbiy hiyla bir neçta körinişda namoyon böladi:

qoblaş – qöşin, texnika va obyektlarni yer, tun yoki sun'iy vositalar orqali közdan yaşiriş;

namoyişkorona harakatlar – asosiy zarba yönalişidan boşqa joyda hujumga tayyorgarlik körayotgandek taassurot uyğotiş;

soxta nişonlar – şarsimon "tanklar", maket texnika va boşqa yolğon obyektlarni joylaştiriş;

dezinformatsiya – duşman qöliga ataylab notöğri hujjat yoki ma'lumotning tuşişi;

aloqa sohasidagi aldov – radio va elektron tarmoqlarda yolğon trafik yaratiş.

TARIXDAN MISOLLAR

Afsonaga köra, qadimgi Troya şahri harbiy kuç bilan emas, hiyla bilan olingan: yunonlar katta yoğoç ot yasab, uni "sovğa" sifatida qoldirib ketgandek köringan, içida esa jangçilar yaşiringan. Bu hikoya haqiqatmi yoki badiiy töqima – muhimi, hiyla ğoyasi insoniyat xotirasida qançalik çuqur örin olganini körsatadi.

Ikkinçi jahon uruşi esa harbiy hiylaning murakkab, rejalaştirilgan şakllarini namoyiş etdi. 1943-yilda Britaniya razvedkasi "Minsmit" operatsiyasini ötkazdi: dengizda halok bölgan odamning jasadiga soxta şaxsiy hujjatlar va xatlar joylaştirilib, u nemislarning qöliga tuşadigan qilib qoldirildi. Maqsad ittifoqçilarning keyingi qönişini Sitsiliyada emas, boşqa joyda kutişga duşmanni işontiriş edi.

1944-yilda Normandiyaga qöniş oldidan "Fortityud" operatsiyasi amalga oşirildi. Unda duşmanga qönişning Pa-de-Kale hududida bölişi haqida işonç uyğotiş uçun yolğon qöşilma, soxta radioaloqa va yolğon hujjatlar işlatildi. Şu tariqa nemis qömondonligi kuçlarining bir qismini notöğri yönalişda uşlab turdi.

Amerika qöşinidagi maxsus bölinma esa "arvoh armiyasi" nomi bilan tanildi: u şarsimon maket texnika, ovoz yozuvlari va soxta radioaloqa orqali haqiqiy qismlar mavjud emas joyda katta qöşin borligi taassurotini yaratdi.

HIYLA VA XIYONAT: HUQUQIY ÇEGARA

Harbiy hiyla hamma narsaga yöl qöyadi, degan tuşunça notöğri. Xalqaro gumanitar huquq hiyla bilan xiyonatni aniq ajratadi.

Ruxsat etilgan hiyla. 1907-yilgi Gaaga nizomining 24-moddasi harbiy hiylalarni va duşman haqida ma'lumot oliş çoralarini joiz deb hisoblaydi. 1949-yilgi Jeneva konvensiyalariga 1977-yilgi I Qöşimça protokolning 37-moddasi ham harbiy hiylalarga misol keltiradi: niqoblaş, soxta nişonlar, soxta operatsiyalar va dezinformatsiya.

Taqiqlangan xiyonat. Protokolning şu moddasiga köra, duşmanning işonçini huquqiy himoyadan foydalaniş niyatida aldab, söng şu işonçni suiiste'mol qiliş xiyonat hisoblanadi va taqiqlanadi. Masalan: taslim böliş yoki muzokara uçun oq bayroq kötarib turib hujum qiliş; yarador yoki kasal bölib körinişni niqob qiliş; tinç aholi kiyimini kiyib jang qiliş; BMT, Qizil Xoç va şu kabi himoya belgilari hamda betaraf davlat belgilarini suiiste'mol qiliş.

Oddiy qoida şunday: hiyla duşmanning tasavvurini çalğitadi, xiyonat esa huquq himoyasiga bölgan işonçni öz manfaatiga işlatadi. Birinçisi – harbiy san'atning qonuniy qismi, ikkinçisi – uruşning qonunlari buzilişi.

HIYLA NIMA UÇUN MUVAFFAQIYATLI BÖLADI?

Tarixiy tajriba bir neçta umumiy şartni körsatadi. Birinçidan, hiyla işonçli bölişi, duşman allaqaçon özi kutayotgan narsaga mos kelişi kerak: odamlar köpinça özlari işonişga tayyor narsaga işonadi. Ikkinçidan, reja maxfiy saqlanişi va barça ijroçilar muvofiqlaştirilgan holda harakat qilişlari lozim. Uçinçidan, hiyla alohida epizod bölmay, asosiy harbiy rejaning qismi bölişi şart: u öz-özida maqsad emas, balki asosiy vazifaga xizmat qiladigan vosita. Törtinçidan, duşmanning fikrlaş tarzi va qaror qabul qiliş tartibini yaxşi biliş zarur.

Ikkinçi tomondan, hiyla har doim ham işlamaydi. Agar duşman qöşimça manbalar orqali ma'lumotni tekşira olsa yoki tahlil qiliş sifati yuqori bölsa, aldov foş böladi va hatto öz kuçlariga işonçni yöqotişga olib kelişi mumkin.

HOZIRGI ZAMONDA HARBIY HIYLA

Bugungi kunda harbiy hiyla yer va havodagi maketlardan köra köproq axborot va raqamli muhitga köçdi. Sun'iy kuzatuv vositalari, sun'iy yöldoş suratlari va elektron razvedka niqoblaş usullarini murakkablaştirmoqda: soxta nişonlar endi optik körinişdan taşqari issiqlik va radiolokatsion izlar bilan ham haqiqiyga öxşaşi kerak. Kibermakonda esa soxta ma'lumot, yolğon tarmoq trafigi va sun'iy intellekt yordamida yaratilgan dipfeyk materiallar aldovning yangi vositalariga aylandi.

Ammo texnologiyaning rivoji huquqiy va axloqiy çegaralarni olib taşlamaydi. Harbiy hiyla hamon xiyonatdan ajralib turişi, fuqarolik obyektlari va himoyalangan şaxslarni xavf ostiga qöymasligi kerak. Şu sababli sun'iy intellekt va dipfeyk kabi vositalarni harbiy maqsadda qöllaşda huquqiy baho va inson nazorati alohida ahamiyat kasb etadi.

Harbiy hiyla – qadimiy, ammo öz dolzarbligini saqlab qolgan harbiy san'at elementi. U kuç yetişmagan joyda fikr va reja bilan natijaga erişiş imkonini beradi. Lekin uning qonuniy çegarasi bor: hiyla duşmanning tasavvurini boşqaradi, xiyonat esa huquqiy himoyaga bölgan işonçni buzadi. Hozirgi zamon qömondoni uçun eng muhim könikma – ham alday oliş, ham aldamaslik, şu bilan birga huquq doirasida qoliş mahoratidir.

Podpolkovnik Yorqinoy ROZIMOVA,
HXMU katta öqituvçisi,
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

"VATANPARVAR" TAŞKILOTLARIDA



YILNING ENG TEZKOR POYGAÇILARI

Toşkent viloyatining Piskent tumanidagi "Janubiy" avtopoligonida Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi "Vatanparvar" taşkiloti tomonidan avtomobil halqa poygalari böyiça Özbekiston oçiq çempionatining uçinçi bosqiç musobaqasi ötkazildi.

Çempionatda respublikamizning turli hududlaridan taşrif buyurgan 60 ga yaqin sportçi özaro bellaşdi.

Poygaçi sportçilar çempionatning "A-8" sinfida dvigatelning iş hajmi 1 100 sm³dan 1 600 sm³gaça bölgan, "A-9" sinfida dvigatelning iş hajmi 1 601 sm³dan 2 000 sm³gaça bölgan va milliy sinfda dvigatelning iş hajmi 1 600 sm³gaça bölgan sport avtomobillarida harakatlandi.

Murosasiz va qizğin keçgan bellaşuv quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"A-8" sinfida:

1-örin: Vyaçeslav Şipkov *(Toşkent ş.);*
2-örin: Samandar Xusanov *(Jizzax v.);*
3-örin: Marat Xayitbayev *(Toşkent v.).*

"A-9" sinfida:

1-örin: Jumaboy Qurbonqulov *(Toşkent v.);*
2-örin: Abdurahmon Rahmatov *(Toşkent ş.);*
3-örin: Saidbek Madrahimov *(Toşkent ş.).*

Milliy sinfda:

1-örin: Ğayrat Odilov *(Jizzax v.);*
2-örin: Jamoliddin Mirhosilov *(Toşkent ş.);*
3-örin: Sepik Akopyan *(Toşkent ş.).*

Şuningdek, may va oktabr oylarida avtomobil halqa poygalari böyiça ötkazilgan uç bosqiçli musobaqa natijalaridan kelib çiqib, final ğoliblari aniqlandi. Unga köra, "A-8" va "Milliy" sinflarida poytaxtlik sportçilar Sarvarbek Rasulov va Sepik Akopyan birinçi örinni egalladi. "A-9" sinfida esa Toşkent viloyati vakili Jumaboy Qurbonqulovga teng keladigani topilmadi.

Ğoliblar va yuqori örinlarni qölga kiritgan sportçilarga mukofotlar "Vatanparvar" taşkiloti markaziy kengaşi raisi Husan Botirov tomonidan topşirildi.

QAŞQADARYOLIK YOŞLAR BILAN UÇRAŞUV

Bugun Yoşlar kuni munosabati bilan Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi "Vatanparvar" taşkiloti markaziy kengaşi raisi Husan Botirov 100 dan ortiq qaşqadaryolik yoş bilan oçiq muloqot ötkazdi. "Vatanparvar" taşkilotining 35 yilligi oldidan Mirişkor tumanida taşkil etilgan tadbirda yiğilganlarga taşkilotning aholini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalaş, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalaştiriş hamda mehnat bozorida talab yuqori bölgan kasb mutaxassislarini tayyorlaşga doir faoliyati töğrisida ma'lumot berildi. Muloqot qizğin savol-javoblar bilan ötdi.

"Rahbar va yoşlar" uçraşuvi doirasida "Vatanparvar" taşkiloti Qaşqadaryo viloyati kengaşi tasarrufidagi Mirişkor tumani öquv sport-texnika markazining belgilangan standartlarga muvofiq qurib bitkazilgan yangi zamonaviy öquv avtodromi foydalanişga topşirildi. Tantanali oçiliş marosimida taşkilot markaziy kengaşi raisi Husan Botirov, tuman va viloyat mutasaddilari hamda keng jamoatçilik vakillari iştirok etdi.

Tadbir davomida taşkilotning viloyat kengaşi tasarrufidagi öquv muassasalariga yangi xarid qilingan 7 ta "ONIX" va 1 ta "KIA Sonet" rusumidagi avtomobillar topşirildi. Endilikda uşbu öquv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovçilarini tayyorlaş kurslarida "B" toifasi böyiça öqiyotgan fuqarolar amaliy maşğulotlarda foydalanadi.

"Vatanparvar" taşkiloti markaziy kengaşi raisi Husan Botirovning Qaşqadaryodagi xizmat safari yana bir qizğin tadbirga ulanib ketdi. Taşrif doirasida taşkilotning viloyat kengaşi tasarrufidagi Qarşi tumani öquv sport-texnika markazining öq otiş tiri foydalanişga topşirildi. Uşbu voqelik sportning öq otiş tiriga mehr qöygan tuman yoşlari uçun ayni muddao böldi. Endilikda yigit-qizlar zamonaviy talablarga töliq javob beradigan muassasada mahoratlarini oşirib, sönggi rusumdagi sport qurollari bilan maşğulotlar ötkaziş imkoniga ega böladi.





NAVBATDAGI AVTODROMLAR IŞGA TUŞDI

Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi "Vatanparvar" taşkilotining 35 yilligi munosabati bilan Namangan va Andijon viloyatlarida belgilangan standartlarga muvofiq qurib bitkazilgan ikkita zamonaviy öquv avtodromlari foydalanişga topşirildi.


Namangan viloyatining Töraqörğon tumanidagi öquv avtodromining oçiliş marosimida "Vatanparvar" taşkiloti markaziy kengaşi raisi Husan Botirov, tuman hokimi Şerali Qosimov va keng jamoatçilik vakillari iştirok etdi.

Tantanali marosimda taşkilotning viloyat kengaşi tasarrufidagi öquv muassasalariga yangi xarid qilingan 12 ta "Onix", 4 ta "KIA Sonet" va 2 ta "FAW" rusumidagi avtomobillar topşirildi. Şuningdek, Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida ham zamonaviy öquv avtodromi işga tuşdi. Tadbir davomida taşkilotning viloyatdagi öquv muassasalariga yangi 20 ta "Onix", 2 ta "Damas", 2 ta "FOTON" va 2 ta "FAW" rusumidagi yengil va yuk avtomobillari foydalanişga topşirildi. Endilikda uşbu öquv avtomobillaridan avtomototransport vositalari haydovçilarini tayyorlaş kurslarida "B", "BC" va "C" toifalari böyiça öqiyotgan fuqarolar amaliy maşğulotlarda foydalanadi.

Şu kuni "Vatanparvar" taşkiloti markaziy kengaşi raisi Husan Botirov 150 nafar andijonlik yoş bilan oçiq muloqot ötkazdi. Taşkilotning 35 yilligi munosabati bilan Paxtaobod tumanida joylaşgan Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot texnikumida taşkil etilgan tadbirda yiğilganlarga taşkilot faoliyati töğrisida ma'lumotlar berildi. Uçraşuv qizğin savol-javoblar bilan ötdi.

Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi "Vatanparvar" taşkiloti matbuot xizmati

“KÖRINMAS YOV”NING KÖRINGANLARI



Har yili qiş mavsumi yaqinlaşişi bilan aholi orasida bir xavotir boşlanadi. Havo soviy boşlaşi bilan xonadonlarni isitiş, gaz va elektr energiyasi ta’minoti bilan boğliq muammolar yana kun tartibiga çiqadi. Ammo bizni taşvişga solayotgan masala faqatgina issiqlik ta’minotigina emas, balki sovuq kunlar boşlanişi bilan is gazidan zaharlaniş bilan boğliq şumxabarlar ham birin-ketin quloqqa çalinadi.

Sohaga mas’ul bölgan amaldorlarga, hokimlarga esa farqi yöq, xalqning elektr va gaz masalalarini hal qilişdan köra ming birinçi masalani piar qiliş bilan ovora. Gazetalarda, umuman, köplab ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinayotgan materiallarni öqişga, munosabat bildirişga ularning vaqti yöq. Qiş kelayotgani, ötin tanqis, kömir qimmat va yetişmasligi, sovuqda bir amallab jon saqlayotgan odamlar hayoti tabiiy bir holatdek göyo ular uçun.

Özbekiston Markaziy Osiyodagi barça mineral resurslarning deyarli uçdan bir qismiga ega va gaz qazib oliş böyiça dunyoning yetakçi yigirma davlatidan biri. Lekin şunga qaramay, havo sovidi degunça aholini gaz bilan ta’minlaş masalalari kun tartibiga çiqadi. Mahalliy gaz uzatiş tizimining eskirgani, içki bozorda gaz narxi pastligi, demografiya, geologik razvedka işlari uçun milliy kadrlar yetişmasligi kabi sabablar katta gaz yöqotişlari va samarasiz foydalanişga *(gazning 60 foizi oxirgi iste’molçiga yetib bormay, atmosferada tarqalib, yöqolib ketadi)* olib kelyapti. Natijada esa gaz ta’minoti yetib bormagan mamlakat aholisi qişda uylarni kömir, ötin, tappi yoki turli qölbola elektr jihozlari bilan isitişga majbur bölmoqda.

“SUKUNAT” QURBONLARI

Havo sovimoqda, aksariyat xonadonlarda allaqaçon isitiş moslamalari, gaz peçlari va turli muqobil isitiş vositalaridan foydalaniş köpaydi. Taşqaridan qaraganda uy issiq, oila tinç, hamma öz yumuşi bilan band. Ammo ayrim xonadonlarda közga körinmaydigan, hidsiz va ta’msiz xavf allaqaçon tarqalayotgan bölişi mumkin.

Mana, yana kunlar soviy boşlaşi bilan şumxabarlar köpaya boşladi. 25-oktabr kuni Farğona tumanining Çimyon qişloğida bir oilaning 7 nafar a’zosi is gazidan zaharlanib, vafot etgan.

Aynan şu kuni Toşkent şahrining Mirzo Uluğbek tumanida ham 6 kişi is gazidan zaharlanişi oqibatida hayotdan köz yumdi. Boş prokuraturaning xabar qilişiça, hodisa quriliş-ta’mirlaş işlari olib borilayotgan xususiy uyda sodir bölgan.

Aniqlanişiça, uyning yertöla qismiga örnatilgan isitiş qozoni xavfsizlik talablariga javob bermagan, gaz tarmoğiga esa belgilangan tartibda tegişli texnik şartlarsiz ulanilgan.

Oradan köp ötmay 1-noyabr kuni Qöqon şahrida yana 5 kişi is gazidan vafot etgani haqida xabarlar tarqaldi. Boş prokuratura matbuot kotibining ma’lum qilişiça, Qöqon şahridagi holat Xöqandiy mavzesidagi köp qavatli uylardan birida sodir bölgan. Xonadonda yaşovçi ayol, uning mehmonga kelgan qizi hamda 3 nafar voyaga yetmagan nabirasi *(2019, 2023 va 2025-yilda tuğilgan)* is gazidan zaharlanib, hodisa joyida vafot etgan.

FVB örganişlar davomida yuqoridagi holatlarga asosiy sabablardan biri sifatida Germaniyada xizmat muddatini ötab bölgan va utilizatsiyaga topşirilgan eski “Vaillant” qozonlarini keltirdi.

Ma’lum bölişiça, ayrim tadbirkorlar mazkur rusumdagi ikki konturli gaz qozonlarini ehtiyot qismlari sifatida mamlakatga noqonuniy olib kirib, qölbola usulda qayta jihozlagan va göyoki xarid uçun yangi holatga keltirib, fuqarolarga aldov yöli bilan sotgan.

Bundan taşqari, qurilma Germaniyadan ajralmas qismi bölgan haqiqiy dudburonsiz olib kirilgan. Ularning örniga işlaş jarayoniga mutlaqo mos kelmaydigan, yuqori harorat ta’sirida qattiqlik xususiyatini yöqotib, örnatilgan qobiğidan çiqib ketadigan va insonlar hayoti uçun öta xavfli hisoblangan kanalizatsiya polietilen quvurlari örnatilgan.

Xabarlarni öqiymiz-u, unutamiz, bolalar nobud bölganini eşitsak, bir seskanib qöyarmiz, ehtimol. Ammo bu holatga butunlay befarqligimiz yildan yilga ölimlar soni köpayayotganidan ma’lum. Begunoh gödaklar isinişga harakat qilib, uyqudan uyğonmayapti, bir uydan butun oilaning tobuti çiqyapti, soppa-soğ odam jon berganini bilmay qolyapti.

Hid va rangga ega bölmagan bu “sezdirmasdan öldiruvçi” neça-neça kişilar yostiğini quritişda davom etyapti. FVV ma’lumotiga köra, 2021-yilda is gazidan 128 kişi vafot etgan bölsa, 2025-yilning ilk 9 oyida bu raqam 141 ga çiqqan.

Bu şunçaki raqamlar emas. Ularning ortida uyquga ketib, tongda uyğonmagan insonlar, farzandini, yaqinlarini yöqotgan oilalar taqdiri mujassam. Açinarlisi, hali hayot nimaligini anglaşga ulgurmagan yoş-yoş bolalarning tunda uyquga yotib, tongda turmayotganidir....

IS GAZI QANDAY PAYDO BÖLADI?

Mutaxassislarning ta’kidlaşiça, is gazi – yoqilği tarkibidagi uglerodning kislorod yetişmagan şaroitda töliq yonmasligi natijasida hosil böladigan zaharli modda bölib, nosoz gaz uskunalari, isitiş peçlari, dudburon va mörilarning yaxşi işlamasligi, şuningdek havo aylanişi çeklangan joylarda paydo bölişi mumkin. Köpçilik is gazidan zaharlaniş faqat eski peç yoki nosoz gaz jihozlari bilan boğliq, deb öylaydi. Aslida esa xavf manbalari bundan kengroq. Texnik talablarga javob bermaydigan isitiş uskunalari, dudburonning tiqilib qolişi ham jiddiy xavf tuğdiradi.

Şuningdek, har qanday yoqilğining çala yonişi oqibatida, ya’ni yoqilği töliq yonişi uçun atmosferada yetarli kislorod bölmagan holatlarda is gazi paydo böladi. U közga körinmaydi, hidsiz, ta’msiz. Uşbu modda inson organizmiga nafas yöllari orqali ta’sir qiladi, gemoglobin bilan kislorodga nisbatan 300 marta kuçli birikma – karboksigemoglobinni hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning töqimalarga kislorod taşiş qobiliyati susayadi va bu gipoksiya *(kislorod yetişmasligi)*, oğir holatlarda esa anoksiyaga olib keladi. Şu tariqa inson hayotiga nuqta qöyilişi mumkin.

NIMA QILIŞ KERAK?

Zaharlaniş ortidan kelgan halokatlarning 99,9 foizi ehtiyotsizlik oqibatida sodir bölgani aytiladi. Bölişi mumkin, bunday dalillardan ham köz yummagan holda, şuni ham ta’kidlaş lozimki, tanganing ikkinçi tomoni ham bor. Masalaning bir tomoni ehtiyotsizlikka, beparvolikka borib taqalsa, ikkinçi tomoni davlat va jamoat taşkilotlarining loqaydligiga borib taqaladi. Negaki, is gazidan himoyalaniş böyiça tarğibot öta jön, ta’siri yöq va nomiga olib borilyapti. Hisobotga qarasang, hammasi a’lo. Biroq odamlar qurbon bölişi töxtamayapti-ku! Qançа insonlar jigarbandidan, yana qançasi boquvçisidan mahrum bölmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarni, umuman, ommaviy axborot vositalarini kuzatar ekanmiz, köpinça is gazidan himoyalaniş böyiça tavsiyalar, ogohlantirişlar Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan amalga oşirilayotganiga guvoh bölyapmiz. Isitiş moslamalaridan notöğri foydalaniş oqibatida köngilsiz hodisalar sodir bölişi hamda insonlar is gazidan zaharlanişi mumkinligi töğrisida tinimsiz bong uradi. Qölbola va nosoz gaz isitiş moslamalaridan foydalanmaslik, tungi vaqt aholi turarjoylarida örnatilgan isitiş tizimini nazoratsiz qoldirmaslik, oşxonada örnatilgan tabiiy gazda işlovçi gaz plitalaridan xonalarni isitiş maqsadida foydalanmaslik, isitiş peçlari va ularning mörilari sozligiga, ular turli buyum va tösiqlar bilan berkitilmasligiga hamda maxsus taşkilotlar tomonidan öz vaqtida tozalanişiga alohida e’tibor beriş kabi muhim tavsiyalarni öz vaqtida taqdim etib bormoqda.

Boşqa vazirlik va idoralar-çi? Ular ham bu borada tarğibot işlarini “a’lo” darajada olib bormoqda. Faqat “mas’uliyat” bilan yondaşilayotganini aytmaganda, hammasi silliq ketmoqda.

Is gazi közga körinmas va hidsiz bölgani uçun uni odamning özi payqaşi muşkul. Şuning uçun rivojlangan davlatlarda uylarga is gazi detektori örnatiladi.

Misol uçun, Kanadaning Alberta provinsiyasida 2006-yildan buyon yangi qurilgan uylarda is gazi detektori bölişi şart. Detektor uyning har bir qavatida (köp qavatli bölsa) yotoqxonalardan 1 metrdan uzoq bölmagan joyda şiftga örnatilişi kerak. Mabodo uyda is gazi (yoki tutun) tarqalsa, detektorlar juda baland ovozda çiyillab, uxlab yotganlarni uyğotadi va ölimdan saqlaydi.

Mamlakatimizda ham is gazini aniqlovçi qurilma yaratilgandi. Uşbu qurilma xonadonning maxsus isitiş tizimiga örnatilib, agarda uyda is gazlari çiqadigan bölsa, qurilma işga tuşib, uni aniqlab beradi hamda signal çala boşlaydi. Qurilma elektr energiyaga ulangan holda işlaydi. Şu orqali u elektr quvvatini özida jamlaydi. Bu esa qurilma elektr energiyasi tizimdan uzilgan hollarda ham 24 soat işlab turiş imkonini beradi. Qurilmaning örtaça narxi 195 ming söm atrofida bölişi xabar qilingandi. Ammo uşbu qurilma haqidagi xabarlar xabarligiça qolib ketdi. Uşbu uskuna qöllaş uçun aholiga na tatbiq qilindi va na bozorlarga sotuvga çiqarildi. Odamlar şunday qurilma borligidan xabar topişi uçun reklama ham qilinmadi, tarğibot ham qilinmadi. Is gazidan vafot etayotganlar soni esa yil sayin oşib bormoqda.

Mantiqan öylasak, xavfni fojiaga aylantirmaslik öz qölimizda. Is gazidan zaharlaniş holatlarining oldini oliş uçun mavsumiy tayyorgarlikni sovuq tuşgandan keyin emas, undan oldin boşlaş lozim. Buning uçun gaz uskunalari va isitiş moslamalarini malakali mutaxassisga tekşirtiriş, dudburon va mörilarning tozaligi hamda tortiş kuçini nazorat qiliş, xonada doimiy havo almaşinuvini ta’minlaş muhim.

Bu borada mas’ul idoralarning profilaktik tuşuntiriş işlari ham faqat mavsumiy tadbirlar bilan çeklanib qolmasligi zarur. Har bir xonadonda xavfsizlik qoidalariga amal qilinayotgani, gaz jihozlari va mörilarning texnik holati nazoratda ekani muhim. Zero xavfsizligimiz biron-bir idora yoki taşkilotning vazifasi emas, balki har birimizning kundalik mas’uliyatimizdir.

Is gazi közga körinmaydi. Şu bois uning xavfini seziş uçun fojia yuz berişini kutib ötiriş kerak emas. Bugun körilgan ehtiyot çorasi ertaga bir insonning hayotini, butun bir oilani asrab qolişi mumkin.

Leytenant
Mansurbek JABBOROV,
“Vatanparvar”

MATONAT VA JASORAT SINOVI



“Termiz” umumqöşin dala poligonida “Vatan tayançi” harakati a’zolari örtasida “Şijoat maydoni” majmuaviy amaliy harbiy-sport musobaqasi ötkazildi. Unda Termiz şahridagi 5 ta umumta’lim maktabidan 10 nafardan, jami 50 nafar öquvçi-yoş iştirok etdi.

Bellaşuvlar 9 ta şart böyiça taşkil etilib, har bir şart iştirokçilardan nafaqat jismoniy kuç va çidamlilik, balki çaqqonlik, topqirlik, tezkorlik hamda jamoaviy hamjihatlikni namoyon etişni talab qildi. Qiziqarli va murosasiz keçgan bellaşuvning birinçi kun yakunida viloyat musiqali drama teatri aktyorlari tomonidan buyuk sarkarda Amir Temur obrazida sahnalaştirilgan monolog namoyiş etildi. Şuningdek, san’atkorlar tomonidan ijro etilgan diltortar kuy-qöşiqlar yoşlarga kötarinki kayfiyat va unutilmas taassurotlar ulaşdi.

Musobaqaning yopiliş marosimida Janubi-ğarbiy maxsus harbiy okrug Janubiy operativ qömondonligi, viloyat mudofaa işlari va maktabgaça va maktab ta’limi boşqarmasi vakillari va faxriylar iştirok etdi. Ular öz çiqişlarida yoşlarning bunday musobaqalarda faol iştirok etişi vatanparvarlik tuyğusini mustahkamlaş, harbiy kasbga bölgan qiziqişini oşiriş va kelajakda yetuk insonlar bölib kamol topişida muhim ahamiyat kasb etişini ta’kidlab, iştirokçilarga kelgusi faoliyatlarida omad tiladi.

Yakuniy natijalarga köra, barça şartlarda yuqori natijalarni qayd etgan Termiz şahridagi 19-umumta’lim maktabining “Vatan tayançi” otryadi birinçi örinni qölga kiritdi. Ğolib jamoa va faol iştirokçilar diplomlar, esdalik sovğalar hamda musobaqa kubogi bilan taqdirlandi.

III darajali serjant Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni

MUHOKAMA

YOŞLAR BILAN IŞLAŞDA MANZILLI YONDAŞUV

Markaziy harbiy okrug qömondonligi hamda okrug tasarrufidagi harbiy qismlar komandirlari iştirokida alohida işlaş talab etiladigan yoşlar bilan olib borilayotgan işlar samaradorligini oşirişga bağişlangan yiğiliş bölib ötdi.



Unda harbiy qismlarga biriktirilgan yoşlar bilan amalga oşirilayotgan işlarning holati, mavjud muammolar va yöl qöyilgan kamçiliklar tanqidiy-tahliliy jihatdan körib çiqildi.

Yiğiliş davomida yoşlarning ijtimoiy muammolarini örganiş, ularning bandligini ta’minlaş, kasb-hunarga yönaltiriş, ta’lim olişi va hayotda öz örnini topişiga kömaklaşiş, şuningdek böş vaqtlarini mazmunli taşkil etiş masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Şu bilan birga, yoşlar örtasida huquqbuzarlik va turli salbiy holatlarning oldini oliş, ularni vatanparvarlik, fidoyilik va yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalaş, harbiy xizmatçilar tomonidan olib borilayotgan tarğibot-taşviqot işlarining natijadorligini oşiriş yuzasidan fikr almaşildi.

Muhokamalar jarayonida ayrim yönalişlarda yöl qöyilgan kamçiliklar qayd etilib, ularni bartaraf etiş böyiça mas’ul komandir va ofitserlarga aniq vazifalar yuklatildi. Şuningdek, har bir yoş bilan individual işlaş, uning muammolarini çuqur örganiş, mavjud imkoniyatlardan kelib çiqib amaliy yordam körsatiş hamda amalga oşirilayotgan işlar yuzasidan muntazam nazorat olib boriş zarurligi ta’kidlandi.

Yakunda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlaş, yoşlar bilan işlaş tizimida mas’uliyat va talabçanlikni kuçaytiriş hamda bu boradagi faoliyatni yanada takomillaştiriş böyiça tegişli topşiriqlar berildi.

Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati



Özbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti şaxsiy tarkibi uçun kitobxonlik madaniyatini şakllantiriş, mutolaa könikmalarini rivojlantiriş hamda ma’naviy-ma’rifiy bilimlarini oşiriş maqsadida arzonlaştirilgan kitob yarmarkasi taşkil etildi. Unda badiiy, tarixiy, ilmiy-ommabop, ma’naviy-ma’rifiy hamda turli yönalişlarga oid adabiyotlar keng namoyiş etildi. Şaxsiy tarkib vakillari özlarini qiziqtirgan kitoblar bilan tanişib, ularni arzonlaştirilgan narxlarda xarid qiliş imkoniyatiga ega böldi.

Ahmad NOSIROV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti öqituvçisi

VIDEOSELEKTOR



XIZMAT SAMARADORLIGINING MUHIM MEZONI

Harbiy intizomni mustahkamlaş, şaxsiy tarkib örtasida mas’uliyat va javobgarlik hissini oşiriş, xizmat faoliyatida uçrayotgan kamçiliklarning oldini oliş doimiy e’tiborni talab etadi.

Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qöriqlaş qöşinlari qömondonligining Toşkent şahrida joylaşgan harbiy qismida 2026-yilning yanvar – oktabr oylarida harbiy intizom holati tahliliga bağişlangan videoselektor yiğilişi bölib ötdi. Unda qöşinlarda harbiy intizomning joriy holati, şaxsiy tarkib tomonidan harbiy nizomlar talablariga rioya etilişi, xizmat faoliyatida uçrayotgan muammolar hamda ularning oldini olişga qaratilgan çora-tadbirlar muhokama qilindi. Hisobot davrida amalga oşirilgan işlar tahlil qilinib, harbiy xizmatçilarning xizmat vazifalariga mas’uliyat bilan yondaşişi, içki tartib-qoidalarga qat’iy amal qilişi va qonuniylikni ta’minlaş masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Yiğiliş yakunida harbiy intizomni mustahkamlaş borasidagi işlarni izçil davom ettiriş, belgilangan vazifalar ijrosini doimiy nazoratga oliş böyiça tegişli topşiriqlar berildi.

TOQQQ matbuot xizmati

ISLOHOTLAR AMALDA

SENATORLAR HARBIY QISMDA

Oliy Majlis Senatining işçi guruhi Şarqiy harbiy okrugda muddatli harbiy xizmatçilarni kasbga öqitiş va oliy ta’limga tayyorlaş tizimini örgandi.



Şarqiy harbiy okrug boşqaruv apparatida ötkazilgan yiğilişda bu borada qilinayotgan işlar haqida ma’lumot berildi. Ta’kidlanişiça, okrugda “Bitta askar – bitta kasb” tamoyili asosida askarlarning qiziqişi va qobiliyati o‘rganilib, ular tanlagan kasbi bo‘yiça o‘quv guruhlariga ajratildi. Uç oydan olti oygaça davom etadigan kurslarda texnikum o‘qituvçilari va kasb ustalari maşğulot olib bordi. Yiğilişda qayd etilganidek, iyul oyida okrug bo‘yiça kiriş imtihonlarini topşirgan 217 nafar askardan 176 nafari 41 ta oliy ta’lim muassasasiga qabul qilingan. Hozir ular xizmat joyidan turib onlayn darslarda qatnaşmoqda. Yiğilişdan söng işçi guruh a’zolari Farğona şahridagi 4-sonli texnikumda askarlar uçun taşkil etilgan öquv maşğulotlarini kuzatdi.

Şuningdek, örganişlar davomida işçi guruh a’zolari harbiy xizmatçilar va yoşlar uçun barpo etilgan öq otiş tiri bilan tanişdi hamda jangovar tayyorgarlik maşğulotlarini kuzatdi.

Şarqiy harbiy okrug matbuot xizmati



BOLALIKNI ÖĞIRLAYOTGAN SARATON

Saratonga çalingan onalar bilan köp hamsuhbat bölaman. E'tibor bersam, ularning aksariyati oiladagi nosoğlom muhit haqida gapiradi. Erxotin, qaynona-kelin, ovsinlar örtasidagi mojarolardan taşqari, moliyaviy beqarorlik, ota yoki onaning boladan uzoqligi va boşqa sabablarni tahlil qilib, saraton taşrifining sababini tuşunganday bölaman. Bemor bolalarning ruhiy dunyosiga taşrif esa eng sönggi taxminlarimni ham tasdiqlaydi.

16 yoşli A.ning uyida heç qaçon xotirjamlik bölmagan.

– Dadam içvolib doim janjal çiqarib turardi, – deydi u. – Kasal bölib qolganimdan söng esa battar avjiga çiqdi. "Töyib ketdim! Topganim dori-darmoningga ketyapti", deb ta'na qiladi. Onam beçora qiynalib ketdi...

6 yoşli S. esa şunday sözlaydi:

– Ba'zan şu odam özimning dadammikan, deb şubhalanib qolaman. Esimni taniganimdan buyon uyimizda biror kun tinçlik bölganini eslay olmayman. Onam bir oğiz gapirmasa ham, biror sabab bilan janjal çiqaraveradi. Men kuçli va irodali qizman. Agar dadam bunaqa bölmaganida allaqaçon saratonni yenggan bölardim...

14 yoşli U.:

– Buvim meni uç yoşimda onamdan olib qöygan. Bobom vaqtli vafot etgan ekan. "Şu bolang menga şerik böladi", deb onamning bağridan yulib, xonasiga olib kirib ketgan öşa maş'um kun keçagidek yodimda. Qöl çözib izillab yiğlab qolgan onamning taniş hididan ayriliş oson bölmagan. Lekin meni heç kim eşitmagan. Bir hovlida yaşab, onaning bağrida yotmaslik nima ekanini bilasizmi? Uç yoşli gödakka bundan oğir zarba bölmasa kerak. Şundan söng onam jizzaki, qöpol, şartaki bölib qolgan. Buvim esa onamdan xafa bölib, uni har keça menga yomonlab yotardi. Asta-sekin mehribon onam haqidagi mehrim, hissiyotlarim nafratga aylanib, qalbim qoraya boşladi.... Keyin kasal bölib qoldim. Mana, beş yildan beri betobman. Jarrohlik amaliyoti, ximiya, nur terapiyalarini oldim. Kasalxonalarda ham buvim olib yotadi. Kimdir "Onasi qani? Nega bolani özi olib yotmaydi?" deb sörasa, buvim onamni obdan yomonlaydi. Göyo men kardek bamaylixotir gapiradi. Özidan dunyodagi eng mehribon buvini yasab oladi... Lekin men baribir onamni deyman. Agar vaqtni ortga qaytarişning iloji bölganida meni onamning bağridan yulib olingan öşa kunni hayotimdan öçirib taşlagan bölardim. Onamning böyniga çirmaşib, heç qaçon undan ajralmasdim... Menga qimmat va oğir muolajalar qilişadi. Aslida eng yaxşi davo – meni onamga qaytariş ekanini hatto kasalxona psixologi ham bilmaydi...

6 yoşli K.:

– Biz kattakon hovlida yaşaymiz. Uyimizda amakim şef. Hamma undan qörqadi. Öz bolalari ham. Şunaqa qörqardikki, amakimni körsam, iştonimni höllab qöyadigan bölganman. Çunki arzimagan narsalarga uruş çiqaradi. Hovliga örtoqlarimiz öynagani kirsa ham... Dadam amakimdan şunçalik qörqadiki, hatto menga bitta moşinaça ham olib bermagan.

Kasal bölib qolganimda hamma körgani keldi. Amakim ham. Uni körib qörqqanimdan yana iştonimni höllab qöydim...

10 yoşli A.:

– Dadamni ön martaça körganman xolos. U Rossiyada işlaydi. Onam: "Dadang töyimizdan keyinoq işlagani ketgan", derdi. Uyimiz rosa çiroyli edi. Buvim: "Uni dadang yuborgan pullarga solganmiz", deb maqtanardi. Dadam yilda bir marta kelib, bir oy turmasdan ketib qolardi. Çunki bobom: "Bor işla, öğlim. Ukangni uylab, singlingni çiqarvolaylik. Töy qiliş osonmi?" derdi. Amakim uylanib, ammam uzatildi. Biroq dadam haliyam Rossiyada. Çunki endi u menga qimmat dorilar uçun pul jönatyapti.

Men dadamni soğinaverib, kasal bölganman. Afsus, buni özimdan taşqari heç kim bilmaydi...

2 yoş Y.ning onasi şunday deydi:

– Qizimda kasallik nimadan boşlanganini bilaman. Öşa kuni uni çömiltirib, rosa erkalatib, beşikka boğlab uxlatayotgan edim. Şu vaqt nimadandir tajang va şirakayf kelgan erim ustimga stolni otib yubordi. Stol qarsillab beşikka urildi. Qizimning közçalari katta-katta oçilgança qotib qolgandi... Uyda önta mol bor. Lekin qaynotam birortasini sotib berişni istamadi. "Odamlar xayriya qiladi. Tila, yalin, söra", deydi. Mollar qaynimga uy quriş uçun kerak ekan...

17 yoşli M.:

– Mening jussam 8 yoşli qizçalarniki kabi. Kasallik tufayli ösmay qolganman. Ön yildan beri tinmay içim ketadi. Bir buyragim qurigan. Dadam onamga: "Baçang ham, özing ham kerak emassan", debdi. Koşki, şu gaplarni eşitmasaydim...

9 yoşli D.:

– Onam judayam urişqoq. Siz uning muloyim gapirişiga işonmang. Boşqa gapira olmayman... Qizaloq ma'yus közlarini derazaga qadagança jim böladi...

Bu hikoyalarning saratonga qanday aloqasi bor, dersiz. Unda yaxşilab öqib, uqib oling! Oiladagi stress, qörquv, depressiyani bolalar onkologiyasi bilan boğlab beraymi? Keling, unda stressning fiziologik ta'sir haqida gaplaşaylik.

Stress organizmning xavfga javob reaksiyasi bölib, uning ta'siri bir neça asosiy tizimlarga tarqaladi:

1. Neyroendokrin tizim. Stress vaqtida kortizol va adrenalin gormonlari işlab çiqariladi, bu esa bolalardagi immun tizimini susaytiradi.

Keling, xalqona tuşuntira qolay. Tasavvur qiling, immun tizim tananing himoya devori, kasalliklar esa unga hujum qiluvçi içki va taşqi duşmanlardir. Uzoq davom etgan stresslar himoya devorini zaiflaştiradi. Taşqi va içki duşmanlarga nisbatan qarşi himoya mexanizmlar susaygaç, istagan dard bemalol hujum qilişi mumkin. Oddiy grippdan tortib saratongaça!

2. DNK va hujayralar mutatsiyasi. Xronik stress hujayralarda oksidlaniş stressini keltirib çiqaradi, bu esa xavfli ösmalarga sabab böladi.

Endi diqqatimizni oiladagi stress manbalariga qarataylik:

1. Ota-onalar örtasidagi mojarolar.
2. Moliyaviy qiyinçiliklar.
3. Ota-onalarning depressiyasi yoki ruhiy kasalliklari.
4. Bolaning oğir kasallikka çalinişi.

Yuqoridagi tört bolaning hikoyasini bejiz yozmadim. Har birining öz fojiasi bor, töğrimi? Agar birma-bir tahlil qiladigan bölsak, har bir hikoya bitta doktorlik işiga asos bölişi mumkin. Kimlargadir arzimas tuyuladigan oilaviy nizolar, mojarolar bir emas, bir neçta murğak qalblarni sinişi aslida. Saraton aynan şu singan bolalarga hujum qiladi.

Çunki ularni yengiş oson. Içkilikka mukkasidan ketgan, xotinini boks qopiga aylantirgan ota möltirab, titrab turgan öğil-qizini körmaydi.

Şallaqi ayol öğil-qizining yuragida töplanayotgan nafrat saraton hujayrasini östirayotganini tuşunmaydi.

Mardikor ota-onalar mavzusi alohida fojia. Otalar heç kimga keragi yöq, millatni sindirayotgan töylarni deb oilasidan uzoqda. Yillab qarz uzişadi... Ajraşib, uy-joysiz qolgan ayollar ham "bolamga bitta boşpana tiklay", deb çetga işlagani ketadi. Biroq ham ota, ham onadan ajralgan bolaning qalbi bilan heç kimning işi yöq. Amaki – heç kimni tan olmaydigan, gödaklar iştoniga höllatib qöyadigan zolim. Buvilar – onani boladan ayiradigan mehribon "jodugar"! Bobolar – önta moldan bittasini nevarasini davolatiş uçun sotmaydigan va ön birinçi molni tarbiyalagan "molboqar"! Men hammaga baravar loy çaplaş fikridan yiroqman. Biroq aksariyat hayotiy fojialar sababçilari oramizda-ku! Agar özimizni isloh qilmasak, saraton bolalarimizga hujum qilaveradi. Öldiraveradi.

Alla eşitib yotgan bola ustiga otilgan va qarsillab singan stolning zarbasini baqrayib qotib qolgan murğak bolakaygina emas, butun jamiyat eşitsa, saratonni töxtata olamiz. Saratonnigina emas, köp kasalliklarning oldini olişimiz mumkin!

Yana bir ota aroq idişini onaga otgan. Er-xotin orasida turgan bola özига öqday uçib kelayotgan şişaga çap bergan-u, oqqonga "çap berolmagan".

Qörquv va depressiya fiziologiyasi örtasida qanday aloqa bor?

Qörquv miyadagi bodomçasimon tana va gipotalamus orqali boşqariladi. Uzoq davom etgan qörquv nerv tizimi va stress gormonlarining doimiy işlab çiqarilişiga olib keladi. Depressiya serotonin va dofamin kamayişi bilan boğliq. Bu gormonlar kamayişi immun tizimining zaiflaşuviga va hujayralar mutatsiyasini kuçaytirişi mumkin.

Epigenetik özgarişlar. Stress va depressiya DNK zanjiriga ham ta'sir qilişi mumkin, bu esa xavfli ösmalar paydo böliş ehtimolini oşiradi.

Şunday ekan, nima qiliş kerak? Qanday çoralar köriş mumkin?

Eng avvalo, oilangizda pozitiv psixologik muhit yarating. Bu nafaqat bolangiz, balki özingizning ham immun tizimingizni soğlomlaştirişga yordam beradi. Agar soğlom farzand kerak bölsa, öz ruhiy holatingizni nazoratga oling! Hatto bolangizda saratonning törtinçi bosqiçi bölsa ham!

Oiladagi ruhiy muvozanat bolaning kasallikka qarşi kuraşiş qobiliyatini oşiradi.

Muazzam IBROHIMOVA,
şifokor

OTA IZIDAN



“Xalqimizda “Ot örnini toy bosar” degan ibora bor. Bunday ibora odatda suloladagi katta avlod vakillarining yölidan yurib, ular körsatgan natijadan yuqori marrani zabt etgan avlodlarga nisbatan işlatiladi. Bugungi qahramonimiz kiçik serjant Artyom Şturbabin ham ota-onasi izidan borib, yuqori natijalarga erişib kelayotgan yoşlardan. 1997-yilda Toşkent viloyatining Çirçiq şahrida dunyoga kelgan Artyomning birinçi ustozi uning onasi bölgan ekan...”

Şturbabinlar sulolasi haqida gap ketganda Artyomning otasi haqida ma’lumot berib ötmaslikning imkoni yöq. Andrey Şturbabin öz davrining yetuk dzyudoçilaridan bölgan edi. Faoliyati davomida u “Atlanta – 1996” va “Sidney – 2000” Olimpiya öyinlarida qatnaşgan. 1998-yili Bangkokdagi Osiyo öyinlarida u şohsupaga kötarildi va qit’a çempionatlarida ham bir neça bor medal sohibi bölgan. Andrey Anatolyeviçning murabbiylik faoliyati yorqin sahifalarga boy. Jumladan, 3 karra Olimpiada sovrindori Rişod Sobirov, “Rio–2016” Olimpiadasi bronza medali sovrindori Diyorbek Örazboyev kabi maşhur dzyudoçilarga murabbiylik qilgan. 2011-yilda u Xalqaro dzyudo federatsiyasi (IJF) tomonidan dunyoning eng yaxşi murabbiyi sifatida tan olingan. Şturbabin bir neça yil davomida Özbekiston terma jamoasi boş murabbiyi sifatida samarali mehnat qildi. Bir muddat Eron terma jamoasini ham boşqargan. Bugungi kunda u Sloveniya terma jamoasi boş murabbiyi sifatida faoliyat yuritmoqda. Köp yillik va samarali mehnati uçun tajribali murabbiy Andrey Şturbabin hukumatimiz tomonidan “Özbekistonda xizmat körsatgan murabbiy” faxriy unvoni, “Döstlik” ordeni va “Şuhrat” medali bilan taqdirlangan.

Qahramonimiz Artyom ana şunday sportçi va murabbiyning farzandi bölişiga qaramay, uning birinçi ustozi Olga Şturbabina bölgan edi...

BOLALIK

– Mendan sportga kirib kelişim haqida söraşganida hazil aralaş “Men tatamida dunyoga kelganman”, deya kulib qöyaman. Esimni tanibmanki, maşğulotlar zalida onamning yonida yurardim. Otamning sportçi sifatida va keyinçalik murabbiy sifatida katta musobaqalardagi iştiroki sabab bizga vaqt kamroq ajratar edi. Onam ham dzyudo böyiça yoşlar murabbiyi bölgan. Şuning uçun birinçi ustozim onam bölgan. Muntazam şuğullanişni boşlaganimda 6-7 yoşlarda edim. Aniq esimda, raqibimga qarşi birinçi jangda 23 kilogramm vaznda edim va öşanda ğolib bölganman.

DZYUDO YOKI KURAŞ

– Bolaligimdan dzyudo sport turining mayda elementlarigaça ustozlarimdan ta’lim oldim. Birinçi qatnaşgan musobaqalarim ham aynan şu sport turida bölgan. Olimpiada öyinlariga kiritilganini inobatga olsam, dzyudo bilan şuğullanişim tabiiy. Aslida kuraş bilan dzyudoning unçalik ham farqi yöq deb öylayman. Aksinça, kuraş menga köproq yoqadi. Çunki kuraşda yiqilgan raqibga teginilmaydi. Faqat tik holatdagina kuraşiladi. Va bu holat qandaydir ma’noda mardning işidek körinadi. Dzyudoda esa oxirigaça kuraşiladi. Qayiriş, siqiş va şunga öxşaş elementlar bilan raqibni taslim qiliş kerak. Agar milliy kuraş Olimpiada dasturiga kiritilsa, heç ikkilanmasdan kuraşni tanlagan bölardim. Çunki kuraş eng halol sport turi. Hatto kuraşçilar harakatlarini baholab boradigan xalqaro musobaqalardagi hakamlar ham çala, yonboş, ğirrom, halol degan özbekça sözlardan foydalanadi. Şuning özi ham kuraşning naqadar halol sport turi ekanini anglatadi. Kuraşda boşqa yakka jang turlariga nisbatan jarohatlaniş xavfi ham kamroq.

RIŞOD SOBIROV – AFSONAVIY SPORTÇI

– Bolaligimdan maşğulotlarga qatnar ekanman, Rişod Sobirovga öxşaşga harakat qilardim: qöllayotgan usullarni qöllaşga, uning kabi vazmin bölişga va özini doim idora qilişga. Nazarimda Rişod Sobirov afsonaviy sportçi. Uç karra Olimpiada bronza medali sovrindori, ikki karra jahon çempioni bölgan bunday sportçi allaqaçon kumirimga aylanib ulgurgan. Odamiyligi ham juda ajoyib. Özida bor tajribani boşqadan qizğanganini körmaganman. Menga ham dzyudo böyiça juda köplab maslahatlar bergan.

QAT’IYAT, IRODA, MATONAT

– Sportda biror natijaga erişiş uçun ayrim narsalardan voz keçiş zarur. Qat’iy kun tartibi, metin iroda va temir intizom bölişi şart. Bunday sifatlarni sportçi özida aks ettirmas ekan, tatamidagi raqib heç qaçon keçirmaydi. Xalqaro musobaqalarga borişdan avval raqiblarni örganib çiqamiz. Ularning ustunlik tomonlari va kamçiliklari ustida boş qotiramiz. Va bunday örganişlar natija berişiga işonamiz. Ammo ular ham bizni xuddi şunday örganişi aniq. Şuning uçun özimizdagi kamçiliklar ustida ham tinimsiz işlaymiz.



RAQIBLAR

– Odatda, raqibning kuçsizi bölmaydi. Ayniqsa, sportda soniyalar köp narsani hal qilişini inobatga olsak, raqiblarga past nazar bilan qaraş juda xato. Şuning uçun sportçi har qanday holat va vaziyatga tayyor turişi lozim. Agar raqibga nisbatan şay holatda bölinmasa, kutilmaganda mağlubiyat alamini tatib körişi heç gapmas. Musobaqalarda eng köp duç kelganim eronlik raqib Majid Barimanlou böldi. U bilan faoliyatim davomida
5 marta töqnaş keldim. U ham ança kuçli kuraşçi. Ayniqsa, Xançjoudagi Osiyo öyinlarining finalida Majid Barimanlouni yengib, oltin medal sohibi böldim. Kuraş ança oğir keçdi, oson bölmadi. Qolaversa, Janubiy Koreya va Indoneziya kabi davlatlardan ham kuçli kuraşçilar yetişib çiqqan. Ular ham ğoliblik uçun borini berib kuraşadi.

KELGUSI REJALAR

– Eng rivojlangan davlatlardan biri bölgan Amerika Qöşma Ştatlarida milliy kuraşimiz böyiça assotsiatsiya oçildi. Bunday assotsiatsiyaning Amerikada oçilişi kuraşning yana bir qadam oldinga siljiganini anglatadi. Öşa yerda taşkillaştiriladigan musobaqalarda ham iştirok etişni niyat qilganman. Va albatta, çempionatning eng yuqori örnini zabt etgan holda yurtimiz bayroğining baland kötarilişi hamda madhiyamiz jarang soçilişida öz hissamni qöşişni istardim. Qolaversa, sportning eng baland nuqtasi bölgan Olimpiada öyinlariga kuraşning ham kiritilişi haqidagi öy-fikrlar menga tinçlik bermaydi. Şu kunlarga yetib borib, unda musobaqaning oltin medalini qölga kiritsak, bundan ortiq baxt bölmas edi.

Dzyudo böyiça barça imkoniyat va harakatlarimiz albatta Olimpiadaga qaratilgan. Öz vazn toifamda iştirok etib, Olimpiada oltin medalini Özbekistonga olib kelişni niyat qilganman. Buning uçun barça şaroitlar yaratilgan. Bugungi kunda Çirçiq Olimpiya zaxiralari kollejida maşğulotlarni Server Muratasilov murabbiyligi ostida davom ettirmoqdaman.

DZYUDO VA KURAŞ YÖNALIŞLARIDA ERIŞGAN NATIJALARI

2015-yil 6-may, Orenburg, kattalar örtasida Yevropa kubogi (dzyudo), 3-örin.

2015-yil 11-iyun, Çirçiq, ösmirlar örtasida Osiyo kubogi (dzyudo), 2-örin.

2015-yil 8-oktabr, ösmirlar örtasida Osiyo çempionati (dzyudo), 2-örin.

2016-yil 12-may, Çirçiq, ösmirlar örtasida Osiyo kubogi (dzyudo), 1-örin.

2016-yil 10-sentabr, ösmirlar örtasida Osiyo çempionati (dzyudo), 1-örin.

2017-yil 11-may, Çirçiq, ösmirlar örtasida Osiyo kubogi (dzyudo), 1-örin.

2017-yil 15-iyul, ösmirlar örtasida Osiyo çempionati (dzyudo), 1-örin.

2017-yil 18-oktabr, ösmirlar örtasida jahon çempionati (dzyudo), 2-örin.

2023-yil 30-sentabr, Guançjou, Osiyo öyinlari (kuraş), 1-örin.

2023-yil 23-noyabr, Toşkent, “World Series Pro” turniri (kuraş), 1-örin.

2023-yil 27-noyabr, Hindiston, jahon çempionati (kuraş), 1-örin.

2024-yil 10-fevral, Tunis, “African Open” turniri (dzyudo), 3-örin.

2025-yil 28-fevral, Toşkent, “Grand Slam” xalqaro turniri (dzyudo), 3-örin.

2025-yil 2-may, Tojikiston “Grand Slam” xalqaro turniri (dzyudo), 3-örin.

Şerzod ŞARIPOV,
“Vatanparvar“

REKLAMA

SAMARADORLIK OŞIRILMOQDA

Ayni paytda Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkiloti taşkil etilganining 35 yilligiga tayyorgarlik köriş va uni kötarinki ruhda ötkaziş maqsadida tizim taşkilotlari tomonidan köplab amaliy işlar qilinmoqda. Xususan, bu borada Samarqand viloyati kengaşi tasarrufidagi Nurobod tumani öquv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi tomonidan ham bir qança tadbirlar amalga oşirilmoqda.





Yaqinda mana şunday tadbirlardan biri “Vatanparvar” taşkiloti – mening tanlovim!” şiori ostida ötkazildi. Unda Nurobod şahridagi umumta’lim maktablari öquvçilari “Vatan tayançi” otryadi a’zolari va mahalla yoşlari iştirok etdi.

– Tadbirda mutaxassislarimiz taşkilot tarixi va ayni paytda harbiy-vatanparvarlik tarğiboti, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantiriş borasida amalga oşirilayotgan işlar xususida iştirokçilarga sözlab berdi, – deydi markaz direktori Sobirxon Samatov. – Şuningdek, taşkilot tomonidan tayyorlanayotgan turli toifadagi avtomototransport vositalari haydovçilari, texnik kasb egalari va muvaffaqiyatli sportçilar mamlakatimiz nufuzi oşişida qöşgan munosib hissasi töğrisida misollar asosida ma’lumotlar berdi. Tadbir davomida “Vatanparvar” taşkilotiga a’zo böliş istagani bildirgan yoşlarga a’zolik guvohnomalari topşirildi.

Mazkur tadbirda iştirok etgan barça yoşlarda “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon”, “Avtokross” kabi texnik va amaliy sport turlari böyiça taşkil etilgan seksiyalar körgazmalari katta taassurot qoldirdi.

Albatta, muhim sana munosabati bilan ötkazilayotgan bunday tadbirlar yoşlarimiz qalbida ona Vatanga muhabbat va sadoqat hissini, harbiy-vatanparvarlik tuyğusini şakllantiradi. Çunki ularning ma’naviy barkamol şaxs sifatida şakllanişiga kömaklaşiş taşkilotning muhim vazifalaridan biridir.

Nurobod tumani ÖSTM NTM jamoasi barça xohlovçilarni “B”, “BC”, “CE” toifali haydovçilik kurslariga öqişga hamda sportning texnik va amaliy turlari – “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon”, “Avtokross” kabi seksiya va tögaraklarda şuğullanişga taklif etadi. Maşğulotlar malakali mutaxassislar tomonidan olib borilişi kafolatlangan.

**Nurobod şahri,
Guliston köçasi, 1-uy**

**97 030-40-16;
94 281-67-76**

E’TIBORGA MOLIK IŞLAR

Keyingi yillarda Kökdala tumanida ham yoşlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalaş hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirişga alohida e’tibor qaratilmoqda



**Kökdala qörğoni,
Erkin Vohidov köçasi, 23-uy.**

**97 381-79-79;
97 387-79-79**



Xususan, bu borada Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkilotining Qaşqadaryo viloyati kengaşi tasarrufidagi tuman öquv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasida amalga oşirilayotgan işlar ham e’tiborga molik bölmoqda. Çunonçi, markazda yoşlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaş bilan bir qatorda ularning jismonan soğlom, ma’nan yetuk insonlar sifatida kamol topişlariga ham muhim e’tibor qaratilmoqda. Şu bois “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon” kabi seksiyalar faoliyati yaxşi yölga qöyilgan.

– Yoşlarimizning nafaqat jismonan, balki ma’naviy jihatdan ham barkamol bölib şakllanişlari muhimdir, – deydi markaz direktori Şamsiddin Abduxoliqov. – Şu bois ma’naviy-ma’rifiy va harbiy-vatanparvarlik tarğiboti doirasida turli tadbirlar ötkazilmoqda. Bunday tadbirlar ayniqsa “Vatanparvar” taşkiloti taşkil topganining 35 yilligiga bağişlab ötkazilayotgani yanada quvonçli. Yoşlarimizning ona Vatanga muhabbatli, jasur va dovyurak yigitlar bölib yetişişida bunday tadbirlar salmoqli hissa qöşadi.

Ayni paytda markazda “B”, “BC”, “CE” toifali haydovçilar tayyorlaş va qayta tayyorlaş işlari ham zamon talablari asosida taşkil etilgan. Markazda faoliyat körsatayotgan boy tajribaga ega malakali mutaxassislar faoliyati haydovçilar tayyorlaş tizimining takomillaşuviga munosib hissa qöşmoqda.

Kökdala tumani ÖSTM NTM jamoasi barça yoşlarni haydovçilikning “B”, “BC” toifalariga öqişga hamda “C”, “E” toifalarga qayta tayyorlaş kurslariga taklif etadi. Nazariy va amaliy maşğulotlar malakali va tajribali mutaxassislar tomonidan olib borilişi kafolatlangan.

Şuningdek, sportning texnik va amaliy turlari bilan şuğullaniş imkoniyati ham mavjud.

MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLANMOQDA

Özbekiston Respublikasi mudofaasiga kömaklaşuvçi “Vatanparvar” taşkilotining Xorazm viloyati kengaşi tasarrufidagi Xonqa tumani öquv sport-texnika markazi nodavlat ta’lim muassasasi jamoasi tomonidan soğlom fikrli, erkin dunyoqaraşga ega yoşlarni tarbiyalaş borasida muayyan işlar amalga oşirilmoqda.



Xususan, “Vatanparvar” taşkilotining 35 yilligi munosabati bilan “Vatanparvar” taşkiloti – mening tanlovim!” şiori ostida turli ma’naviy-ma’rifiy va harbiy-vatanparvarlik tadbirlari, uçraşuvlar, davra suhbatlari hamda sport musobaqalari ötkazilayotgani şular jumlasidandir. Yaqinda taşkil etilgan oçiq eşiklar kuni ham ana şu muhim sanaga bağişlab ötkazildi. Unda hamkor taşkilotlar bilan bir qatorda tumandagi 1-, 7-, 11-umumta’lim maktablarining yuqori sinf öquvçilari ham iştirok etdi.

– Taşkilotimizda şu kunlarda yoşlar orasida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirişga ham alohida e’tibor qaratilmoqda, – deydi markaz direktori Qamarbek Bekmetov. – “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon”, “Duatlon”, “Karting” kabi seksiyalarda 50 nafarga yaqin iqtidorli yoş muntazam şuğullanmoqda. Öz navbatida, markaz a’zolari uşbu sport turlari böyiça yaxşi natijalarni egallab kelmoqda.

Bundan taşqari, markazda malakali haydovçilar tayyorlaş işlari ham bugungi kun talabidan kelib çiqqan holda taşkil etilgan. Buning uçun barça şart-şaroitlar yaratilgan. Zamonaviy talablar asosida barpo etilgan avtodrom ham tinglovçilar ixtiyorida. Ayni bu yerda yoşlar uçun “A”, “B”, “BC”, “CE” hamda “D” toifali haydovçilik kurslari hamda qayta tayyorlaş öquv kurslari faoliyat körsatmoqda.

“Vatanparvar” taşkiloti Xonqa ÖSTM NTM jamoasi tumanda istiqomat qiluvçi barça yoşlarni haydovçilikning “A”, “B”, “BC”, “BE”, “CE” hamda “D” toifalariga öqişga va qayta tayyorlaş va malaka oşiriş kurslariga taklif qiladi. Bundan taşqari, “Havo miltiğidan öq otiş”, “Yozgi biatlon”, “Duatlon”, “Karting” kabi seksiyalarda ham qatnaşişingiz mumkin.

**Xonqa şaharçasi,
Xalqlar döstligi köçasi, 36-uy.**

97 453-77-47



Kinodagi izquvar Erkyul ... | Örikdan yirik meva | Graf ... Kristo (Edmon Dantes) | Qulay vaqt, fursat | Yurt (sinonim) | Qöşiqçi ... Rasul | Eyfel minorali şahar | Kaliş, ballon xom-aşyosi | "Şarq ...lari" (musiqiy tanlov) | Oy yer uçun | Xamir yoyadigan anjom | "Matbuot" dökoni | Eron şirin-liklari | "Döppi tikdim ...lari tillodan" | III şaxs, köplik | Aktrisa ... Abdullayeva ("Jiyda guli") | Suv tozalovçi kimyoviy modda | Oliy öquv yurti | Bel suyagi | Balxaş köli irmoği | Qadim yunon fayla-sufi | Nemis maşi-nasi | Suxoy samolyoti (abbr.) | "Sarbon" solisti Farhod ... | Çegaradan ötayotgan yuk nazo-rati | Çözma xamir taom | Pişave-rib ezilib ketgan ovqat | Dunyodagi eng katta vulqon | Reklama-dagi qöşaloq peçenye | Işçilar guruhi | Tajriba, mahorat | Venger avtobusi | Abu Ali ... Sino | "Xayr" aksi | "Sariq daryo" (Xitoy) | Nota № 2 | Çöyan erituvçi peç | Braziliya tötiquşi | Boşi berk köça | Gektar (abbr.) | Ham-momdagi "toğora" | Maşhur fotomodel ... Kempbell | Xristofor Kolumb oçgan qit'a | Talay, köpgina | Leonardo ... Vinçi | "Gap ..., vassa-lom!" | Jangovar hindular qabilasi | Komik aktyor Eddi ... | Ako ... ("Çarx-palak") | "TESLA" ixtiro-çisi ... Mask | Biçiq-çining qoğoz qolipi | Rus şoirasi ... Axmatova | Kundalik naşr | ... Oçil-diyev ("Handa-lak") | "Afsun-gar" boş qahra-moni | Spektakl orasidagi tanaffus | Santi-metr (abbr.) | Qizlar ismi | Quriliş materiali | "Quloq-xör" boksçi Mayk ... | Köz taşlaş, nigoh | Xonanda ... Niyoz-metova | San'at-kor ... Muham-madjonov | Mahsu-lotdagi ştrix-... | Aholi guruhi | "Tik-..." (draje) | "Mehmon-jonlar-dan ..." (serial) | Ip yigiriş anjomi | Qiliç (sportda) | Maişat, ayş-... | Ombor-lar majmui | Kimyoviy element, metall | Metro mijozi | Yaşaş joyi, makon | Poytaxti Kiyev | TV-yulduz ... Qöş-matov | Moddiy madaniy yodgorlik | Ommaviy ... vosita-lari (OAV) | Asosiy qon-tomiri | Suxandon ... Usmonova ("DAVR") | Yevropa-dagi daryo | Esmani ukasi ("Işq ertagi") | Alloma ... Nasr Farobiy | Yumşoq pat | Içra, uzra | Nemis bastakori Iogann Sebastyan ... | Şara-fiddin ... Yazdiy (tarixçi) | Pro-fessor, dotsent | "Ma, ol!" | Kiçik haj | Yaqin qarin-doş | Baliq uruği | Bahodir Jalolov sporti | Şimila-digan suzmali şarçalar | "Vodiy sadosi", "Oriyat Dono" | Quvvat, mador | Toşkent bozori | ... hayot (suv) | Arğu-moq, yilqi | Prezident Donald Tramp davlati | Makkor hiylasi | Xalq şoiri ... Mirzo | Pilikli çiroq | Ziçlik belgisi | Çaqa-loqqa qöyiladi | Qirol Odissey oroli (mif) | Hisob "harfi" | Qimmat-baho toş, aqiq

Tuzuvçi: O. Xudoyqulov



Gazetamizning ötgan 45-sonidagi savolga III darajali serjant **Abdullajon Qahhorov** **"ŞAXMAT"** deya töğri javob yölladi. Zukko muştariyimizni ğoliblik bilan tabriklaymiz!

"Vatanparvar" savoli

Xalq tilida bu söz allaqaçon iboraga aylanib ketgan. U ot yoki eşakning dumi ostidan ötkazilib, egarga birlaştiriladigan maxsus qayişdir. Agar bu qayiş böşaşsa, egar öynab, çavandoz uçun noqulay holatni keltirib çiqaradi. Aksinça, uning tarang va mahkam turişi egarning mustahkam örnaşişini ta'minlaydi.

Diqqat, savol! Ana şu xususiyatlarni özida mujassam etgan iborani ayting!

MUASSIS:
ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarşiyev
polkovnik Alisher Ergaşev
podpolkovnik Uluğbek Fattaxov

Tahririyatga kelgan qölyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlaşgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Boş muharrir vazifasini vaqtinça bajaruvçi: kapitan Bobur Elmurodov

ISSN 2010-5541

Gazeta Özbekiston matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan röyxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bölim: 55 511-25-72

Navbatçi: kapitan Dilşod Röziqulov
Sahifalovçi: Tohirjon Turğunboyev
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6227
Hajmi: 6 bosma taboq
Biçimi: A3
Adadi: 31 720 nusxa
Bosişga topshiriş vaqti: 14:00
Topşirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilişi uçun obunani rasmiylaştirgan taşkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli çop etilişiga "Özbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni çiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan çiqa boşlagan.

Nashr ko'rsatkiçi: 114.
Bahosi: kelişilgan narxda.

"Özbekiston" naşriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida çop etildi.
Bosmaxona manzili: Toşkent şahri, Alişer Navoiy köçasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toşkent şahri, Olmazor tumani, Sağbon köçasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlaşgan tahririyati bilan boğlaniş uçun telegram bot

BIZ HAQIMIZDA

https://gov.uz/oz/mudofaa
t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi
vatanparvar@mil.uz
vatanparvar-bt@umail.uz
mudofaavazirligi
mudofaavazirligi
www.youtube.com/c/UzArmiya